

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



5A120102 - Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti  
Bahodirova Namunaxon Sherzod qizining

O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIGA XOS YORNI  
IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA  
USLUBIY XUSUSIYATLARI

mavzusidagi

## MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

### ISHI

O'zbek tili kafedra mudiri:

N. Uluqov, f.f.d., professor

MDI rahbari:

N. Uluqov, f.f.d., professor

Namangan – 2019

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. O`zbek poetik leksikasida yorni ifodalovchi birliklar semantik maydoni.</b>	
1.1. Mazmuniy maydon nazariyasi va yor semantik maydoni.....	7
1.2. O`zbek poetik leksikasida yorni ifodalovchi birliklar va ularning gender tabiatи.....	14
1.3. Yorni ifodalovchi birliklarda uslubiy baho.....	19
Bob bo`yicha xulosalar.....	28
<b>II bob. O`zbek mumtoz she'riyati leksikasiga xos yorni ifodalovchi birliklarning leksik-semantik tahlili va tavsifi.</b>	
2.1.Yorni ifodalovchi birliklarning nominatsion-motivatsion xususiyatlari.....	29
2.2. Nom ko`chishi orqali yorni ifodalovchi birliklar.....	36
2.3. Yorni ifodalovchi birliklarda shakl va ma’no munosabatlari.....	45
Bob bo`yicha xulosalar.....	50
<b>III bob. O`zbek mumtoz she'riyati leksikasiga xos yorni ifodalovchi birliklarning shakllanishi, takomili va taraqqiyoti.</b>	
3.1. O`zbek poetik leksikasiga xos yorni ifodalovchi birliklarning lisoniy takomili va taraqqiyoti.....	52
3.2. Yor semali leksemalarning tarixiy-etimologik manbalari.....	59
3.3. O`zbek mumtoz she'riyatida qo`llangan yor semali birliklarning shakliy tuzilishi.....	65
Bob bo`yicha xulosalar.....	73
<b>Xulosa.....</b>	<b>74</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>77</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>81</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Til va adabiyotni o`rganish xalq ruhiyatini o`rganishga, ona tilini yuksakka ko`tarish millatni sharaflashga, adabiyotga e`tibor ma`naviyatni, ma`rifatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotimiz butun dunyoga o`z ko`lami, mazmun-mundarijasi bilan ma'lum va mashhur. O`z adabiyotimizni, she`riyatimizni yanada chuqurroq anglash, yangi vujudga kelayotgan usullar, ilm sohalari bilan yangicha zamonaviy yondashuv har bir filologning vazifasidir. Muhtaram Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev so`zlari bilan aytganda, o`zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o`rganish va targ`ib qilish, ko`p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim adabiy jarayonlar bilan uzviy bog`liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, mumtoz o`zbek she`riyatida ishq-muhabbat mavzusi yetakchi o`rin tutadi. Ishqiy satrlarda yor ta'rifi, oshiq iztiroblari ifodalanadi. Bir so`z bilan aytganda, lirikaning yadrosini yor tashkil etadi. Oshiq o`z sevgilisini ta'riflash uchun bor mahoratini ishga soladi. Natijada yorni bildiruvchi turlituman birliklar yuzaga keladi. Bunday birliklar o`zbek poetik leksikasida ma'lum mazmuniy maydonni tashkil etadi. Ushbu mazmuniy maydonning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o`rganish o`zbek tili leksikasini sistem-struktur jihatdan tahlil qilishda hamda mumtoz she`riyatimizni lingvopoetik tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir.

Qolaversa, o`zbek tili leksik sistemasining obyektiv olam sistemasiga bo`lgan munosabatini to`la yoritish ham o`zbek tili leksikasining mazmun jihatidan qanday mazmuniy maydonlardan (paradigmalardan) tashkil topganligi, bu mazmuniy maydonlar tarkibiga kiruvchi leksik-semantik guruh (LSG) va leksik-semantik qator (LSQ) larning ichki tuzilishi va tuzilish birliklarining o`zaro munosabati, har qaysi maydonlarning uzviy bog`lanishi kabi masalalarni o`rganish bilan chambarchas bog`liqdir. O`zbek tilshunosligida til birliklarini

maydon asosida o'rganish keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu usul, bizning nazarimizda, ayniqsa, leksikani o'rganishda katta ahamiyatga ega. O'zbek tili leksikasini makromaydon sifatida qaralgani holda, uni mikromaydonlarga ajratish tezauruslar, ideografik lug'atlar tuzishda katta samara beradi. Shuning uchun ham lingvistik maydon va til lug'at tarkibini bunday maydonlarga ajratishning nazariy asoslarini chuqr va atroflicha o'rganish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng muhim masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining "Davlat tili haqida"gi qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni va "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning o'r ganilganlik darjasи.** O'zbek mumtoz adabiyoti ko'plab adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodi haqida M.Shayxzodaning "Xamsa"da muhabbat problemasi", "Navoiyda ayol obrazi", Hamid G'ulomning "Navoiy asarlarida xotin-qizlar obrazi" maqolalari, A. Hayitmetovning "Navoiy dahosi", "Navoiy lirikasi", B. Bafoyevning "Navoiy asarlari leksikasi", Y. Is'hoqov "Navoiy poetikasi", S. Olimning "Ishq, oshiq va ma'shuq", A. Qayumovning "Alisher Navoiy" kabi ko'plab ishlari e'lon qilingan. Mumtoz adabiyotimiz uchun maxsus lug'atlar tuzilgan, leksik-grammatik xususiyatlari atroflicha o'r ganilgan, ammo o'zbek mumtoz adabiyotidagi yor obrazi tilshunoslik jihatidan tadqiq etilmagan. Sh.

Iskandarova o`z doktorlik ishida shaxs maydoni doirasida yor semali birliklar haqida ham ayrim fikrlarni bildirib o`tadi. Biroq yor semali birliklar poetik leksikada tutgan o`rni, salmog`i jihatidan alohida tadqiqotlarni talab etadi.

**Tadqiqotning maqsadi** o`zbek mumtoz she`riyatiga xos yorni ifodalovchi birliklarning leksik-semantik, uslubiy, badiiy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Dissertatsiya mavzusining mazmun-mohiyati va asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur ish oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

1. O`zbek mumtoz she`riyatiga xos yorni ifodalovchi birliklarni yig`ish.
2. O`zbek mumtoz she`riyatidagi *yor* semali birliklarni tarixiy-etimologik, xronologik jihatdan tahlil qilish.
3. *Yor* semali birliklarning strukturasi va yasalish modellarini izohlash.
4. *Yor* semali birliklarning uslubiy-sintaktik vazifalarini belgilash va qo`llanish xususiyatlarini aniqlash.
5. *Yor* semali birliklarni statistik tahlil qilish.
6. O`zbek poetik leksikasiga xos yorni ifodalovchi birliklarning lisoniy takomili va taraqqiyotini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o`zbek mumtoz she`riyati, xususan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy asarlari va ularda qo`llangan yorni ifodalovchi birliklar olindi.

**Tadqiqot predmetini** o`zbek mumtoz she`riyatiga xos yorni ifodalovchi birliklarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada nominatsion-motivatsion tahlil, tavsifiy tahlil, lug`aviy-ma`noviy tahlil, strukturaviy tahlil, etimologik tahlil, derivatsion tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** O`zbek leksikologiyasida yorni ifodalovchi birliklar semantik maydoni, ularning motivatsiyasi, paydo bo`lish tamoyillari, gender xususiyatlari, leksik-semantik tahlili tadqiq etildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Yor semali birliklar semantik maydoni o`zbek mumtoz poetik leksikasida muhim o`rin egallaydi, chunki mumtoz adabiyotimizda eng asosiy mavzu – ishq. Illohiy ishq haqida gap ketadimi, majoziy ishq kuylanadimi, farqsiz. Har ikki holda ham yor ta`rifi asosiy o`rinda turadi. Shoirlar ijodida ham, shoiralar ijodiy merosida ham yor semali birliklarning aksari teng foydalanilgan, ya`ni yor go`zal ayol ko`rinishida tasvirlangan. Ushbu tadqiqot ishida asosan o`zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin vakili Alisher Navoiy she`riyati o`rganildi. Boshqa ijodkorlar she`riyati shoir ijodiga qiyosan tahlil qilindi.

Ushbu mazmuniy maydonning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o`rganish o`zbek tili leksikasini sistem-struktur jihatdan tahlil qilishda hamda mumtoz she`riyatimizni lingvopoetik tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot natijalarining e`lon qilinishi.** Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan 20 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar e`lon qilingan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan, o`zbek mumtoz she`riyatiga xos yorni ifodalovchi birliklar lug`atidan tashkil topgan bo`lib, 80 sahifadan iborat.

# I BOB. O`ZBEK POETIK LEKSIKASIDA YORNI IFODALOVCHI

## BIRLIKlar SEMANTIK MAYDONI

### 1.1. Mazmuniy maydon nazariyasi va yor semantik maydoni

XIX asrga kelib fizikadagi magnit maydoni nazariyasi ta'sirida tilshunoslikka ham maydon tushunchasining nazariy talqini yuzaga keldi. XX asr boshlarida barcha fanlarda sistemaviy tadqiqotlarning kuchayuvi, tilning ham sistemaviy tabiatiga ega ekanligining e'tirof etilishi, sistemaning ikki va undan ortiq elementlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topgan butunlik sifatida tan olinishi, o'rganilayotgan obyektning moddiy tomoniga emas, balki ular o'rtasidagi va bir obyektning ichki uzvlari o'rtasidagi munosabatlarga tadqiqotchi diqqatining ko'proq jalb qilinishiga olib keldi.

Leksik sathda leksik birliklar o'rtasidagi munosabat ikki yo'nalishda leksemalarning o'zaro sinonimik, antonimik, omonimik, partonimik, singari munosabatlari va bir leksema tarkibidagi semalarning munosabatlari, ya'ni leksemaning semik tarkibiga e'tibor qaratilsa, ikkinchi yo'nalishda esa sistemaning tashkil qilgan ichki a'zolarining shajaraviy munosabatini ochishga, jins-tur munosabatiga diqqat jalb qilinadi.

Leksik birliklarning shajaraviy tabiatini yoritishga e'tiborning qaratilishi esa leksik sistemaning makro va mikrosistemalar butunligi, ya'ni sistemalar sistemasi sifatida talqin qilish imkoniyati tug'ildi.

Olamning lisoniy manzarasi (OLM) tushunchasining paydo bo'lishi ham tilshunoslikda lingvistik maydon nazariyasining tug'ilishi va rivojlanishiga sababchi bo'ldi, chunki olam inson ongida muayyan mikroolamlarga, ya'ni paradigmalarga bo'lingan holda aks etadi. Inson ongida aks etgan olamdagagi ana shu paradigmalar o'z lisoniy ifodasiga ega bo'lib, leksik paradigmalarni hosil qiladi. Har qanday tilning leksik sistemasi ma'lum ma'no umumiyligi asosida birlashgan bir qancha paradigmalarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Ana shunday ma'no umumiyligi asosida xotiramizda birlashgan lisoniy birliklar paradigmasi lingvistik maydon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ma'lum

ma’no umumiyligi asosida birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o’xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig`indisi lingvistik maydon sifatida belgilandи.

Lingvistik birliklarning ma’lum ma’no asosida birlashuvi, ma’lum bir tildagi lug`aviy birliklarni ana shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish sharq tilshunosligida rivojlangan. Keyinchalik, XIX asrda lingvistik birliklarni mazmuniy guruhlarga birlashtirish yoki butunni ma’lum mazmuniy guruhlarga ajratish g`oyasi Yevropada avj oldi. Shunga ko`ra, bu nazariya Yevropa tilshunosligi bilan uzviy bog`lanib qoldi.

Inson ongida barcha narsalar bir sistema tarzida jamlanadi. Chunki olamning o`zi bir sistemadir. Olamning sistemaligi shundaki, u o`zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlitlikdir. Bu yaxlitlik kichik butunliklarga bo`linuvchanlik xususiyatiga ega. Bizni qurshab turgan olamni tashkil etgan elementlar ma’lum umumiyligi belgilarga ko`ra sinflarga birlashadi hamda sinfga birlashgan elementlar shu sinf tarkibida bir-biridan farqli belgilarga ko`ra ajraladi. Butun elementlari butunliklar doirasida o`zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo`lsa, ayni chog`da, butunlik bilan butunlik katta butunlik doirasida uning elementlari sifatida o`zaro ana shunday munosabatda bo`ladi. Shunday qilib, obyektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni paytda, bo`laklarga bo`linish xususiyatiga ega bo`lgan murakkab sistemadir. Masalan, hayvonot olami tirik mavjudotlar sinfida o’simliklar dunyosi, insoniyat dunyosi kabi sinfnинг elementlari bilan o`zaro shartlangan va zidlangan munosabatda bo`lsa, tirik mavjudot uchun bo`lak vazifasini bajaradigan har qaysi qism o`zi mayda elementlarni birlashtirib, undan kichikroq butunlikni, nisbiy kichik sistemani tashkil qiladi. Jumladan, hayvonot olami turli belgilarga ko`ra turli guruhlarni tashkil etadi: sut emizuvchilar va sut emizmaydiganlar; oyoq bilan yuruvchilar va sudraluvchilar; suv hayvonlari va quruqlik hayvonlari va boshqalar. Obyektiv olamning bu bo`linishi inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi. To`g`rirog`i, inson obyektiv olam elementlarining umumlashgan obrazini

ongda aks ettiradi va ularning umumlashgan obrazini aks ettirish jarayonida har qaysi olam predmetining umumiyligi va xususiy belgilarini ajratadi.

XIX asrda leksik birliklar umumiyligiga M. Pokrovskiy tomonidan e'tibor qaratildi. Maydon tushunchasining nazariy talqini I.Trir, G.Ipsen, V.Portsig, L.Vaysgerber, A.Yolles ishlarida ko'zga tashlanadi, keyinroq A.A.Ufimseva, N.I.Filicheva, Y.N. Karaulov, G.S.Shchur kabilar ishlari bilan bu nazariya rivojlantirildi.

Shuni ta'kidlish lozimki, lingvistikaga maydon nazariyasi mazmuniy maydon tushunchasi sifatida kirib keldi. Bu nazariyaning paydo bo'lishi o'tgan asrning 20-30-yillariga to'g'ri kelib, u V. Gumboldning tilning ichki shakli xususidagi ta'limotini qayta yangi yo'nalishda ko'rib chiqilishi bilan bog'lanadi. Bu davrda uzoq davom etgan lingvistik tadqiqotlarning asosiy obyekti bo'lган tilning ichki shakli sifatidagi ilmiy bahslar ushbu nazariyaning dunyoga kelishi uchun asos bo'ldi. Mazmuniy maydon termini o'sha paytda tadqiqotchilar tomonidan turlicha izohlanadi. I.Trir mazmuniy maydon sifatida tushunchalar maydoni, tushunchalar doirasini nazarda tutdi. L.Vaysgerber til mazmunining ma'lum qismi, tarkibining bo'lagi, V.Porsig ma'nolarning mohiyati bog'liqligi, G.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog'langan so'zlar guruhini semantik maydon tarzida takqin etadi. A.Yolles esa uni semantik birlashish deb nomlab, uning doirasida antonimik juftliklarni birlashtiradi. F.Dornzayf va V.Vartburglar til lug'aviy tarkibi ajratilish mumkin bo'lган semantik guruhlarida mazmuniy maydonni ko'radilar. Yuqoridagi tadqiqotchilar mazmuniy maydon atamasini har xil tarzda izohlashlariga qaramay, ularni semasiologik tadqiqotlar asosi bo'lган tilning ichki shaklini tushunishda tilni har tomonlama va turlicha munosabatlarda o'rghanishlari bilan birlashtirish mumkin. V.Gumboldning ichki shakl ta'limotini L. Vaysgerber va Y.Trir tushunchaviy mohiyati jihatidan, G.Ipsen va V.Portsig so'zlarning mazmuniy guruhi hamda sistemasi tomonidan, F.Dornzayf va Vartburg esa tilning lug'at tarkibiga xos predmetlilik va tushunchalar guruhi nuqtai nazaridan rivojlantirdilar.

O'zbek tilshunosligida ham 70-80-yillardan boshlab, sistema (maydon) talqini bilan bog'liq ayrim qarashlar bayon qilindi. Bu o'rinda professorlar I.Qo'chqortoyev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, E.Begmatov kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini esga olish muhim. Dastlabki tadqiqotlar mazmuniy maydon doirasidan kelib chiqib, turli lug'atlar (ko'proq tezauruslar) tuzish uchun umumiy qonuniyatlarni ochishda nazariy asos bo'ldi. Keyinroq bu yo'nalishda tilning boshqa satxlari, jumladan, morfosemantika, grammatika singarilar doirasida ham jiddiy asarlar yuzaga keldi.

Sh. Iskandarova "O'zbek tili leksikasini funksional-semantik maydon sifatida o'rganish" (shaxs maydoni) mavzusida doktorlik ishini himoya qildi (1999) va monografiyasini nashr etdi. Bu bilan olima o'zbek tilshunosligida "maydon" tushunchasini qo'llanish doirasini yanada kengaytirdi. Sh. Iskandarova olamning guruhlarga bo'linishi va uning tilda aks etishi haqida batafsil fikr yuritib, shaxs mikromaydonida faoliyat ko'rsatuvchi 100 ga yaqin leksik-semantik guruh haqida ma'lumot beradi. [12,23] T. Mirzaqulov o'zbek tili morfem paradigmatisi va sintagmatikasi masalalari ustida to'xtalar ekan, funksional-semantik maydonning xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilgan. U maydon bir umumiylar mazmun yoki shakl o'xshashligi asosida turli sathlarga tegishli birliklarning funksional-semantik birlashuvindir deb e'tirof etadi. X.Hojieva esa hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarni yaxlit maydon sifatida o'rganib, mazkur vositalarning o'zaro ma'nodoshligi bilan birga ko'p ma'noliligi, tejamkorlikka munosabatini ham aniqladi. U "hurmat"ni ifodalovchi grammatik formalarning turli xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilgan.

Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar so'z ma'nosining tadqiqi bilan bog'liqdir. So'zlar ma'lum semasiga ko'ra muayyan semantik maydonlarga birlashadi. Semalar sememalarining semantik maydonda joylashish mavqeyiga qarab arxisema, integral sema, differensial sema va potensial sema kabi tiplarga bo'linadi va ular iyerarxik tartibdagi o'rniga qarab turlichay vazifa bajaradi. Arxisema – sememalar uchun umumiy bo'lgan sema.

Sememalar asosida leksemalar ma'lum semantik maydonlarga birlashuvchi sema arxisema deb ataladi.

Integral sema termini dastlab fransuz tilshunosi B. Pot'e tomonidan, keyin unga ergashgan holda B. Gak tomonidan tilga olindi. Ular bunda ma'lum semantik maydonga mansub leksemalar sememasasi umumiyligini bo'lgan semani arxisema deb bilgani holda o'sha semantik maydonning kichik guruhi (maydonchalari)ga mansub leksema sememalari uchungina umumiyligini bo'lgan semani integral sema deb talqin qilishgan. Keyingi yillarda integral semani umumiyligini, mushtarak, birlashtiruvchi sema nomi bilan qayd etadilar. Tilshunoslarning integral sema haqidagi qarashlarini umumiyligini holda quyidagicha ifodalashimiz mumkin: integral sema – yagona arxisemaga ega sememalar leksemalarning semantik maydoni tarkibidagi kichik semantik maydonchasiga mansub leksemalar sememalari uchun umumiyligini bo'lgan sema. U iyerarxik tartibga ko'ra 2-o'rinda turadi. M.Mirtojiyev integral sema haqidagi fikrlarni shunday xulosalaydi: integral sema ma'lum semantik maydondagi semantik guruhgaga mansub leksemalarning sememasasi uchun umumiyligini bo'lgan, ularni o'zaro birlashtirib turuvchi sema.

O'zaro aloqador sememaning bir-biridan ajralishi differensial sema asosida bo'ladi. H.Ne'matov, R.Rasulov differensial semani farqlovchi sema deb ham aytadilar va farqlovchi sema deb ikki leksemani bir-biridan farqlaydigan semalar deb ta'riflaydilar.

Potensial sema semalarning iyerarxik tartibida 4-o'rinda turadi. B.Gak: potensial semalar turli ikki darajali, ba'zan predmetning zarur bo'lgan belgisini ifodalaydi. M.Mirtojiyev: potensial sema mazkur leksemalar sememasida fakultativ holatda yashirin bor bo'lib, ma'lum nutq sharoitida namoyon bo'luvchi semadir.

Semalar so'z tarkibida tutgan o'rni va borliqqa bo'lgan munosabatiga ko'ra ikki tipga bo'linadi: denotativ va konnotativ sema. Denotativ ma'no sememaning bevosita, denotativ ifoda etgan uzvidir. Konnotativ sema termini o'rnida an'anaviy tilshunosligimizda konnotativ ma'no termini qo'llab keltingan.

Konnotativ ma’no termini o’rnida H. Ne’matov, R. Rasulovlar ifoda sema terminini qo’llaganlar. Ifoda sema so’z semasining denotativ semasidan qolgan, unga turli qo’shimcha grammatik va subyektiv munosabat ifoda etuvchi uzvidir.

Shunday qilib maydon nazariyasi hozirgi o’zbek tilshunosligida ham keng rivojlanib bormoqda. O’zbek tilining hurmat maydoni, anemonik maydoni, shaxs maydoni, qarindosh-urug`chilik maydoni singari qator maydonlar tadqiqiga bag`ishlangan bir qancha asarlar dunyoga keldi.

Shu bilan birga, aytib o’tish lozimki, o’zbek tili leksikasida o’z tadqiqini kutayotgan, o’rganilishi lozim bo’lgan mazmuniy maydonlar anchagina. Ana shulardan biri yorni ifodalovchi birliklar semantik maydonidir. Sh. Iskandarova o’z doktorlik dissertatsiyasida shaxs maydoni doirasida bunday birliklar haqida ham fikr yuritadi. Xususan, **sevgi-muhabbat asosida birlashgan shaxs nomlariga** *oshiq, oshiq-u beqaror, xushtor, shaydo, ma’shuq(a), mahbub(a), yor* tarzidagi birliklarni kiritadi. [12, 31] *Go’zal, sohibjamol, nozanin, mohpora* kabi birliklarni esa **subyektiv tashqi qiyofa bildirgan shaxs nomlari** deb belgilaydi. O’zbek poetik leksikasini tahlil etish natijalari shuni ko’rsatadiki, yorni ifodalovchi birliklar ko’lam jihatidan muhim o’rin tutadi. Bu hol ayniqsa mumtoz o’zbek adabiyotida yaqqol ko’zga tashlanadi, chunki mumtoz she’riyatimizda lirikaning asosini ishq-muhabbat egallaydi. Yorni ifodalovchi birliklarning salmog’i anchagina. Shu bois ham shaxs maydoni tarkibiga kiruvchi yor semantik maydonining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o’rganish muhim ahamiyatga ega. Bu birliklarni *yor* arxisemasi bir maydonga birlashtiradi. Ayni paytda ushbu semantik maydon o’z ichida yana bir qancha kichik maydonlarga ajraladi. Shu o’rinda, avvalo, *yor* leksemasining semalariga e’tibor qaratsak:

1. *Dilga yaqin kishi; hamdam, do’st, muhib; yordamchi.*
2. *Sevgili, ma’shuq, ma’shuqa.* [42, II, 43-44 b.]

Yor – muhabbat qo’yilgan inson. Ma’lumki, muhabbatda uch timsol mavjud: *oshiq, ma’shuq (ma’shuqa)* va *raqib*. Ularning har birini ifodalovchi bir qancha so’z, birikmalar mavjud. Ko’rinadiki, yor deganda *oshiq* uchun ham,

raqib uchun ham ma'shuqa; ma'shuqa uchun esa yo oshiq, yoki raqib tushuniladi. Demak, yorni ifodalovchi birliklarni dastlab uch guruhga ajratib olish lozim:

1. Oshiqni ifodalovchi birliklar.
2. Ma'shuq (ma'shuqa) ni ifodalovchi birliklar.
3. Raqibni ifodalovchi birliklar.

Biz ushbu tadqiqotda ma'shuq (ma'shuqa) ni ifodalovchi birliklarga asosiy e'tiborni qaratdik va keyingi o'rnlarda yor leksemasidan ikkinchi semasiga asosan ma'shuqa ma'nosida foydalandik. Ushbu mazmuniy maydonning leksik-semantik, uslubiy, poetik xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish orqali leksikaning sistemalar sistemasi ekanligi ham anglashiladi.

Tilni maydon sifatida o'rganish olamni ong-til dialektik munosabatini asosli yoritishga yordam beradi. Maydon nazariyasini ideografik lug`atlar tuzishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ideografik lug`at tuzish tamoyillarini belgilash esa o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masala sanaladi. Bu masalani hal etish uchun maydon nazariyasini keng va atroficha o'rganish lozim bo'ladi.

## **1.2. O'zbek poetik leksikasida yorni ifodalovchi birlıklarning gender tabiatı**

“Gender” termini 1968-yilda amerikalik olim Stoller tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ilmiy adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha talqini mavjud. “Gender” inglizcha so‘z bo‘lib, “jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari” ma`nosini bildiradi. Bu tushuncha erkak va ayol o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarni to`liq qamrab oladi. Erkak va ayollarga tegishli ijtimoiy bog`liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Ularni ilmiy tadqiq qilish gender tilshunosligining yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo tilshunosligida gender tilshunosligi borasida izlanishlar olib borish qizg`in tus oldi. Shuningdek, Z.Akbarovaning “O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi” hamda N.Ahmedovaning “O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishlarida jins anglatish maydoniga ko‘ra murojaat so‘zlar guruhining izohi haqida to`xtalib o’tilgan. Sh.Iskandarovaning “O'zbek nutq odatining muloqot shakllari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba’zi lingvistik farqlar va “O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o’rganish (shaxs mikromaydoni)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning “Ayollar nutqida undov so‘zlarning qo‘llanishi”, “O'zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar” nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos ba’zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Respublikamizda gender tilshunosligi borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi. Jumladan, A.Morozova, I.To`xtasinov va G.Ergasheva kabi yosh olimlarning nomzodlik tadqiqotlari bunga yaqqol misoldir. A.Morozova gender masalasiga ispan tili materiallari asosida yondashib, “erkaklik” va “ayollik” konseptlari mazmuni, ularga xos gender stereotiplar tavsifi haqida ilmiy

mulohazalar bildiradi. Uning tadqiqoti kognitiv yo`nalishda olib borilgan bo`lishiga qaramay, tadqiqotchi gender tilshunosligiga ham taalluqli fikr-mushohadalar va taxminlarini ilmiy asosda havola qiladi. I.To`xtasinov ingliz va o`zbek tillariga xos badiiy matnda qo`llanuvchi erkak hamda ayollarga xos fiziologik, ya`ni, yuz va tana tuzilishi bilan bog`liq leksik birliklarning gender farqlanishini qiyosiy-tipologik aspektida keng ochib bergan. G.Ergasheva ingliz va o`zbek tilining frazeologik va paremiologik sistemasiga xos erkak va ayol tushunchalarining gender, pragmatik, kognitiv xususiyatlari, gender stereotiplarning o`zbek frazeologiyasidagi tavsifi, o`zbek paremiyalarining gender tahlili, ularning ingliz tilidagi ifodalari bilan o`xhash yoki noo`xhash jihatlari haqida fikr yuritadi. Gender lingvistikasiga jiddiy e`tibor f.f.d., prof. M. Qurbonovaning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. 2011-yilda chop etilgan “O`zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko`zgusida” nomli ilmiy maqolalar to`plamida S. Boymirzayeva bilan hamkorlikda “Tilshunoslikda gender tadqiqotlar” hamda “O`zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari ilmiy to`plamida N. Rajabova bilan hammualliflikda “Diskursning gender xususiyatlari” nomli ilmiy maqolalari o`rin olgan. Bu kichik tadqiqotlarda tilshunoslikda gender yo`nalishning tadrijiy taraqqiyot yo`li, shu yo`nalishning paydo bo`lishiga turtki bo`lgan g`oyalar va ilmiy xulosalar, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning tilshunoslik bilan umumiylilik usullarining paydo bo`lishi va ularning yangi yo`nalishlarga asos bo`lib xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, “Tilshunoslikda gender tadqiqotlar” maqolasida M. Qurbonova til va gender munosabati, jahon ilmiy maydonida gender atamasining ma`nolari, g`arb va rus tilshunoslarning bu yo`nalishdagi muhim ishlarini sanash bilan birga genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalarining gender xossalalariga ko`proq e`tibor berilgan bo`lsa, hozirgi kundagi gender tadqiqotlarda erkak va ayollarga xos bo`lgan “lingvistik assimmetriya”ni aniqlash va uning ijtimoiy jins tushunchasi bilan munosabatini belgilashga qaratilgani haqli ravishda bayon

etilgan M. Qurbonova tadqiqotlarni kuzatib bu sohada ikkita jihatga alohida e'tibor qaratilayotganligini ta'kidlaydi:

1. Ayol va erkaklar ma'lum bir voqelik yoki uning parchasini tasvirlashda, yoki boshqa holatlarda fikrlarni o'ziga hos tarzda bayon etishi (nutqning gender xususiyati).
2. Muayyan til tizimida ayollik va erkaklik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi (til tizimida ayol va erkaklarni bir-biridan ajratish, farqlashga xizmat qiluvchi til birliklarini belgilash) ga katta e'tibor qaratilgan va tahlil qilingan.

Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir. O'zbek tiliga xos bo'lgan bunday qoliplar yoki klischelarni badiiy asarlar tilidan ko'plab topish mumkin. Matnni o'rghanayotganda bevosita ismini o'qimasdan yoki bilmasdan ham qahramonning ayol yoki erkak ekanligini anglatuvchi tashqi belgilari mavjud. Bunday tashqi belgilarga yuz tuzilishi, ifodasi, qad-qomat, tana a'zolari tuzilishi, ovoz va kiyim-kechak, shuningdek, boshqa omillarni kiritish mumkin. Gender stereotiplarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Erkaklarga xos gender stereotiplar.
2. Ayollarga xos gender stereotiplar.

Yor semali birliklarning aksariyati gender stereotip darajasiga ko'tarilgan. Mumtoz adabiyotimizda shoirlar yorni go'zal ayol ko'rinishida tasvirlashadi, uning qad-qomati, yuzi, sochi kabilarga urg'u berishadi. Shoiralar uchun esa bu biroz qiyinchilik tug'diradi. Shu bois ular ijodida umumiylilik ko'zga tashlanadi. Biroq yana bir e'tiborli jihat mavjudki, uni aytib o'tish lozim. Mumtoz adabiyotimizda ko'pincha majoziy va ilohiy ishq qorishib ketadi. Haqiqiy yor – Alloh – go'zallikda tengsizdir. Dunyo go'zalliklari uning tajallisidir. Shu bois shoirlar ham she'riy satrlarda uning go'zalligini kuylaydilar. Ular ham erkak shoirlar foydalangan yor semali birliklarni qo'llaydilar va bu holat aslo g'alizlik tug'dirmaydi.

Gender stereotiplarni ikki asosiy turga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Tashqi ko`rinish bilan bog`liq gender stereotiplari.
2. Xarakter xususiyati bilan bog`liq gender stereotiplari.

*Yor* semali birliklar ma'shuqaning ham tashqi qiyofasini, ham xarakterini ifodalaydi. Shu xususiyatiga ko`ra *yor* semali birliklarni dastlab quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratish mumkin:

**1) yorning tashqi ko`rinishiga ko`ra ifodalovchi birliklar:** *buti zarrinkamar, buti siyminbadan, guli sumanbar, gulchehra, dilbari zebo, ko`rkaboy, lolarux, malohat gulbuni, mahro`, mohi sarvqad, oy, pari* kabi;

**2) yorning xarakteriga ko`ra ifodalovchi birliklar:** *ayyorvash, ahdshikan, badmehr, bevafo, begonavash, vafodor, jafokor, munis, nozanin, talxguftor, tiflavash, toshbag`ir, xo`b, sho`x, sho`xi beparvo, qotil* kabi;

**3) yorning ham ko`rinish, ham xarakteriga ko`ra ifodalovchi birliklar:** *malakxo`luq parizod, bahor, bahori nozparvard, jilvagar tovus, mahi badmehr, mohi muaddab, sho`xi zebo* kabi.

Ayollarga xos tashqi ko`rinishni aks ettiruvchi gender stereotiplar erkaklarga xos bo`lgan stereotiplardan katta farq qiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- a) yuz a'zolari qismi ifodasi;
- b) tana a'zolari qismi ifodasi;
- c) xarakter ifodasi;
- d) xatti-harakat ifodasi.

Ayolning yuz a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *qoshi yo, qaro qosh, egma qosh; qorako`z (qaroko`z), ko`zi usruk, ko`zi fatton, ko`zi qotil, ko`zi qora, ko`zi shahlo, ko`zlari kofar, ko`zi kofir, jodu ko`zluk, ko`zlari bodom, ko`zi qiymoch, ko`zi xumor, chashmi jodu, ko`zlari jallod; labi la`li Badaxshon, labi xandon; lolaruh, pariroy, gulro`, yuzi gul, pari yuzluk, yuzi moh, quyosh yuzluk, yuzi gulnor, yuzi nasrin, orazi gulzor; g`uncha dahan; "mim" og`izli, tor og`iz, pista og`iz* kabi.

Ayollarning tana a'zolari qismi ifodasini aks ettiruvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *siyminbadan, nozikbadan, qarosoch, kokili parishon, kokili qulloq, zulfi parishon, zulfi sumanbo'*, *sarv, sarvqad, sarvi siymintan, qadi shamshod, sarv bo'yluq sanam, qomati ra'no, siymbilak* kabi.

Ayollarning xarakteri ifodasi orqali aks ettiriluvchi gender stereotiplariga quyidagilar kiradi: *badmehr, bevafo, badahd, ahdshikan, vafodor, vafosiz, diloro, dilshikan, jafojo'*, *jahonso'z, jonon, zolim, zindadil, toshbag'irliq, bag'ritosh* kabi.

Ayollarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender sereotiplarga quyidagilar kiradi: *qaddi xushraftor, sarvi xiromon, shirin so'zluk, so'zi shirin, shakarxand, chobuksuvor, qotil, kajkulah* kabi.

Demak, biz tahlilga tortgan misollar faqat ayollarga xos tashqi ko'rinish va xarakterni ifodalovchi nutqiy birliklardir. Ma'lumki, ayol va erkak tanasi o'ziga xos tuzilishga ega, ana shu farqlanuvchi omillar badiiy matnda o'z ifodasini topadi. Shoirlar ayol obrazini tasvirlashda nozik va sarvqomat, jozibador va latofatli, qosh-ko'zlarida erkakni sehrlab qo'yishga qodir kuch yoki jodusi bor, g'uncha dudog` va qirmizi yanoq, mayin va shirali ovoz sohibasi degan go'zal ta'riflardan foydalanadi. Ana shu belgi va ta'riflar bevosita ayollarga xos bo'lgan gender stereotiplarni shakllantiradi.

### **1.3. Yorni ifodalovchi birliklarda uslubiy baho**

Yor arxisemali birliklar nafaqat yorni ataydi, balki emotsional-ekspressivlikni ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, ularda uslubiy baho ham ifodalanadi. Uslubiy baho denotativ ma'nodan kelib chiqadigan ijobiy yoki salbiy munosabatdir. Yor oshiq uchun dunyodagi eng go'zal va yetuk shaxsdir, shu bois ham yorni ifodalovchi birliklarda usluban ijobiy ottenka ustuvordir. Yorning tashqi ko`rinishini ifodalovchi birliklarda salbiy bahoni uchratmaymiz. Shoirlar yorning xarakteriga ko`ra ifodalovchi birliklar yordamida ma'shuqaning xislatlari, fazilatlarini to`la qamrab olishga intiladilar. Ma'shuqaning oshiqqa bo`lgan munosabati uning xarakterini belgilashga asos bo`lib xizmat qiladi. Yorning oshiqqa bo`lgan munosabatini yaxshi (ijobiy) va yomon (salbiy) deya farqlash mumkin. Mana shu xususiyatga ko`ra yorning xarakterini bildiruvchi birliklarni shartli ravishda ijobiy va salbiy ottenkali birliklarga ajratish mumkin.

Salbiy qirralar ijobiy xislatlardan ustunroq, chunki yor doimo oshiqqa azob berib, uning muhabbatini sinovdan o`tkazadi. Bunday salbiy xususiyatlarga quyidagilarni krita olamiz:

**1. Ayyorlik:** yor doimo hiyla qiladi, o`z foydasi uchun hatto oshiqni aldaydi ham. Yorning bu xususiyati *ayyorvash, ayyorko`z, jahon ayyorasi, buti ayyor, begonavash* kabi birliklarda aks etgan:

*Ko`z uchidin va `dai vasl aylab imo oldi jon,*

*Go`yiyo bozi berib jon oldi ul ayyorko`z.* [6, V, 156]

Yor bu baytda *ayyorko`z* deb atalmoqda. Yor oshiqqa vasldan imo qilib, jon bag`ishlaydi, ayni paytda bu bilan jon oladi. Mumtoz adabiyot bilan bir qatorda folklorda ham ayyorlik go`zal ma'shuqalarning doimiy odati sifatida keltiriladi. Xususan, “Malikai Ayyor” dostonida *ayyor* sifati atoqli ot darajasiga ko`tariladi. *Ayyor* leksemasi “Alisher Navoiy asarlari izohli lug`ati”da “*hiylagar, firibgar, makkor; sehrgar*” ma’nolariga ega ekanligi, *ayyorko`z* esa

“*makkor nigohli, maftun qiluvchi nigoh*” ma’nolarini anglatishi qayd etiladi. [4, I, 64]

**2. Ahdida turmaslik, bevafolik:** yor doim oshiqqa va’da beradi-yu, biroq hech qachon va’dasini bajarmaydi. Yorning bu xislati *badahd, ahdshikan, bevafo, bevafovash, vafosiz* kabi leksemalar; *ahdi yolg'on, buti paymongusil* kabi izofali birikmalar bilan ifodalanadi:

*Va'dayi vaslig'a yetmay o'lganimni, ey rafiq,*

*Qilg'asen har yerda ko'rsang ahdi yolg'onimg'a arz.* [6, III, 228]

Bu baytni oshiqning vasiyati sifatida qabul qilish mumkin. Oshiq yorning visoliga yetolmay o’lganini ma’shuqasi bilsa, balki, insofi uyg’onar deb umid qiladi. Yorga nisbatan ishlatilgan birlik – *ahdi yolg'on* ega + kesim shaklidagi birikma bo`lib, arabiylar *ahd* va umumturkiy *yolg'onning* qo’shiluvidan hosil bo`lgan.

**3. Bemehrlik:** yor oshiqlariga mehr ko`rsatishni, e’tibor berishni xayoliga ham keltirmaydi, doim yomon munosabatda bo`ladi. *Badmehr, bemehr, mahi badmehr, badmehr chobuk turk, nomehribon* kabi birliklarda mana shu holat aks etgan:

*Xo'blug' rasmin ilikdin berma, ey berahmkim,*

*Xo'blar oshiqlaridin qildilar aksarg'a rahm.* [6, VI, 303]

Oshiq yorning rahm qilishidan umidvor. U o’z fikrini ajoyib tarzda izohlaydi: “*agar yaxshilar safida bo`lmoqchi bo`lsang, ularning odatiga xilof ish qilma: yaxshilar oshiqlaridan ba’zilariga rahm qiladilar*”. Oshiq “*menga rahm qil*”, – deya ochiq aytmasdan o’z fikrini ta’sirli shaklda ifodalaydi. *Berahm* sifati hozirgi kunda ham iste’molda bo`lgan yasama so’z bo`lib, fors-tojikcha “*yo’q*” ma’nosini anglatuvchi *be-* qo’shimchasi hamda arabcha “*achinish, shafqat*” ma’nolariga ega *rahm* so’zining qo’shiluvidan hosil bo`lgan.

**4. Jafokorlik:** yor oshiqlarini qiynab, ularga azob berib, rohatlanadi, huzur qiladi. Uning bu xislati quyidagi birliklarda aks etgan: *jafojø, jafokor, jafokesh, sho'xi sitamgar, sho'xi sitamkor, jahonso'z, zolim, shohi zolim* kabi.

*Yo eshitmas, yo eshitkach zulmin aylar birga yuz,*

*Holing ul zolimg`a yuz ming qatla bas aytildi tut.* [6, III, 78]

Zolim arabcha so`z bo`lib, “zulm qiluvchi” ma’nosini anglatadi. Bu so`z hozirgi kunda ham iste’molda bo`lib, yuqoridagi sinonimlar (*jafokor, jafojo*, *sitamgar, sitamkor*)ning dominantasi hisoblanadi. Asosdosh *zulm* va *zolim* so`zlarining bir baytda qo’llanishi ishtiqoq san’atini yuzaga keltirgan. Baytda, shuningdek, tazod san’ati ham qo’llangan.

**5. Bag`ritoshlik:** yor oshiqqa nisbatan lutf ko’rsatish, rahm qilish haqida o’ylab ham ko`rmaydi, oshiqning nolalarini eshitishni ham xohlamaydi. *Bag`ritosh, berahm, toshbag`ir, sho`xi sangindil, zindadil* kabi yor semali leksemalarda ayni shu ma’no ifodalangan:

*O`tum xud etmadi ul bag`ritoshg`a ta’sire,*

*Bu yona o’tki, topilmas bu ishga tadbire.* [6, III, 465]

Umumturkiy *bag`ir* va *tosh* leksemalarining qo’shiluvidan hosil bo’lgan *bag`ritosh* qo’shma so`zi tarixan ega + kesim shakliga ega bo’lgan bo’lsa, *toshbag`ir* aniqlovchi + aniqlanmish ko’rinishidagi birikma hisoblangan. *Tosh* so`zi metafora usulida yangi semaga ega bo’lgan. *Sangindil, zindadil* so`zlari ham fors-tojik tilida metafora usulida paydo bo’lgan.

**6. Faqat o’zini o’ylash:** yor oshiq haqida o’ylamaydi, u o’zining go’zalligi bilan sarmast, o’jar va o’zbilarmon. *Sho`xi xudroy, sho`xi xudkom, sho`xi badxo`* kabi fors-tojikcha birliklarda ayni xususiyatlar o’z aksini topgan. E’tibor berish kerakki, Alisher Navoiy yorni *xudkom, xudroy* deb ataydi, biroq *xudbin* deb atashdan o’zini tiyadi, chunki xudbinning salbiy semasi boshqalaridan kuchliroq. Xudbin ichi qoraligi, ko’rolmasligi tufayli boshqalarga yomonlik qilish orqali o’z foydasini ko’zlaydi, yor esa bunday insonlar toifasiga kirmaydi, uning o’zini o’ylashi oshiqning holiga beparvoligi bilan bog`liq.

**7. Dindan og`diradigan darajada go`zal va makkor ekanligi:** yor ishva bilan jilva qilganda oshiq uning poyiga bor-u yo`g`ini nisor etadi, hatto qalbidagi din-u iymoni o’rnini ham yorga bo’lgan muhabbat egallaydi. Bu holni

oshiq *fusungar*, *ishvagar*, *kofir*, *kofiri xunxora*, *nomusulmon*, *sho`xi kofir* kabi birliklardan foydalanish bilan ifodalaydi.

*Kufri, zulfi dinu imonimni barbod aylabon,*

*Qilg`anin jon qasdi etkil **nomusulmonim**g`a arz.* [6, III, 230]

Baytda yor *nomusulmon* deb atalmoqda. *Nomusulmon* leksemasi fors-tojikcha *no-* affiksi va arabcha *musulmon* so`zlarining qo`shiluvidan hosil bo`lgan bo`lib, islom diniga ehtiqed qilmaydigan kishilarga nisbatan ishlataladi. Bu so`z baytda *kufr*, *din*, *imon* so`zlari bilan kelib, tanosub san`atini hosil qilgan.

**8. Oshiqlarining jonini ham qo`rqmay olish:** yor oshiqlariga azob beradi, e'tiborsizligi, hijroni bilan oshiqlarning joniga qasd qiladi. Bu hol *qotili tiyg`i hijronim*, *qotil*, *qotili xunxor*, *qotili bebok*, *sho`xi mardumkush*, *bebok*, *masti bebok* kabi birliklar bilan ifodalanadi:

*Bo`ldi ravzan-ravzan ul qotil xadangidin ko`ngul,*

*Jon qushi chiqmoqqa bir yo`l angla har ravzan manga.* [6, III, 35]

**9. Oshiq holidan bexabarlik, beparvolik:** yor oshiqlarining ahvoli bilan qiziqmaydi, ularga e'tibor bermaydi. Bu *mahi g`ofilvash*, *sho`xi beparvo*, *sho`xi nodon*, *begonavash* kabi birliklarda o`z ifodasini topgan:

*Aytmon shohimni yo mohimni yetkur qoshima,*

*Ham mahi g`ofilvashimni, shohi ogohimni ham.* [6, VI, 292]

*Mahi g`ofilvash* izofali birikma bo`lib, fors-tojikcha *mah* hamda *g`ofilvash* (arabcha *g`ofil* + fors-tojikcha *-vash*)ning qo`shiluvidan hosil bo`lgan.

**10. Achchiq so`zlilik:** yor ba`zan oshiqli shirin so`zini ham ravo ko`rmaydi. Mana shunday vaziyatlarda oshiqli ma'shuqasini *talxguftor* (fors-tojikcha *talx* – “achchiq” va *guftor* – “so`z, nutq”) deb ataydi:

*Jon agar shirin labingg`a o`lgali darxo `r emas,*

*Aylay alfozing uchun, ey talxguftorim, fido.* [6, I, 37]

Ba`zan bu xislatlar izofali birikmalar tarkibida aralash holda ham kelishi mumkin. Masalan, *kofiri sangindil*, *kofiri qotil*, *beboki nodon*, *kofiri badxo`* kabi.

*Ey Navoiy, achchig`-achchig` yig`larimni qilma ayb,*

*Kim erur ko`nglumni olg`an kofiri badxo` malih.* [6, IV, 77]

Yor oshiqqa shu qadar zulm qiladi, biroq oshiq o`z sevgisida sobit, mahbubasining arzimagan iltifoti ham uni yettinchi osmonga chiqarib qo`yadi. Shunday vaziyatlarda yorning birgina shirin so`zi *buti shirinkalom, sarvi shakarlab, shirinlab, sho`xi shiringo`, sho`xi shirinzabon* kabi ta`riflar qo`llanilishiga sabab bo`ladi. Shuningdek, oshiq uchun ma'shuqaning qiliqlari juda ajib tuyuladi (*sho`xi shirinkor*), yorning odobi, mehribonligi, vafosi ham e'tibordan chetda qolmaydi, *mohi muaddab, mehribon, vafodor, yori vafodor* kabi ta`riflarda bu xislatlar o`z aksini topadi:

*Qachon maktabqa ul mohi muaddab*

*Borur, o`zdin borurlar ahli maktab.* [6, II, 42]

*Mohi muaddab* birikmasi tarkibidagi *muaddab* arabiy so`z bo`lib, *odobli* ma'nosini anglatadi. Bu yorning ijobjiy xislatlaridan biridir.

Yor har sohada mohir, xususan, chiroyli va ta'sirli so`zlash – notiqlik san'atining bilimdoni:

*La`lu g`amzang birla baskim nuktadon ustodsen,*

*Bir nafas borsen Masiho, bir zamon jallodsen.* [6, I, 436]

Yor so`zlari, g`amzasi bilan fikr ifodalashda shu qadar kamolotga yetganki, goh Masih anfosi bilan jon bag`ishlaydi, goh jalloddek jon oladi. Yorning bu iqtidori unga nisbatan ishlatilgan “*nuktadon ustod*” birligida ham o`z ifodasini topgan. *Nuktadon* leksemasiga “Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”da “*gapdon, so`z nozikliklarini tushunuvchi nozikfahm; dono, bilimdon*” deb izoh berilgan. “O`zbek tilining etimologik lug`ati” da esa e'tibordan chetda qolgan. Hozirgi o`zbek adabiy tilida bu so`z iste'molda bo`lib, “*notiq*” leksemasining badiiy uslubga xoslangan sinonimi hisoblanadi va kam qo`llanadi.

Alisher Navoiy yorning so`zamolligi, shirinso`zligini ifodalovchi ko`plab birliklardan foydalanadi: *so`zi shirin, kalomi shakkarafshon, sho`xi shakarguftor, shirinlab, sho`xi shirinzabon, sho`xi shiringo`, shirin takallum, shohi suxandon* kabi. Bu sinonimlar Navoiy asarlarida yorga nisbatan qo`llanib,

bayt mazmunini kuchaytirishga, yorning xislatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandarning sevgilisi Mehrnozga nisbatan shoir *sho`xi shirinzabon* birikmasini qo`llaydi:

*Dedi makr ila sho`xi shirinzabon:*

*K-ey yetti kishvar uza marzbon*. [6, XI, 467]

Mehrnoz Iskandarning o`ziga nisbatan e’tiborsizligidan xafa bo’ladi, sevgilisini Ravshanakdan rashk qiladi. Shohning ko’rsatgan sabablarini tinglagan go`zal bu javobdan qoniqmaydi va o’z fikrlarini bayon etadi. U shirin so`z bilan o’z nutqini shoh Iskandarni madh etishdan boshlaydi (*yetti kishvar uza marzbon*), keyin esa o’z go`zalligini, Ravshanakdan ustun jihatlarini aytib o’tadi. So`ng o’z fikrlarini ajoyib va tahsirli tarzda tugallaydi:

*Ne xush debdur ul dardmandi firoq*

*Ki: “Oz baxt – ko `p husndin yaxshiroq”.*

*Shikoyat manga yo `qturur shohdin*

*Ki, shikvam erur baxti gumrohdin*. [6, XI, 471]

Mehrnoz shohdan emas, sevgilisidan e’tibor kutishini aytish orqali o’z muhabbatini ko’rsatish bilan birga Iskandarga nafaqat shoh, balki oshiq ekanligini, oshiqlik shartlarini eslatadi. Uning shirin va o’rinli so’zlari Iskandarga ta’sir qiladi va mahbubasidan uzr so’raydi. Bu Mehrnozning nutqiy mahorati samarasidir.

Bu birlikni fonetik tarkibini hisobga olgan holda fors-tojikcha deyish mumkin. Hozirgi o’zbek adabiy tilida *sho`x* va *shirin* leksemalari faol qo’llanadi, *zabon* esa kam ishlataladi (asosan gapira olish qobiliyati ma’nosida: *zabonsiz – gung, soqov*).

Ega + kesim shaklidagi *so`zi shirin* birikmasi ham *yor* ma’nosini anglatadi:

*Va ’dai vaslidin etsa ul so`zi shirin hadis,*

*Garchi yolg`on aytur, ani sog`inurmen chin hadis.* [6, V, 71]

Umumturkiy *so`z* va fors-tojikcha *shirin* leksemalarining qo’shilishidan hosil bo’lgan bu birikma hozirgi kunda *shirinso`z* shaklida ishlataladi. Eski

o'zbek tilida *so'z* omonim hisoblanadi: fors-tojikcha *yonish* ma'nosidagi leksema bu davrda faol qo'llangan, biroq u bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan.

*Hadis* leksemasi hozirgi o'zbek adabiy tilida “*islom dinidagi Qur'on dan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas manba*” ma'nosini bildiradi, biroq uning lug'aviy ma'nosini ham *so'zdir*. Bir ma'noga ega ikki *so'zning* bir baytda qo'llanishi bayt mazmunini kuchaytirgan. Yorning *so'zi* *yolg'on* bo'lsa-da, shirin, chunki u vaslga va'da bergen, oshiq *yolg'onligini* bilsa-da, bundan xursand. Yorning *yolg'oniga* o'zining chin *so'zini*: *sog'inganini* qarama-qarshi qo'yadi. *Chin va yolg'on* antonimligi orqali bu yaqqol seziladi.

Alisher Navoiy *shirin* *so'zi* ishtirokida ko'plab birikmalar yaratadi. Masalan, quyidagi baytda yorga nisbatan *shirin takallum* birikmasini qo'llaydi:

*Masiho nuktasi gar jon berur erdi, vale bilgil*

*Ki, jon olmoqqa ermas erdi ul **shirin takallumdek**.* [6, V, 242]

Oldingi baytda yorga nisbatan *nuktadon* birligi ishlatilgandi. *Masih* va *jallodga* o'xshatish orqali yor *so'zi*, nutqining qudrati ko'rsatib berilgandi. Bu baytda esa antonim iboralar (*jon bermoq, jon olmoq*) yordamida ayni ma'no ifodalangan. Yor *nukta* – nozik ma'noli *so'zlari* bilan jon beradi, biroq ayni paytda ko'proq jon oladi, deydi oshiq. Baytni “*Masih nuktasi – nozik so'zlari jon berardi, lekin bilginki, u shirin so'z yorning so'zlaridek jon ololmaydi, ya'ni yor Iso Masihdanda ustun*” deb sharhlash ham mumkin. Yor *so'zlaganda* oshiqlar jonlarini uning poyiga nisor etishadi, ya'ni jon berishadi.

*Shirin takallum* aniqlovchi + aniqlanmish shaklidagi birikma bo'lib, sinekdoxa orqali yor ma'nosini anglatgan. Birikma tarkibidagi arabcha *takallum* *so'zi* “*gaplashish*” ma'nosini anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydi, tarixan “*takallum aylamoq*” qo'shma fe'li tarkibida qatnashgan. [32, 409]

Nafasi bilan o'likka jon bag'ishlaydigan *Masih* obrazi quyidagi baytda ham keltiriladi va boshqa o'rnlardagi kabi talmeh san'atini yuzaga keltirib, baytni sayqallaydi:

*Ignasi birla Masih og`zin tikib, urmas nafas,*

*Jon berurga ochsa ul sho`xi shakarguftor og`iz.* [6, VI, 156]

Yor so`zga shu qadar ustaki, u jon berish uchun og`iz juftlagani hamon, hali so`z boshlamay turib, Masih igna bilan og`zini tikadi, hatto nafas olishdan ham to`xtaydi. Shoir mubolag`a yordamida yaratgan bu qiyoslash yorning qay darajada iqtidor sohibi ekanligini ko`rsatadi. Avvalgi baytlarda yor Iso Masihga tenglashtirilgan bo`lsa, bu baytda undan ham ustunligi ta`kidlanadi. Ma'shuqa *sho`xi shakarguftor* deb ataladi. Bu birikma ham izofali birikma bo`lib, ikki fors-tojikcha sifatning qo`shiluvidan hosil bo`lgan. *Shakarguftor* ot + ot shaklidagi sifat bo`lib, uning tarkibidagi “so`z”, “nutq” ma’nolarini anglatuvchi *guftor* leksemasi hozirgi o`zbek adabiy tilida yakka holda qo`llanmaydi.

Alisher Navoiy yorni o`z g`azallarida *shohi suxandon* deb ham ataydi. Ma’shuqa oshiq uchun qalb saroyining shohi, ayni paytda suxandon – “so`zga chechan”, “notiq”:

*Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo*

*Bulbuli yo`q erkanin shohi suxandonimg`a ayt.* [6, VI, 64]

Fors-tojik tilida tarixan qo`shma so`z bo`lgan bu leksema soddalashuvga uchrab, bugungi kunda sodda yasama so`z hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi o`zbek adabiy tilida “notiq” semasini yo`qotib, “televidenie jurnalisti” ma’nosida faol qo`llanmoqda. Ko`rib o’tganimizdek, davrlar o’tishi bilan leksemaning shakl (nomema) va mazmun (semema) tomoni ma’lum o`zgarishlarga uchrashi mumkin.

Alisher Navoiy ijodi – bamisol bir ummon, undan yoshi-yu millatidan qat’i nazar barcha birdek bahra olishi mumkin, chunki bu dengizda umuminsoniy qadriyatlar: muhabbat, mehr, hurmat, odob-axloq kabi injular yashirin. “*Yuksak badiiyati, teran falsafasi, keng qamrovi, umuminsoniy masalalar o`zining hassos ifodasini topgani jihatidan Alisher Navoiy asarlari jahon adabiyotining eng barkamol namunalari bilan bo`ylasha oladi*”. [30, 5]

Ayniqsa, shoir ijodida g`azallar alohida o`rin tutadi. Alisher Navoiy g`azallari – go`zallik bog`ining so`lmas chechaklaridir. Ularning har biri o`ziga

xos tarovat, xush bo'y nafosatga ega. Har satrda rangin tuyg'ular, o'zgacha dard bo'y berib turadi. Lirik qahramonning qalb kechinmalari, yurak tug'yonlari o'quvchiga ham "yuqadi", o'yga toldirib, hayajonga soladi. Bu g'azaliyotning butun qiymatini anglash mushkul, xuddi quchoqqa sig'maydigan daraxtdek... U shunday xazinaki, barcha o'z imkoniyati, bilimi doirasida bu boylikdan foydalanadi. Navoiyning g'azallarini qayta-qayta o'qiganingiz sari yangi-yangi ma'no qirralarini kashf etib boraverasiz. Kutilmagan va jozibador tashbehtar, go'zal poetik tasvirlar, ajabtovur mubolag`alar ko`ngillarda hayrat uyg`otib, lablarda tabassum jilvalanishiga sabab bo`ladi. Ayniqsa, ishqiy satrlar g`oyat go'zal tasvirlangan. Yorni tasvirlashda ishlatalgan leksema va birikmalar bir qarashda an'anaviydek tuyulsa-da, biroq ularning har birida novatorlik ko`zga tashlanadi. Yorning go'zalligi, mehri, jafosi, istig`nosi, nozi – barcha-barcha xislatlari birgina so`zda o'z ifodasini topgan. Ular tilining boyligi va Navoiyning buyuk shoirlilik iste'dodi mahsulidir. Ularni o'rghanish, tahlil qilish nafaqat shoir ijodini o'rghanishda, balki ona tilimizning beqiyos imkoniyat va boyligini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy asarlarini tilini o'rghanish har bir tilshunosning vazifasidir. Zero, "*Alisher Navoiy asarlarining tili – o'lmas g'oyalar tasvirlangan til. Bularning barhayotligi o'zbek tili umri boqiyligining asoslari dandir. Shuning uchun Navoiy doimo zamонавиј san'atkor, til kelajagi va istiqbolining posboni siyemosida tirik yashayveradi.* [51, 22]

## **Bob bo`yicha xulosalar**

1. Har qanday tilning leksik sistemasi ma'lum ma'no umumiyligi asosida birlashgan bir qancha paradigmalarning o`zaro munosabatidan tashkil topadi. Ana shunday ma'no umumiyligi asosida xotiramizda birlashgan lisoniy birliklar paradigmasi lingvistik maydon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ma'lum ma'no umumiyligi asosida birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig`indisi lingvistik maydon sifatida belgilanadi.

2. Yor ma'nosini ifodalovchi birliklar yor arxisemasi orqali bir semantik maydonga birlashadi. O`zbek poetik leksikasida bu maydon muhim o`rin tutadi.

3. Yor semali birliklar orqali tilning atash (nomlash) va ekspressiv-emotsional vazifalari yuzaga chiqadi. Yor semali birliklar yorni turli sifat va xislatlari bilan atash asosida she'riy matnga obrazlilik, badiiylik, ta'sirchanlik, musiqiylik va jozibadorlik baxsh etadi.

4. Yor semali birliklarning aksariyati gender stereotip darajasida. Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir.

5. Ma'shuqaning oshiqqa bo`lgan munosabati uning xarakterini belgilashga asos bo`lib xizmat qiladi. Yorning oshiqqa bo`lgan munosabatini yaxshi (ijobiy) va yomon (salbiy) deya farqlash mumkin. Mana shu xususiyatga ko`ra yorning xarakterini bildiruvchi birliklarni shartli ravishda ijobiy va salbiy ottenkali birliklarga ajratish mumkin.

6. Yor semali birliklarga xos yuqoridaagi talqin va tahlillar o`zbek tilining lug`aviy, uslubiy jihatdan boyligining, imkoniyatlari cheksizligining yana bir dalilidir.

**II BOB. O`ZBEK MUMTOZ SHE`RIYATI LEKSIKASIGA XOS**  
**YORNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK**  
**TAHLILI VA TAVSIFI**

**2.1. Yorni ifodalovchi birliklarning nominatsion-motivatsion xususiyatlari**

Nominatsiya lotincha nomination so`zidan olingan bo`lib, “nomlash, nom qo`yish, atash” ma`nolarini bildiradi. Tilshunoslikda nominatsiya atamasi nomlash xususiyatiga ega bo`lgan, ya`ni nolisoniy borliq unsurlariga nom berish va ularni ajratib ko`rsatish, ular haqida tegishli tushunchalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan til birliklari – so`zlar, so`z birikmalari, frazeologizmlar va gaplarni hosil qilish jarayonini anglatadi. Nominatsiyada uch jihat farqlanadi: nomlanuvchi obyekt, nomlovchi subyekt, tanlab olinadigan til unsurlari. Alovida tushuncha, predmet, belgi (*go`zallik, kitob, aytmoq, yashil*); muayyan belgilari bo`lgan predmet (*yashil daraxt*) yoki butun bir voqeа-hodisa (*Bahor! Qushlar uchdi*) kabilar nominatsiyaning obyekti bo`lishi mumkin. Shu jihatdan nominatsiya lug`aviy va propozitiv (so`z birikmasi va gap shaklidagi) nominatsiyaga bo`linadi. Nominatsiya jarayonida nomlash uchun asos sifatida tanlab olinadigan belgi(lar), ya`ni motivlar nomning ichki shaklini tashkil etadi. Demak, ayni bir obyekt o`zining turli belgilari asosida turlicha nomlanishi mumkin. Nomning tashqi shakli nomlash jarayonida tanlab olinadigan leksik-grammatik vositalar bilan belgilanadi. Shu sababli ichki shakl jihatidan bir xil bo`lgan nomlar o`zlarining tashqi shakli bilan farqlanadilar: *yor – mahbuba – ma’shuqa* kabi.

Nominatsiya jarayonini vazifa va kelib chiqish jihatidan tekshirish uni avvaldan mavjud bo`lgan (birlamchi) nominatsiya va yasama (ikkilamchi) nominatsiya deb ikkiga ajratishga asos beradi. Birlamchi nominatsiya natijalari muayyan til vakillari tomonidan azaliy, dastlabki nom tarzida idrok qilinadi. Ikkilamchi nominatsiya natijalari esa morfologik tarkibi yoki ma`nosiga ko`ra yasama nom sifatida idrok qilinadi.

Yor semali birliklar ham nominatsiya jarayonini o`zida aks ettiradi. Sevikli inson arxisemasi bilan birlashuvchi ushbu semantik maydonning ayrim birliklari birlamchi nominatsiya mahsuli bo`lsa, ayrimlari ikkilamchi nominatsiya natijasidir. Shundan kelib chiqqan holda bu maydonni dastlab quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

I. Birlamchi nominatsiya birliklari. Ularning denotativ ma'nosida sevikli inson semasi mavjud, inson ongida shu semasi bilan bir paradigmaga birlashuvchi birliklardir: *yor, sevar yori, mahbub(a), ma'shuq(a), sevgili, do'st, rafiq, munis, anis, oshno, habib* kabilar.

II. Ikkilamchi nominatsiya birliklari. Ularning denotati boshqa, konnotativ ma'nesi orqaligina yorni ifodalaydi. Yor semali birliklar maydonida ularning ko`لامи keng. Bunday birliklar turlicha motivatsiyaga egadir. Motivatsiya asosiga ko`ra ularni quyidagicha semantik guruhash mumkin:

1. Shaxs ma'nosiga ega nomlar. Ular ham o`z ichida guruhlanadi:
  - a) umumlashgan shaxs nomlari: *kishi, birov* kabi;
  - b) ijtimoiy mavqeni ifodalovchi nomlar: *shoh (shah), sulton, sohibqiron, chobuksuvor, mug`bacha, lo`li* kabi. Bu birliklar yorning jamiyatdagi emas, ishqdagagi o`rnini ifodalaydi, oshiq esa o`zini gadoga tenglashtiradi.
  - d) diniy-afsonaviy nomlar: *hur, malak, g`ilmon, pari, parizod, fusungar, but, sanam, kofir* kabi;

Yor o`z go`zalligi bilan oshiq qalbini asir etadi, o`ziga shaydo aylaydi. Oshiq malohat sohibasining husnini ta'riflash uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi, mahbubasini dunyodagi eng go`zal kishilarga, narsalarga mengzaydi. Shunda ham o`z e'tiroflaridan ko`ngli to`lmagan oshiq yorini afsonaviy go`zallar bo`lgan *pari, hur, malak* kabi mistik obrazlarga qiyoslaydi. Ular go`zal ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilsa-da, har birining o`z ishlatilish o`rni, o`ziga xos ma'no ottenkalari mavjud.

*Pari* forscha so`z bo`lib, “*go`zal ayol*”, “*yaxshilik qiluvchi ruh*” ma'nolarini anglatadi. Pari – Sharq xalqlari xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go`zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-u jinsdan

saqlaydigan afsonaviy obraz, go`zallik ramzi. [42, III, 222] Ko`chma ma`noda esa “*juda go`zal*”, “*xushro`y ayol*”, “*nozanin*” ma`nolarini bildiradi. Shu bilan birga parilar afsun kuchiga ega deb tasavvur qilinadi, yor ma`nosida qo`llanganda ham ayni shu semasini saqlab qoladi.

*Hur* arabcha so`z bo`lib, lug`aviy ma`nosi “*shahlo ko`z*”dir. Hurlar – Islom an'anasi va Qur'onga ko`ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma`naviy kamchiliklardan xoli bo`lgan nihoyatda go`zal qizlar. Ko`chma ma`noda “*juda chiroyli*”, “*go`zal*”, “*nozanin*”, shuningdek, “*sharm-hayoli*”, “*pok*” ma`nolarini anglatadi. *Hur* so`zi yorning go`zalligi bilan bir qatorda uning pok va ma`suma ekanligini ham bildiradi. Uning qo`llanish doirasi *pariga* nisbatan torroq hisoblanadi:

*Malak* ham arabcha so`z bo`lib, lug`aviy ma`nosi “*farishta*”, ko`chma ma`noda “*go`zal ayol*”, “*nozanin*” semalariga ega. *Malak* leksemasi ko`proq yorning botiniy go`zalligini, nazokatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu leksemaning qo`llanish doirasi yuqoridagilardan ko`ra torroq bo`lib, bu uning diniy tushunchalar bilan bog`liqligidir.

*Pari, malak, hur* leksemalari asosida qator *yor* semali birliklar hosil bo`lgan. Masalan, “*o`xshash*” ma`nosini bildiruvchi –*vash* qo`shimchasi yordamida yasalgan *parivash*, *malakovash*, *hurvash* sifatlari “*pariga o`xshash*”, “*farishtadek muloyim*”, “*suluv*” ma`nolarini anglatadi.

*Ul parivashkim, bo`lubmen zoru sargardon anga,*

*Ishqidin olam menga hayronu, men hayron anga.* [6, III, 31]

Fors-tojikcha *zodidan* – *tug`ilmoq* fe`lining o`tgan zamon shakli bo`lgan *zod pari* va *hur* leksemalari bilan birikib, yangi so`z yasaydi, biroq *malak* so`zi bilan bog`lana olmaydi. Folklor namunalarida pari va devlardan *tug`ilgan* parizodlar ko`p bor tilga olinadi. Bu so`z “*paridan tug`ilgan*” ma`nosini anglatadi. Ko`chma ma`noda “*go`zal*” ma`nosini beradi. Bu so`z hozirgi kunda *Parizod, Parizoda* shaklida xotin-qizlar ismi sifatida ishlatiladi

*Ne ayb, Navoiy kibi devonalig` etsa,*

*Har odamiykim, bo`lsa aning yori pariyzod.* [6, III, 114]

“Hurdan tug`ilgan”, “go`zal”, “go`zallar nasli” ma’nosida *hurzod*, *hurizod*, *hurizoda* leksemalari qo’llaniladi.

*Necha javrin tortayin ul sarvi hurizodning,*

*Yo`qmudur poyoni oyo zulm ila bedodning? [6, III, 284]*

Lug`aviy ma’nosi “pari qomatli”, “sohibjamol” ma’nolarini bildiruvchi forsiy *paripaykar* so`zi ham *pariga o`xhash*, *paridek g`oyat go`zal* semalari bilan yor ma’nosini anglatadi.

*Qay paripaykarg`a, – dersen, – telba bo`ldung bu sifat,*

*Ey paripaykar, ne qilsang, qil manga, bo`ldum sanga. [6, III, 37]*

*Paykar* so`zi *hur* leksemasi bilan ham birika oladi, biroq *malak* bilan birikib, yangi so`z hosil qila olmaydi, chunki rivoyatlarga ko`ra, farishtalar bir o`lchamli, nurdan yaratilgan hilqat sifatida tasavvur qilinadi.

*Ne nav’jinsi bashar suhbatini xush ko`rgay,*

*Biravga bo`lsa parizodi hurpaykar xush. [6, V, 188]*

Shuningdek, *yuz* ma’nosini anglatuvchi *rux*, *ruxsor*, *ro`y*, *chehra* kabi so`zlar faqat *pari* leksemasi bilangina birika oladi: *parirux*, *pariruxsor*, *pariro`*, *parichehr(a)* kabi.

*Parichehru Parizodu Parivash,*

*Paripaykar zihi o`n ismi dilkash. [6, VIII, 299]*

*Pari*, *malak*, *hur* so`zlari izofali yoki aniqlovchili birikmalar tarkibida birgalikda qatnashishi mumkin. Ushbu holatlarda asosan *pari* jismoniy go`zallikni, *malak* ma’naviy latofatni, *hur* esa zohiriyl va botiniy poklikni ifodalash uchun xizmat qiladi.

e) yoshni ifodalovchi nomlar: *kichik yoshlig`*, *tiflavash*, *navjuvon* kabi;

f) antroponimlar: *Bilqisi zamон*, *Layli*, *laylivash*, *Shirin*, *Masih* kabi.

Antroponimlar she’riy misralarda nafaqat yorni ifodalaydi, balki ma’lum poetik vazifa ham bajaradi. Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan qaraganda allyuziya hodisasi ro`yobga chiqadi. Allyuziya (*lot. Allusio – ishora, hazil*) – muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Lingvokulturologiyada allyuziya ikki madaniy-

semiotik maydonning o`zaro munosabati nuqtai nazaridan o`rganiladi. Allyuziya uslubiy figurasining matnda ro`yobga chiqishida allyuziv nomlar yordamga keladi.

Allyuziv nom – allyuziv matnda allyuziya ko`rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita. Ta’rifdan ko`rinadiki, allyuziv nomlar ma’lum bir axborotga ishora qiluvchi atoqli otlardir. Antroponimlar, ya’ni shaxsni bildiruvchi nomlar ham allyuziv matnning paydo bo`lishida ishtirok etadi va allyuziv antroponimga aylanadi. Allyuziv antroponim – allyuziv matnda allyuziya ko`rsatkichi vazifasida keluvchi antroponim, allyuziv nomning bir turi.

Asar qahramonlarining nomlari she’riy parchaga ko`tarinkilik bag`ishlaydi hamda chin muhabbat, sadoqat timsolini ifodalaydi. Mumtoz o`zbek she’riyatida ham allyuziv antroponimlar keng qo`llanadi va asosan yorga ishora sifatida ishlatiladi. Quyidagi baytda Alisher Navoiy yorni Sulaymon payg`ambarning sevgilisi Bilqisga tenglashtirган:

*Gar Navoiyg`a Sulaymon mulkicha bordur, ne tong,*

*Buki **Bilqisi** zamон nazmini tahsin aylamish.* [6, III, 211]

Adabiyotshunoslik ilmida bu kabi holatlarga talmeh sifatida qaraladi. Talmeh (*ar. lamha – chaqmoq chaqilishi*) – tarixiy shaxslar, asar qahramonlari, joy nomlarini keltirish orqali o`sha voqeaga, holatga ishora qiluvchi badiiy san’at. Mumtoz adabiyotimizda bu kabi holatlarni ko`plab kuzatish mumkin.

*Ko`hkandurmanki, bir Shirin gapurmaydur hanuz,*

*Yorni badxo `ligi ko`nglumga urmaydur hanuz.* [38, 37]

Sharq adabiyotidagi mashhur dostonlardan biri “Farhod va Shirin”ning qahramonlari yuqoridagi baytda yor va oshiq ma’nolarini ifodalash uchun qo’llanilgan. Ko`hkan – tog` qazuvchi, Farhodning laqabi. Baytda Farhod emas, Ko`hkan antroponimining qo’llanishi zamirida ham chuqr ma’no bor. Tog` qazish g`oyat mushkul ish, biroq Farhod uchun emas, chunki u o`z fazilatlari, sof ishqil bilan boshqa oddiy insonlardan ustun turadi. Shoira Uvaysiy o`zini

ishqdagi qiyinchiligi hamda muhabbatining buyukligi jihatidan Farhodga tenglashtiradi. Yorining go`zalligini esa Shiringa qiyoslaydi. Quyidagi baytda esa yana bir mashhur doston “Layli va Majnun” qahramonlari qalamga olingan:

*Fig`oni ayb, ohu ta`na bir bechora mahzunmen,*

*Ki bir Layli parivash shohga ovora Majnunmen.* [38, 76]

Bu misralarda yor Layliga, oshiq Majnunga mengzalgan. Yor va oshiqni ifodalovchi ushbu antroponimlar nafaqat oshiqning ishqini, balki ma'shuqaning muhabbatini ham ifodalaydi. Allyuziv antroponimlar ushbu misralarda to`laqonli asarga ishora qiladi.

Adabiyotimizda yorni ifodalash uchun nafaqat asar qahramonlari, balki tarixiy yoki afsonaviy shaxslarning nomlaridan ham foydalaniladi. Quyidagi baytda Iso payg`ambarning laqabi – Masih yorni ifodalash uchun qo'llanilgan:

*Lab dema og`zim labida yotquisi ikki o`lik,*

*Ey **Masihim**, la`li shakkar-boling aylar orzu.* [38, 80]

Rivoyatlarga ko`ra, Iso payg`ambar nafasi bilan o`likni tiriltirish qobiliyatiga ega bo`lgan. Baytda ayni shu holatga ishora qilingan.

2. Tashqi ko`rinishni ifodalovchi birliklar. Ular ham o`z ichida guruhlanadi:

a) umumiyl go`zallikni ifodalovchi birliklar: *dilbar, zebo, nozanin, nigor, nodira, jonon, jonona* kabi;

b) oshiqning munosabatiga ko`ra go`zallikni ifoda etuvchi birliklar: *dildor, diloro, dilrabo, dilnavoz, dilxoh, oromijon, jon, oyim, mavzun, dilorom* kabi;

c) tana a'zolari orqali go`zallikni ifodalovchi birliklar: *gulro`, sarvqad, qoraqosh* kabi. Ular haqida yuqorida atroflicha to`xtalib o`tdik. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, *gul, oy, quyosh* kabi leksemalar yorning yuzini va u orqali o`zini ifodalaydi.

3. Yorning xislatlarini ifodalovchi birliklar. Ular ham o`z navbatida ikki guruhga bo`linadi:

a) ijobiy xislatlarni ifodalovchi birliklar: *vafodor*, *so`zi shirin*, *sho`xi shakarxand* kabi;

b) salbiy xislatlarni ifodalovchi birliklar: *talxuftor*, *ahdshikan*, *bevafo*, *badmehr* kabi. Bu birliklar haqida ham avvalgi bo`limda atroficha fikr yuritildi.

4. Qimmatbaholik semasi bilan birlashgan birliklar: *gavhar*, *javhar*, *dur*, *durri garomiy*, *ganj*, *azizim* kabi.

Ko`rinadiki, yor semali birliklarning semantik strukturasi juda keng. Shu o`rinda aytib o`tish lozimki, birikma shaklidagi yor semali birliklar tarkibida yuqoridagi guruuhlar o`zaro aralash holda kelishi mumkin. Bu hol shoirning yor portretini mukammal chizishga urinishi natijasidir.

Yor semali birliklar morfologik jihatdan asosan ot va sifat turkumlariga oiddir. Ular yor semasiga nom ko`chishi orqali ham ega bo`lgan. Bunday birliklarga keyingi bobda batatsil to`xtalamiz.

## **2.2. Nom ko`chishi orqali yorni ifodalovchi birliklar**

Yor semali birliklar nom ko`chishi orqali ham hosil bo`ladi. Ularning aksarida metafora va sinekdoxa usullari orqali nom ko`chgan. Metafora (*yun. metaphora – ko`chirish*) – bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o`xshashligini e’tiborga olib ko`chirish. Metafora so’zning yangi ma’nolari hosil bo’lishida qatnashadigan omillardan biridir. [52, 63]

Oshiq yorning fazilatlarini, o`ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq ko`rsatish uchun turli o`xshatishlardan foydalanadi. Bizning fikrimizcha, bunday leksemalarni quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratish mumkin:

**1. Tabiat bilan bog`liq tushunchalar asosida shakllangan leksemalar: *gul, sarv, bahor, nilufar* kabi.**

**2. Samoviy jismlar bilan bog`liq leksemalar: *oy, quyosh, xurshid, moh, qamar, mash’al, sham* kabi.**

**3. Diniy-afsonaviy tushunchalar bilan bog`liq leksemalar: *pari, malak, hur, but, sanam* kabi.**

**4. Shaxs tushunchasi va atoqli kishi nomlari bilan bog`liq leksemalar: *mirzo, begin, turk, o’zbag, chobuk, Laylo, Bilqisi zamon* kabi.**

**5. Mavhum tushunchalar bilan bog`liq leksemalar: *balo, iqbol, umr* kabi.**

Bu guruhlar o`z ichida yana ma’noviy guruhchalarga bo`linadi. Masalan, tabiat bilan bog`liq leksemalarni o`z ichida quyidagi ichki guruhlarga ajratish mumkin:

**1. O`simlik nomlari: *gul, nilufar, nargiz, sarv, shamshod* kabi.**

**2. Hayvon nomlari: *ohu, g’azol, jilvagar tovus* kabi.**

**3. Tabiiy hodisa nomlari: *bahor, bahori nozparvard, lam’a* kabi.**

**4. Qimmatbaho tosh nomlari: *dur, gavhar(javhar)* kabi.**

Inson – tabiat farzandi. U atrofidagi go`zalliklardan bahra olgan holda ulg`ayadi. Muhabbat hissini ham aynan tabiat quchog`ida tuyadi. Oshiq atrofdagi barcha narsalarda yorning jilvasini idrok etadi. Yorni tabiat bag`ridagi

qaysidir gul yoki daraxtga qiyoslaganda ham, oshiq o`zini undan ayro deb bilmaydi, aksincha o`ziga munosib qiyoslash topadi. Masalan, quyidagi baytda oshiq o`zini gul ishqida ovvora-yu parvona bo`lgan bulbulga qiyos qiladi. Gul eslanganda doimo bulbul ham yodga olinadi, go`yo bu so`zlarning qofiyadoshligi ham ularning bir-biri uchun yaratilganiga ishoradek:

*Bu Navoiy bandani, ey sarvi ozod, asrakim,*

*Buyla bir **bulbul** kerak andek **guli ra’no** uchun.* [6, III, 375]

Nega oshiq o`zini aynan bulbulga mengzamoqda, kapalak yoki asalariga emas? Bu so`zni qo`llashda ham ma'lum mantiq, g`oyaviy maqsad bor. Oshiq guldan gulga o`tib yuruvchi, ishqda sobit bo`lman kapalak yoki faqat qorni-yu o`z manfaati yo`lida oshiqlikni talab qiladigan asalari emas. U yorning chin oshig`i, ayni paytda xushovoz oshiq, ya`ni ijodkor. Bu misralarda Navoiyning shoirona tafakkuri-yu taxayyuliga tan bermay iloj yo`q.

Tarixiy-etimologik manbasiga ko`ra yuqoridagi ikki so`z ham fors-tojikchadir. *Bulbul* “chumchuqsimon sayroqi qush” ma’nosini anglatadi. Tovush tuzilishini e’tiborga olib, bu ot *bul-bul* – tovushga taqlid takroridan o’sib chiqqan deyish mumkin. [33, 51]

O’zbek tilida bu so`zning sinonimi yo`q. *Gul* so`zining turkiy tildagi sinonimi esa *chechak*dir. Bu ikki so`z ham o`xshatish asosida ma’no ko`chishiga uchragan va tashbeh san’atiga asos bo`lgan. Yorning go`zalligi, nozikligi, tarovati-yu xush bo`yi bu o`xshatish uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Yorga nisbatan ishlatilgan *guli ra’no* izofali birikmasi *ra’no guli* ma’nosini anglatadi.

Yuqoridagi baytda yorga nisbatan yana *sarvi ozod* izofali birikmasi ham qo’llanilgan. *Sarv* so`zi asli fors-tojikcha bo`lib, “*konus shaklli, ignabargli daraxt; qaddi raso, xushqomat*” ma’nolarini anglatadi. *Ozod* sifati ham fors-tojikcha bo`lib, “*erkin*” ma’nosini bildiradi. *Sarvi ozod* birikmasi tarkibida esa *tik* ma’nosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Yorning xushqomatligi bu o`xshatish uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Bu misrada Navoiy o`zini *banda* deb ataydi. *Sarvi ozod* birikmasi tarkibidagi *ozod* sifati *banda* so`zi bilan antonimlik hosil qiladi va tazod san’ati hosil bo`ladi. Bir so`zni bir o`rinda bir

vaqtning o`zida ikki ma`noda qo`llash – yuksak badiiy mahorat. Bu Navoiyning yuksak tafakkuri mahsulidir.

Baytda yorga nisbatan ishlatilgan izofali birikmalar (*sarvi ozod* va *guli ra'no*)ning biri gul, ikkinchisi esa daraxt nomi ekanligi ma'lum. Ayni paytda shuni ta'kidlash joizki, yorga nisbatan o`xshatish ma'nosidagi leksemalar izofali birikma bo`lib kelganida guruuhlar o`rtasida munosabat yuzaga keladi. Birikmadagi birinchi leksema asosiy ma'noni anglatadi, ikkinchisi esa uni izohlaydi, to`ldiradi, shuning uchun ham yuqoridagi kabi guruhlarga ajratishda birinchi leksema asos qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Quyidagi baytga e'tibor qaratsak:

*Tong emastur, bo`lsa har sarvi pariruxsor sho`x,*

*Lek yerur sarvi pariro`yum* mening bisyor sho`x. [6, III, 106]

*Pariruxsor, pariro`y* so`zlari sarvning, sarv qomatli yorning chehrasi go`zalligini aniqlashtirib kelmoqda. Yorning naqadar go`zal ekanligi ko`z oldimizda namoyon bo`lishi uchun shoir bu so`zlarni izofali birikma shaklida ketma-ket tizadi. Tubandagi baytda esa o`zbek tilining xususiyatlariga mos keladigan aniqlovchi-aniqlanmish munosabatli birikma hosil qilingan va u yorga ishora sifatida ishlatilgan:

*Ul malaksiymo pariykim, xalq aning hayronidur,*

*Jonlar oshubi vale oshufta jonim jonidur.* [6, III, 164]

Bu birikmada asosiy ma`no *pari* so`zi orqali ifodalangan, yorning ma'suma-yu beg`uborligi esa *malaksiymo* so`zidan anglashiladi.

Yuqorida ko`rib o`tganimizdek, Navoiy yorni gulga mengzab, an'anaviy o`xshatishdan unumli foydalanadi. Bundan tashqari, shoir gul bilan bog`liq tushunchalar yordamida nafaqat yor, balki oshiqning holati, kechinmalarini ham ifodalaydi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi baytga e'tibor qaratsak:

*Bo`ldi bir gul hajridin jismim ochilg`on gulgune,*

*Juzvi-juzvi baski, tishlab-tishlab olmishmen uzub.* [6, IV, 39]

Oshiq yor hajrida shu qadar azob chekkanki, o`z bag`rini o`z tishlari bilan pora-pora qilgan, natijada jismi ochilgan gulga o`xshab qolgan. Gulga oid

bo`lgan so`z orqali yorning bechoravor ahvoli ko`rsatib berilgan. Asosdosh *gul* va *gulbun* so`zlarini qo`llash orqali misra ishtiqoq san`ati bilan sayqallangan. Takror so`zlar vositasida ma`no yanada kuchaytirilgan.

Quyidagi baytda esa oshiq yorni ko`rolmagani tufayli azob tortmoqda. Uning ahvoli xuddi g`unchaning xomushligiga o`xshaydi:

*Chamanda sarvinozim jilva qilmoq aylamas ohang,*

*Jahon bo`stonidin, billah, bo`lubmen g`unchadek diltang.* [6, IV, 243]

Yorga nisbatan bu baytda *sarvinoz* birligi ishlatilgan. U izofali birikma asosida paydo bo`lgan qo`shma so`z bo`lib, fors-tojik tilidan o`zlashgan hamda o`zbek tilida “*nozli go`zal, noz-karashmali sarv, dilbar*” ma`nolarini anglatadi. Bu so`z atoqli ot sifatida ham ishlatiladi. Oshiq esa g`unchaga o`xhatilmoqda. Bunda o`xhatish vositasi -*dek* qo`shimchasidan foydalanilgan. Odatda yorning labi yoki o`zi g`unchaga mengzaladi. Alisher Navoiy esa o`ziga xos topilma qiladi – oshiqning o`zini g`unchaga o`xhatadi. Gul ochilgan, ya`ni kulib turgan bo`ladi, g`uncha esa xomush. Ayni shu sabab o`xhatish uchun asos bo`lib xizmat qilgan.

Boshqa o`rinda Navoiy avvallari yorga nisbatan qo`llangan o`xhatishlarni oshiqqa nisbatan mahorat bilan qo`llaydi:

*Sen sumanbarsenu, men lola kibi qon arokim,*

*Doyai dahr beribtur manga qonu, sanga sut.* [6, IV, 54]

Baytda ikki xil gul nomi keltirilgan: *suman*, ya`ni *jasmin* hamda *lola*. Suman oq-sariq rangli gul bo`lib, u go`zalligi, rangi va hidi bilan yorni yodga soladi. Bu so`z asli arabcha bo`lib, bu o`rinda tojikcha -*bar* bilan birga yorni ifodalab kelgan. Lola ham odatda yorga ishora sifatida ishlatilgan. U asli fors-tojik tilidan o`zlashgan. Navoiy g`azallarida bu so`z *rux* bilan birikib, yorga nisbatan ko`p o`rinda qo`llangan:

*Dog`i pinhondur Navoiy ko`nglida, ey lolarux,*

*Nuqtai xolingki, ko`zdin doimo ma'dum erur.* [6, III, 149]

Avvalgi baytda esa lolaning rangi – qizil, qon rangi oshiqning bechorahol ahvolini ifodalash uchun xizmat qilgan. Oshiq azoblardan qonli ko`zyoshlar to`kadi, bu dunyo unga qonli jafo bergan bo`lsa, u nima ham qilsin?! Jasminning rangi esa go`yo sutdek: yor sutdek pok-u shirin, ko`ngilga yoquvchi.

**Sinekdoxa.** Shoirlar o`z ijodida yorni ifodalash uchun nafaqat metaforalardan, balki sinekdoxadan ham unumli foydalanadi. Ma'lumki, sinekdoxa badiiy tasvir vositalaridan biridir. Sinekdoxa yunoncha so`zdan olingan bo`lib, lug`aviy ma'nosи “*birgalikda anglash*”, “*nisbat berish*” demakdir. U ikki xil usulda bo`lishi mumkin:

1. Qism vositasida butunni anglatish.
2. Butun orqali qismni ifodalash.

Og`zaki nutqda sinekdoxa ko`p qo`llanadi. Badiiy adabiyotda u uslubiy-badiiy vosita vazifasini bajaradi. Bunda asosan yorning qaysidir tana a`zosi, yorning o`zini ifodalaydi. Alisher Navoiy ijodida *yuz, ko`z, qosh, kiprik, soch, lab, yanog`, qomat, qo`l* kabi tana a`zolari asosida hosil bo`lgan *yor* semali leksemalar salmoqli o`rin tutadi:

*Har o`qi ul qoshi yoning jonnikim, qurban qilur,*

*Rost bir o`qdurki, qurban ko`nglum ichra sanchilur.* [6, III, 157]

Yorning qoshi odatda yoyga o`xshatiladi, yo so`zi bu o`rinda ham arabiylar harfni, ham kamonni anglatadi, chunki yoning o`zi ham shakl jihatidan yoyga o`xshaydi. *Qoshi yo* birikmasidagi *egilganlik* ma'nosи bilan keyingi misradagi *rost* so`zi *tik* ma'nosida antonimlik hosil qilgan. Quyidagi baytda esa yorning ko`zi orqali ma'shuqaga murojaat qilingan:

*Hajr aro darding`a rahm qilmasa ul ko`z, ne tong,*

*Kimsa marazg`a iloj topmadi bemordin.* [6, III, 363]

Oshiq yorning bemehr, berahmligi sabablarini topishga harakat qilar ekan, hazin holda shunday xulosaga keladi: kasallikka bemordan shifo topishning iloji yo`q, chunki uning o`zi ham dardga mutbalo bo`lgan, shunday ekan, balki, yorning o`zi ham kimningdir ishqida yonayotgandir. Uni ham tushunish lozim,

chunki u ham inson, sevish-sevilishga haqli. Bu o'rinda oshiqning ishqini chin ekani yaqqol seziladi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida *ko'z* tarkibli birikmalar tuzadi va ularni *yor* ma'nosida baytlarga joylaydi. Masalan, *ko'zi fatton*, *ko'zi usruk*, *ko'zi qora*, *ko'zi qotil*, *ko'zi shahlo* kabilar. Ma'lumki, *ko'z* leksemasi umumturkiy qatlamga mansub, yuqorida *ko'zi qora* birikmasidan tashqari barcha holatlarda arabiylar bilan birikkan, *qora* so'zi esa umumturkiydir.

Shoirning iqtidorini ko`rsatuvchi yana bir dalilni keltirib o'tish mumkinki, bu birikmalarga izofali birikma sifatida ham, ega + kesim shaklidagi birikma deb ham qarash mumkin, ular faqat intonatsiya bilan farqlanishi mumkin, har ikki holda ham ma'no saqlanib qoladi:

*Ey Navoiy, gar desangkim fitna ko'rmay, solmag'il*

*Bir nazar har turfatul-ayn ul **ko'zi fatton** sari.* [6, III, 480]

Shuningdek, *ko'z* ishtirokida aniqlovchi + aniqlanmish tarzidagi birikmalar ham hosil qiladi. Masalan, *qaro ko'z*, *ayyor ko'z* kabi. Birinchisi yorning tashqi sifatini ko`rsatsa, ikkinchisi uning xarakteriga xos xislatni aks ettiradi:

*Ko'z uchidin va'dai vasl aylab imo, oldi jon,*

*Go'yijo bozi berib jon oldi ul **ayyor ko'z**.* [6, V, 156]

Imo bilan vaslga umid bergan yor oshiqqa jon bag'ishlaydiganday tuyuladi, biroq oshiq bunday iltifot evaziga jonini sadqa qiladi. Quyidagi bayt o'zining oxorli tashbehlari bilan e'tibor tortadi:

*Ey baliyat novaki, ul fitna ko'z din ayrilib,*

*Kim, havoyisen, kelib sen dog'i o'ltur yonima.* [6, IV, 412]

Oshiq yorni shu qadar yuqori o'ringa qo'yadiki, uning bittagina kiprik donasi ham yonida bo'lsa, shu unga kifoya. Baytni yana shunday tahlil qilish mumkinki, *baliyat novaki (jafo tig'i, ma'shuqa kiprigi)* – yorning o'zi, *fitna ko'z* esa atrofdagi fitna keltiruvchi kishilar. Shu mazmundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu so'z birikmasi sinekdoxa orqali ayni shu ma'noni

ifodalagan. Arabcha *baliyat*, fors-tojikcha *novak* so`zlari bugungi kunda o`zbek tilida iste'molda emas.

Mumtoz adabiyotda ko'zni nargizga o'xshatish an'anaga aylangan. Navoiy ham bu o'xshatishdan unumli va o'z o'rnida foydalanadi:

*Un chekarmen ishq aro, bir nargizi jodu ko'rub,  
Bog`lag'on itdekki, faryod aylagay, ohu ko'rub.* [5, 31]

Birinchi misrada ko'z nargizga o'xshatilgan hamda sinekdoxa san'ati orqali yorga nisbatan qo'llangan. Ko'rib o'tganimizdek, "metafora bilan sinekdoxaning birligi ifodaning go'zal va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi". [47, 279] Bu izofali birikma fors-tojik tilidan o'zlashgan. *Nargiz* o'simlik nomi sifatida turdosh ot, xotin-izlar ismi sifatida *Nargiz*, *Nargiza*, *Nargizabonu* shakllarida atoqli otlar safida uchraydi. Ikkinchi misrada oshiq o'zini itga, yorni ohuga o'xshatadi va o'z holatini ko'rsatib beruvchi chiroylar qiyoslash keltiradi.

Hazrat Navoiy sinonimlardan keng foydalanadi. Masalan, bиргина yuz ma'nosini ifodalash uchun umumturkiy *yuz* so'zidan tashqari *ruxsor*, *oraz*, *chehra*, *jamol* kabi o'zlashgan qatlamga mansub birliklarni qo'llaydi, ayni paytda ularni *yor* ma'nosida ishlata oladi.

*Ey Navoiy, ko'nglum ilgidin chekarmen yuz balo,  
Tuxmat aylarmenki, bor ul mohruxsor ilgidin.* [6, VI, 336]

Shoir bu baytda yorni *mohruxsor* deb ataydi. Fors-tojik tilidan o'zlashgan ushbu birlik o'zida ham o'xshatish, ham sinekdoxa san'atlarini birlashtirgani bilan ajralib turadi. Navoiy ko'p o'rnlarda bunday uyg'unlikni mohirona ifodalaydi. Masalan, quyidagi baytda *la'l* so'zi yorning labini hamda qism orqali yorning o'zini ham bildirgan:

*G`unchalar ochilsa, o'lganlar tirilsa, ne ajab,  
Aylay olmas kulgudin chun la'li ruhafzoni zabt.* [6, III, 232]

*La'l* arabcha so'z bo'lib, "qizil rangli qimmatbaho tosh" ma'nosini anglatadi. Rangi va qimmatbaholigi bu o'xshatish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Alisher Navoiy yor ma'nosini anglatish uchun yorning sochi ta'rifidan ham foydalanadi:

*Andoq ochti sunbulin gul uzra yelkim, bo`lmaay,*

*Bir ko`ngul olamda ul zulfi parishondin xalos.* [6, III, 225]

Birinchi misrada yorning sochi sunbulga, o`zi esa gulga tashbehi izmor vositasida qiyoslanmoqda. Shamol gul ustida sunbulni yozib yubordiki, atrofda bu go`zallikka oshiq bo`lmanan biron ko`ngil qolmadi, deydi shoir. *Zulfi parishon* birikmasi ham sinekdoxa orqali yorni ifodalab kelgan. Navoiy ijodida *zulf* tarkibli boshqa birikmalar ham qo`llanilgan:

*Jismi vaslin qildim ul zulfi sumansodin tamah,*

*Ul kishi yanglig `ki, qilg`ay siym savdodin tamah.* [6, III, 237]

Zulfi yosumandek xushbo`y bo`lgan yordan oshiq vasl tama qiladi, bu go`yo savdodan siym (kumush) talab qilgandek tuyuladi. Bundan tashqari, siymning jismga, savdoning zulfga nisbatan qo`llanganini ham aytib o`tish mumkin. Yor kumushdek oq, sochlari esa tim qora (*savdo so`zi qora* ma'nosini ham anglatadi). *Siym* so`zi mumtoz adabiyotimizda shu ma'noda faol qo`llangan, biroq quyidagi shaklni faqat Navoiy ijodida kuzatamiz:

*Qonima qo`l shimalu, tiyg`ni chekmaki, qilur*

*Qatl po`lod qilichdin burun ul siymbilak.* [6, III, 267]

Ma'shuqa oshiqni qatl etmoqchi bo`lib, yenglarini shimarsa, shuning o`zi uni o`ldiradi, chunki yorning bilagi ko`ringan hamon oshiqqa jonning keragi qolmaydi, jonning o`zi tanani tark etadi. Umumturkiy *bilak* so`zi hozirgi o`zbek adabiy tilida faol qo`llanadi, biroq fors-tojikcha *siym* so`zi arxaizm hisoblanadi. Quyidagi baytda yorning qad-qomati orqali yorning o`zi nazarda tutilgan:

*Quchushtum sarv bila tushta, go`yo*

*Bu yon ul qaddi xushraftor kelgay.* [6, III, 490]

Arabcha *qad* va fors-tojikcha *xushraftor*ning qo`shiluvidan hosil bo`lgan bu birikma ham sinekdoxa orqali yorni ifodalagan. Birikma yorning qomati kelishganligini ifodalash bilan birga chiroyli yurishini ham bildiradi. *Xush*

bugungi kunda affiksoid hisoblanadi, biroq baytdagi shakl hozirgi kunda eskirgan.

Sinekdoxa usulida hosil bo`lgan yor semali birliklar poetik mazmunni kuchaytirish, ta`sirchan, takrorlanmas uslubda ifodalashga xizmat qiladi.

## **2.3. Yorni ifodalovchi birliklarda shakl va ma’no munosabatlari**

Ma'lumki, mazmuniy maydonda so'zlar barcha ma'nolarning yig'indisi bilan bir butun sifatida ichki munosabat va aloqalarga kirmay, balki alohida ma'nolari bilan munosabatga kirishadi. Ma'noga so'zlarning differensial mazmuniy belgilari yoki tarkibiy qismlarining to'plami sifatida qarash mumkin. Yu. N. Karaulov har qanday ikki to'plam bir-biri bilan quyidagicha munosabatlarda bo'lishini ta'kidlaydi: nol oppozitsiya, privativ oppozitsiya, ekvipotent oppozitsiya, dizyunktiv oppozitsiya.

1. Nol oppozitsiya to'plamlar o'rtasidagi teng munosabat bo'lib, bunday to'plamlar elementlari, ya'ni taqqoslanayotgan so'zlar ma'nolarining asosiy qismlari bir xil bo'ladi, bunday oppozitsiya zidlanish munosabatida bo'lgan ikki birlik o'rtasidagi sinonimlik va sinonimik aloqalar bo'ladi. Ularning asosiy qismlari o'xshash, ular ma'no noziklari bilan farqlanadi.

2. Privativ oppozitsiya yoki qat'iy kirishish munosabatlari – bunday munosabatlarda tur va jins nomlari bo'ladi, ba'zan bu munosabatlarni giponimiya deb ham ataydilar. Bunda ikki holat kuzatilishi mumkin:

- ma'lum to'plamning nisbiyligi (xususiyligini), ya'ni to'plamning o'zidan yuqori bo'lgan to'plam tarkibiga kirishi ko'rsatiladi;
- ma'lum to'plam tarkibida ikkinchi to'plam (yoki uning birligi) muayyan nom sifatida ko'rindi.

3. Ekvipotent oppozitsiya – bunda ikki to'plam bir-biri bilan kesishadi, ularning kesishida ikkala to'plamning umumiyligi qismi hosil qilinadi.

4. Dizyunktiv oppozitsiya – bunda to'plamlarning umumiyligi elementlari mavjud bo'ladi. [18, 106-108]

Sinonimik munosabat xususida jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar bajarilgan va olib borilayotgan bo'lsa-da, ushbu hodisaning mohiyati aniq va to'liq aks ettiradigan, hamma e'tirof etadigan ta'rif mavjud emas. [50, 76] Ko'pincha, sinonimiyanı izohlashda ma'nodagi to'liq yoki qisman aynanlik,

biri o`rnida ikkinchisi qo`llana olish imkoniyatining mavjudligi kabilar hisobga olinadi.

Sinonimik munosabat ma`nodoslik munosabati deb ham yuritiladi. Sinonimiya munosabati tilda ko`p uchraydigan, universal hodisa bo`lishi bilan birga, u butun lug`at tarkibini qoplaydigan kategoriya emas. Ya`ni lug`at tarkibidagi barcha leksemalar o`z sinonimlariga ega bo`lmaydi. Sinonim leksemalarda ma`no aynanligi, umumiyligi bo`lishi bilan birga, semantik farqlilik ham mavjud bo`ladi. Albatta, sinonimlarda semantik umumiylilik semantik farqlilikdan ustun bo`ladi va sinonimiya ma`no umumiyligi asosida voqe bo`ladi. Semantik farqlilik absolyut sinonimlarda (leksik dubletlarda) kuzatilmaydi: *affiks-qo`shimcha*, *chapak-qarsak*. Bunday sinonimlar boshqa tillardan kirgan so`zlar hisobiga voqe bo`ladi. Yor semali birliklar orasida ham absolyut sinonimlar mavjuddir: *oy – moh – qamar*, *quyosh – xurshid – shams*, *shoh – sulton* kabi. Sinonimik qatordagi leksemalar bir qancha umumiyligini semalarga ega bo`lishi bilan birga, semantik jihatdan quyidagicha farqlanishlarga ega bo`ladi:

- konnotativ ma`nodagi farqlilik;
- denotativ ma`nodagi farqlilik;
- uslubiy farq.

Bir denotatni, ya`ni voqelikdagi aynan bir narsani nomlovchi leksemalar konnatativ ma`no nuqtayi nazaridan farqlanadilar. Mazkur holatda sinonimlar aynan bir hodisani nomlaydi, lekin ularda ushbu hodisaga bo`lgan munosabat farqli bo`ladi: *novcha*, *norg`ul*, *naynov*, *daroz*. Bunday sinonimik qatorlarda atash semalari aynan bo`ladi, ifoda semalari har xil bo`ladi. Demak, bu kabi sinonimik qatorlarda denotativ ma`no va denotativ ma`no asosida hosil bo`ladigan signifikativ ma`no ham umumiyligi, aynan bo`ladi. Farqlilik esa konnotativ ma`noda yuz beradi. Masalan, *yor*, *ma`sruqa*, *mahbub*, *munis*, *anis*, *ko`nglum*, *olg`an*, *nigor* kabilar bir denotatni ifoda etsalar-da, ayrim ma`no nozikliklari, qo`llanish o`rni bilan o`zaro farqlanadi. Yor semantik maydonida shunday sinonimik qatorlar mavjudki, ular denotativ ma`nosiga ko`ra farqlanadi.

Masalan, *ko'z, nargiz, ohu* so'zlari turli denotatni ifodalaydi, biroq badiiy nutqda ular bir ma'noda qo'llanadi, ya'ni *ko'z* semasi bilan sinonimik qatorga birlashadi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin: *sarv, shamshod, alif go'zal qad-qomat* semasi bilan; *oy, gul, quyosh* yuz semasi bilan; *pari, malak, hur* go'zallik va poklik semasi bilan sinonimlik hosil qiladi. Ko'rindaniki, konnotativ ma'nodagi sinonimlik yor semantik maydonida ko'p kuzatiladi.

Sinonimlar uslubiy xoslanish-xoslanmasligiga ko'ra ham farqlanadi. Ayrimlari badiiy uslubga xos, ayrimlari esa uslubiy betarafdir.

Shu o'rinda yana bir fikrni aytib o'tishni lozim deb topdik. Yor arxisemali birliklar tarkibida bir tovush bilan farqlanuvchi variantdosh so'zlar ham mavjud: *moh – mah, shoh – shah, gulro` – gulro'y, sumanbo` – sumanbo'y* kabi. Ular sinonim so'zlar emas, balki bir so'zning ikki xil yozilish shaklidir. Ular arab yozuvidagi matnlarni turlichcha o'qish natijasida tilimizda paydo bo'lgan va har ikki holat ham me'yor hisoblanadi.

Leksik antonimiya deb qarama-qarshi ma'no anglatadigan leksemalar munosabatiga aytildi. Antonimiya ikki leksema o'rtasidagi munosabat bo'lib, ushbu leksemalarning denotativ semalaridan biri zid, qolgan semalari esa aynan bo'ladi. Novcha – pakana antonimik juftligida novcha – bo'y o'lchami me'yordan ortiq, pakana – bo'y o'lchami me'yordan oz zid ma'nolarini bildiradi. Ushbu zidlik bir sema doirasida yuzaga chiqqan: novcha – bo'y o'lchami, "me'yordan ortiq", pakana – bo'y o'lchami, *me'yordan oz*". [49, 82] Antonimiya hodisasi yuzaga kelishi uchun olingan ikki obyekt leksema yoki leksema tarkibidagi ikki semalarda antonimik munosabat yuzaga kelishi uchun oraliqdagi so'z, yoki oraliqdagi ma'no bo'lishi shart. Agar bunday shartlanish yuzaga kelmagan bo'lsa bu jarayonga nisbatan antonimik munosabat deya olmaymiz. Masalan: ota-on, o'qigan-o'qimagan. Birinchi misolimizda erkak va ayol semalari asosida farqlanadi, ota-on leksemalari o'rtasida oraliq so'zning yo'qligi, ota-on bir hodisaning qarama-qarshi tomonlari emas, balki jins-tur munosabatiga misol bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda antonimik birliklar qarama-qarshiligining uch xil xususiyati ko'rsatiladi [11, 67]:

a) eng chetdagi birliklar qarama-qarshi qo'yiladi: to'plamdag'i boshqa birliklar ular orasiga tushishi mumkin, ular kontrar antonimlar deyiladi. Masalan, *yosh* (o'rtalik yosh) keksa;

b) unda tur tushunchasini belgilovchi so'zlar bo'lmasligi bilan xarakterlanadi: birga-alohida. Ular komplementar antonimlar deyiladi;

c) turli yo'nalishdagi faoliyat, harakat, holatlar ifodalanadi: kelmoq-ketmoq, turmoq-o'tirmoq, kulmoq-yig'lamoq. Ular vektor antonimlar hisoblanadi.

Yor semantik maydonida ham antonimlar kuzatiladi. Ularning aksari sifat turkumiga oid birliklar orasida ko'zga tashlanadi. Masalan, *vafodor* – *bevafo* (*vafosiz*), *so'zi shirin* – *talxguftor* kabi. Ko'rindaniki, ular komplementar antonimlardir.

Moddiy borliqdagi voqealar va hodisalar so'z orqali bizning hayotimizga ko'chadi. So'z kundalik turmushimizning o'ziga xos ko'zgusidir. U muayyan xalqning hayotiga kirish, bilim olish uchun beba ho kalitdir. [9, 7] An'anaviy tilshunoslikda so'zlararo munosabatlар ko'lami omonim, sinonim, antonim va paronimlar bilan chegaralanar edi. Sistem-struktur tilshunoslik leksik birliklar o'rtasidagi ko'plab yangi ma'no munosabatlarini kashf etdi. Nisbatan olib qaraganimizda, bular ichidan ma'noviy darajalanish (graduonimiya) hodisasining tilshunoslikda keng tadqiq etilganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek tilshunosligida S.G`iyosov, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, keyinchalik esa R.Safarova, M.Narziyeva, M.Fayzullayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. [37, 145] 1996-yilda esa Sh.Orifjonova "O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya" mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. [29] Uning ta'kidlashicha, graduonimiya va uning o'zbekcha ma'nodoshi darajalanish atamasi so'zlararo ma'noviy munosabatlarning bir ko'rinishini ifodalovchi ilmiy tushuncha sifatida ommalashmoqda.

Graduonimiya semantikasi asosida materianing bir turdan ikkinchi turga, shuningdek, muayyan tur ichidagi bir nisbiy holatdan ikkinchisiga uzluksiz ravishda o'tib borish hodisaside. Darajalanish ostida olam dialektikasining

oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab rivojlanib borish qonuniyatları yotadi. Uning quyidagi turlarini ko`rsatib o`tish mumkin:

1. Maydon uzvlari o`rtasidagi ichki darajalanish.
2. Leksik-semantik guruhlar yoki mazmuniy to`dalar o`rtasidagi darajalanish.
3. Moddiy borliqdagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi makromaydonlar o`rtasidagi darajalanish.

Yor semantik maydoni tarkibiga kiruvchi kichik maydonlar va ularning uzvlari orasida graduonimiya hodisasi uchraydi. Yor semali birliklar yorning go`zalligini ifodalashda o`zaro darajalanadi. Satrlarda bu holat yaqqol anglashiladi:

*Vale yodig`a bu keldikim ul oy,  
Dema oy, oftobi olamoroy.* [6, VIII, 270]

Ruju san`ati graduonimiya hodisasini anglashda yaqindan yordam beradi. Yorni avval oyga, keyin esa quyoshga o`xshatilmoxda. Quyoshning oyga nisbatan yorug`ligi, issiqligi darajalanish uchun asos bo`lgan.

*Ruxsor, rux, ro`y, chehra, uzor, xad* leksemalarining sinonimligi natijasida ular qatnashgan birliklar ham o`zaro sinonimlik hosil qiladi: *gulruxsor – gulrux – gulro` – gulchehra – gul`uzor – gulxad*. *Uzor* va *xad* leksemalarining ishlatalish doirasi boshqalarnikidan torroq. *Ruxsor, rux, ro`y, chehra* so`zlarida ham darajalanish mavjud: ma`no *ruxsordan chehraga* tomon kuchayib, ko`tarilib boradi. Ushbu darajalanish quyidagi baytda yaqqol ko`rinadi:

*Tong emastur, bo`lsa har sarvi pariruxsor sho`x,  
Lek erur sarvi **pariro`yum** mening bisyor sho`x.* [6, III, 106]

Ko`rinadiki, yor semali birliklar o`zaro sinonimiya, antonimiya, graduonimiya munosabatlariga kirishadi.

## **Bob bo`yicha xulosalar**

1. Yor semali birliklar nominatsion-motivatsion xususiyatlariga ko`ra dastlab birlamchi nominatsiya birliklari va ikkilamchi nominatsiya birliklariga ajraladi. Birlamchi nominatsiya birliklari denotativ ma`nosida sevikli inson semasi mavjud bo`lgan, inson ongida shu semasi bilan bir paradigmaga birlashuvchi birliklardir: *yor, sevar yori, mahbub(a), ma'shuq(a), sevgili, do'st, rafiq, munis, anis, oshno, habib* kabilar. Ikkilamchi nominatsiya birliklarining denotati boshqa, konnotativ ma`nosi orqaligina yorni ifodalaydi.

2. Motivatsiya asosiga ko`ra ikkilamchi nominatsiya birliklari quyidagicha semantik guruhlanadi: a) shaxs ma`nosiga ega nomlar; b) tashqi ko`rinishni ifodalovchi birliklar; d) yorning xislatlarini ifodalovchi birliklar; e) qimmatbaholik semasi bilan birlashgan birliklar. Ularning har biri o`z ichida yana bir qancha guruhlarga ajraladi.

3. Yor semali birliklar morfologik jihatdan, asosan, ot va sifat turkumlariga oiddir.

4. Yor semali birliklar nom ko`chishi, xususan, metafora va sinekdoxa mahsuli bo`lib, yorni o`simgiliklar: gul, sarv, nilufar, shamshod kabilarga; samoviy jismlar: yulduz, oy, quyosh, sayyoralarga; qimmatbaho toshlar: dur, olmos, zumradga; hayvon va parrandalar: ohu, g`azol, tovusga o`xshatish, nisbat berish asosida ataydi va badiiy, ramziy, majoziy timsollarga lug`aviy hamda poetik asos bo`ladi.

5. Sinekdoxa usulida, asosan, yorning qaysidir tana a`zosi, yorning o`zini ifodalaydi. Mumtoz she`riyatimizda *yuz, ko'z, qosh, kiprik, soch, lab, yanog'*, *qomat, qo'l* kabi tana a`zolari asosida hosil bo`lgan *yor* semali leksemalar salmoqli o`rin tutadi.

6. Yor semali birliklar shakl va ma`no munosabatiga ko`ra sinonimik, antonimik va graduonimik munosabatga kirishadilar. Ushbu birliklar orasida absolyut sinonimlar ham uchraydi, ular boshqa tillardan kirgan so`zlar hisobiga voqe bo`ladi. Antonimlarning aksari sifat turkumiga oid birliklar orasida ko`zga

tashlanadi. Masalan, *vafodor – bevafo* (*vafosiz*), *so`zi shirin – talxguftor* kabi. Ko`rinadiki, ular komplementar antonimlardir.

7. Yorning go`zalligini ifodalash nuqtayi nazaridan yor semali birliklar o`zaro darajalanadi.

### **III BOB. O`ZBEK MUMTOZ SHE`RIYATI LEKSIKASIGA XOS YORNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SHAKLLANISHI, TAKOMILI VA TARAQQIYOTI**

#### **3.1. O`zbek poetik leksikasiga xos yorni ifodalovchi birliklarning lisoniy takomili va taraqqiyoti**

Muhabbat – lirikadagi yetakchi mavzulardan biri. Ishq kuylangan satrlarda yorning ta'rifi, tavsifi o`z aksini topadi. Demak, barcha so`z ustalari *yor* semali birliklardan keng foydalanishadi. Yor semali birliklarning qo'llanilishi uzoq tarixga ega. She'riyat yaralganidan beri ulardan ham foydalanish boshlangan deyish mumkin. Zero, she'riyat his-tuyg`ular ifodasi sifatida dastlab folklor tarzida paydo bo`lgan. XI asrning qimmatli yodgorligi bo`lmish “Devonu lug`otit turk” asarida qo'shiqlar matnidan yor semali birliklarni topish mumkin:

*Bardi ko`zum jaruqi,  
Aldi o`zum qonuqi,  
Qanda erinch qaniqi,  
Emdi uzin uzg`urur.* [21, 81]

(*Ko`zimning nuri – sevikligim ketdi, mening ruhimni ham olib ketdi. U hozir qayerda ekan? Endi meni uyqudan uyg`otadi*)

Yorni metafora asosida ko`z nuri, qorachig`iga o`xshatilgan. Quyidagi parchada esa sinekdoxa asosida hosil bo`lgan yor semali birliklar qo'llangan:

*Bulnar meni ulas ko`z,  
Qara mengiz, qizil juz.  
Andin tamar tukal tuz,  
Bulnap jana ol qachar.*

“*Bu mast ko`zli (seviklim) porloq yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi (go`zal) yanoqlaridan shirinlik tomayotganday meni asir qiladi-da, so`ng mendan qochadi*“ (Mastona ko`zli, ko`rkam yuzli, qop-qora

*xolli seviklim, yanoqlaridan yoqimlilik tomayotgandek meni asir qiladi. Asir qiladi-da, so`ng qochadi). [21, 92]*

Keyingi asrlarda adabiyot sohasidagi rivojlanish yor semali birliklarning takomilida ham muhim rol o`ynadi. Xususan, g`azal janrining paydo bo`lishi bu boradagi jiddiy qadamdir. Zero, *g`azal* so`zining lug`aviy ma`nosi ham “*oshiqona so`z*”, “*ayollarga xushomad*” dir. Sayfi Saroyi, Xorazmiy, Xo`jandiy, Sakkokiy, Gadoiy, Atoiy, Lutfiy kabi shoirlar g`azal janrini yuksaklarga ko`tardilar va o`z navbatida yor semali birliklar rivojiga o`z hissalarini qo`shtilar. Alisher Navoiy esa mumtoz adabiyotimizni eng yuksak cho`qqiga olib chiqdi, desak, mubolag`a bo`lmaydi. U o`zigacha bo`lgan adabiy til doirasini kengaytirdi va uning lug`aviy, uslubiy, grammatik shakllarini mukammalashtirdi, vositalarini ko`paytirdi. Alisher Navoiy eski o`zbek adabiy tilida juda ko`p yangi shakllar, yangi uslublar yaratdi, undagi ayrim tarqoqliklarni tugatdi. U o`z davrining adabiy til shakllarini yaratdi. Ana shuning uchun ham bu haqda faxrlanib:

*Olibmen taxti farmonimg`a oson,  
Cherik chekmay Xitodan to Xuroson.*

Yoki:

*Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam, –*

deb yozganida tamomila haqli edi.

Husayn Boyqaro o`zining Navoiyga bag`ishlangan risolasini yakunlar ekan, Alisher Navoiyni shunday ulug`lagan edi:

*Erur so`z mulkining qahramoni,  
Erur gar chin desang – sohibqironi. [41, 14-15]*

Bu, albatta, bejiz emas. Alisher Navoiy ijodi bu qadar ulkan til boy boyliklarini o`zida jamlagani jahon tillari tarixida kam uchraydigan mustasno hodisadir. Ummonday cheksiz bu ko`lam, avvalo, turkiy tillar va ularning turli shevalaridagi til boyliklarini o`zida jamlagani tufayli paydo bo`lgan. Ayni

vaqtida, Navoiy o'sha davrdagi madaniy doiralar yaxshi tushunadigan arab va fors tili boyliklaridan ham keng va dadil foydalangan. [47, 129]

Shoirning lisoniy olami shu qadar ulkanki, uni to`laligicha anglash va idrok etishda shu kungacha shoir asarlarining tili bo`yicha olib borilgan, nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar, yuzaga kelgan nazariy qarashlar yetarli bo`lmaydi.

Alisher Navoiy merosining til xususiyatini o`rganishga chuqurroq yondashar ekanmiz, sirli olamning o`ziga xos qirralari namoyon bo`lib boraveradi va yangidan yangi izlanishlarga zamin yaratadi. Yor semali birliklar tadqiqi ham ana shunday izlanishlardan biridir. Ular baytga o`ynoqilik bag`ishlab, ma'noni kuchaytiradi, biroq ularni shunchaki keltirish mazmun ko`lamiga soya soladi. Asl shoir so`zni shunday tanlaydiki, natijada san'at asari darajasidagi misralar bunyod bo`ladi. Hazrat Navoiy ijodidan olingan quyidagi bayt ana shu darajaga ko`tarilgan deyish mumkin:

*Bodadin tim-tim qizarmish orazi, vah-vah, ko`rung,*

*Kim, ajab gullar ochiptur ul **malohat gulbuni**.* [6, III, 447]

Yor malohatda *gulbun* (gul butasi)ga o`xshatilgan, yuzning qizarishi gulning ochilishiga mengzalgan. Takror so`zlar ma'noni kuchaytirgan. *Gul* va *gulbun* asosdosh so`zlarini qo`llash orqali ishtiqoq san'ati hosil qilingan.

She'riyatda ma'shuqaning go`zalligi, iltifoti, istig`nosi, nozi, zulmi kabilarni hisobga olib hamda poetik manzaraga qarab, unga nisbatan qaysidir birlik tanlanadi. Aytib o'tilganidek, *yor* semali leksemalar mumtoz adabiyotimizda miqdor va sifat jihatidan keng qamrovlidir, chunki bu davrda turli fikr-g`oyalar oshiqona asarlarning mazmuniga singdirib yuborilgan. Ishqiy satrlarda yor ta'rifi, oshiq iztiroblari ifodalanadi. Oshiq o`z sevgilisini ta'riflash uchun bor mahoratini ishga soladi. Jumladan, yorni oyga mengzaydi. Bu mumtoz she'riyatimizdagi an'anaviy o`xshatishlardan biri sanaladi. Ushbu tashbehning namunalarini deyarli har bir ijodkor she'riyatida uchratish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy o`z g`azallaridan birida shunday yozadi:

*Ey Navoiy, yoqmasa ul oyg`a, bas qildim navo,*

*Lek man' aylarga ojizmen ko`ngul afg`onidin.* [6, VI, 324]

Bu so'z sof turkiycha bo`lib, ko`chma ma'noda yorni ifodalaydi. Bu an'ana Bobur she'riyatida ham davom etadi:

*Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen,*

*Ne kun bo`lg`ay visolingga meni dilxasta yetgaymen. [10, 45]*

Zahiriddin Muhammad Bobur bu so'zni o'z va ko`chma ma'noda bir misrada qo'llab, tajnis san'atining go'zal namunasini yaratadi:

*Ne bilgaysen mening dardu g`amim har soatu har dam*

*Ki, husn usrukligidin oy-u yil, ey oy, bilmaysen. [10, 45]*

Ma'lumki, Bobur she'riyati ortiqcha jimjimalardan xoliligi, soddaligi bilan ajralib turadi. Uning tili xalqona, sodda va shirali. Bobur o'z she'rlarida yorni ta'riflar ekan, ko'p hollarda egalik shaklidan foydalanadi. Bu oshiqning o'ziga bo`lgan ishonchidan darak beradi:

*Garchi vafoyu mehrni bilmas **mening oyim**,*

*Lekin jafoyu javrda sohib kamoldur. [10, 23]*

Yuqoridagi she'riy parchada egalik qo'shimchasidan tashqari qaratqich kelishigi shaklidagi kishilik olmoshining qatnashishi tegishlilik ma'nosini yanada kuchaytirish bilan birga baytdagi *oyim* so'zining ma'nosini konkretlashtirgan. Ma'lumki, o'zbek tilida "xonim", "go'zal" ma'nolarini ifoda etuvchi yana bir so'z mavjud. Buni Alisher Navoiyning quyidagi misralarida yaqqol kuzatishimiz mumkin:

*Mehrdin dermanki, bo`lsam doyim ul **oyim** bila,*

*Naylayinkim, charx evrulmas mening roym bila. [6, III, 417]*

Ko`rinadiki, Bobur so'zlarni qo'llashda mantiqqa qat'iy e'tibor bergen.

Kuzatishlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning Alisher Navoiydan yor semali birliklarni qo'llashdagi farqli jihatlaridan biri egalik shakllaridan ko'proq foydalanishidir. Quyidagi baytda ham shu holatga guvoh bo`lishimiz mumkin:

*Quyoshim har sorig`a azm qilsa, zarrae qolmon,*

*Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin kun ko`ra olmon. [10, 45]*

Bizningcha, bu holat Bobur shaxsiyatidan kelib chiqadi. Zero, Bobur katta imperiya asoschisi – podshoh edi.

Bobur yor ta’rif-u tavsifida o’ziga xos birliklardan foydalanadi va o’z shoirlik iqtidorini namoyon etadi:

*Mening ko`nglumni har dam og`ritib parvoe qilmaysen,*

*Sen, ey **bedard**, naylaykim, ko`ngul dardini bilmaysen. [10, 45]*

Yorga dashnom berish, uni bedard – ishq dardini totmagan, ya’ni mehrsiz, muhabbatsiz deyish Bobur she’riyatining o’ziga xos jihatlaridan biridir.

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zigacha qo’llangan yor semali birliklarni shunchaki qo’llabgina qolmaydi, balki unga o’ziga xos yangiliklar qo’shamdi. Natijada yor semali birliklar yangi bo’yga, yangi tarovatga ega bo’ladi. Masalan, quyidagi baytda an’anaviy o’xshatish bo’lgan oy so’zi oldidan yangi sifatlash qo’llash orqali Bobur baytga o’ynoqilik baxsh etgan:

*Ul “alif” bo`yluq oyning ishqi*

*Meni olam aro alam qildi. [10, 62]*

Alif arab alifbosining birinchi harfi bo’lib, uning shaklini yorning bo’yiga mengzash orqali kitobat va tashbeh san’atlari baytni sayqallagan. Yorni oyga o’xshatish orqali uning yuzi e’tirof etilgan bo’lsa, Bobur ham yorning yuzini, ham qaddini o’quvchining ko’z oldiga keltiradi. Quyidagi baytda ham shunga o’xshash holatga guvoh bo’lish mumkin:

*Sarv bo`yluq sanaming, ey Bobur,*

*Rost aytay – so`zi yolg`on ko`rinur. [10, 28]*

Mumtoz adabiyotimizda yorning qomati sarvga o’xshatiladi. G’azallarda *sarv* poetik murojaat shakli sifatida ko’p ishlatiladi. *Sanam* so’zidan ham yorning go’zalligini ifodalash uchun keng foydalaniladi. Keltirilgan baytda Bobur ushbu ikki so’z ishtirokida birikma tuzib, ma’noni yanada kuchaytiradi. Natijada baytda yorning surati yanada aniqlashib, mavhum tushunchalar konkretlashadi.

Baytda e'tiborga molik yana bir jihat mavjud. Bu ikkinchi shaxs egalik shaklidir. Bu g'azallarda kam uchraydigan holat bo'lishiga qaramasdan, Bobur she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, yor pariga ham o'xshatiladi. Mumtoz she'riyatda *pari* tarkibli ko'plab yor semali birliklar qo'llangan. Ulardan biri *parivash* – “*pari kabi, paridek go'zal*” so'zidir. Bobur ana shu an'anaga ham o'ziga xos yangilik qo'shadi:

*Men xud ul tifli parivashg'a ko'ngul berdim, vale,*

*Xonumonim nogahon buzulmag'ay boshdin yana.* [10, 52]

*Tifli parivash* birligi izofali birikma bo'lib, *parivashning farzandi* ma'nosini anglatadi. Bu o'rinda yorning yoshligiga va shu boisdan sho'xligiga ishora qilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Bobur o'zigacha bo'lgan an'analardan unumli foydalangan va ayni paytda ularga yangi ruh bag'ishlagan.

Ma'lumki, bu davrda asosan erkak shoirlar ijod qilishgan, ayol shoiralar kamchilikni tashkil etadi. Buning boisi davrning ijtimoiy holati bilan bog'liq. Biroq bu davrda ham shunday qalami o'tkir iste'dodli qalam sohibalari yashab o'tishganki, ularning nomi xalqqa ma'lum va mashhur. Mana shunday shoiralarimizdan biri Jahon Otin Uvaysiydir. Uvaysiy merosi o'zining latif mazmuni va dilkash badiyiliqi bilan yillar, asrlar davomida yashab kelmoqda. Shoira ijodiy merosida ham asosiy mavzu – ishq-muhabbat. Ishq kuylangan satrlarda yorning xislatlari, go'zalligi madh etiladi. Shoirlar yorni go'zal ayol ko'rinishida tasvirlashadi, uning qad-qomati, yuzi, sochi kabilarga urg'u berishadi. Shoiralar uchun esa bu biroz qiyinchilik tug'diradi. Shu bois ular ijodida umumiylit ko'zga tashlanadi. Biroq yana bir e'tiborli jihat mavjudki, uni aytib o'tish lozim. Mumtoz adabiyotimizda ko'pincha majoziy va ilohiy ishq qorishib ketadi. Haqiqiy yor – Allah – go'zallikda tengsizdir. Dunyo go'zalliklari uning tajallisidir. Shu bois shoiralar ham she'riy satrlarda uning go'zalligini kuylaydilar. Ular ham erkak shoirlar foydalangan yor semali birliklarni qo'llaydilar va bu holat aslo g'alizlik tug'dirmaydi. Masalan,

quyidagi baytda yorning yuzi gulga mengzalgan. Gulning chiroyi yorga ko`chirilgan:

*Soqiyo, berki bukun vasl alida jom menga,*

*Sog`aringda ko`rinur **chehrai gulfom** menga.* [38, 8]

Ma'lumki, gul – mumtoz adabiyotimizda go`zallik, yoshlik, qizillik ramzi. Ushbu baytda har uchala ma'no ham yuzaga chiqqan. Qolaversa, she'riy misralarda yorning yuzi, sochlari, ko`zlari, qoshlari, qad-qomati, lablari chiroyda tengsiz deya tasvirlanadi. Odatda yorning ko`zlari ohuga, nargizga o`xshatiladi. Quyidagi baytda esa Uvaysiy yorning ko`zlarini bodomga mengzaydi.

*Bo`ldi bag`rim to`la qon o`qlarining furqatidin,*

*Solmadi bir nazare **ko`zlari bodom** menga.* [38, 8]

Tilimizda qovoqning bodomga o`xshatilishi natijasida paydo bo`lgan *bodomqovoq* qo`shma sifati mavjud. Bu sifat “*qovog`i bodom shaklida, biroz do`ppaygan*” ma'nolarini anglatadi. Bunda o`xshatishga asos qilib bodomning do`mboqligi olingan. Yuqoridagi baytda esa ko`zning do`mboqligi emas, shakli nazarda tutilgan, ya'ni ko`zlar bodom shaklida. Qolaversa, baytda tasvirlanishicha, yorning kipriklari shu qadar qalinki, ko`z xuddi bodomdek kichik hamda yor shu qadar bag`ritoshki, hatto uning ko`zlari ham bodomdek qattiq.

Ko`rib o`tganimizdek, vaqt shaklni, so`zlarining qo`llanish o`rnlari va ma'nolarini o`zgartirishi mumkin, biroq mohiyatga ta'sir ko`rsata olmaydi: barcha davrlarda muhabbat kuylanadi, shunday ekan *yor* semali birliklarning umri boqiydir!

### **3.2. Yor semali leksemalarning tarixiy-etimologik manbalari**

O'zbek mumtoz adabiyoti nodir javohirlarni o'zida jamlagan ulkan xazinadir. Ushbu boylikdan o'rinni olgan asarlarning aksariyati ishq mavzusidagi romantik ruh bilan yo'g'rilgan go'zal badiiyat namunalaridir. Ma'lumki, ishq-muhabbat kuylangan satrlarda lirik qahramon – oshiqning bechoravor ahvoli-yu go'zal ma'shuqaning malohati aks etadi. Yorni tavsiflash uchun turli o'xshatishlardan foydalaniladi. O'zbek mumtoz adabiyotida qo'llanadigan an'anaviy o'xshatishlardan orttirib yangi lug'aviy birliklar qo'llash yuksak iste'doddan dalolatdir.

Bu birliklar tarixiy-etimologik jihatdan nafaqat turkiy, balki arab va fors-tojik tillariga mansubdir. Bu esa o'zbek tiliga chet tillarning ta'siri va o'sha davrdagi ijtimoiy vaziyat natijasidir. O'zbek mumtoz adabiyotiga xos yor semali birliklarni **tarixiy-etimologik qatlamga** ko'ra quyidagicha guruhash mumkin:

**1. Umumturkiy leksemalar:** *bag'ritosh, begim, birov, kichik yoshlig'*, *ko'rkapoy, ko'zi qora, oy, toshbag'ir, turk, quyosh, qorako'z* kabi.

**2. Arabcha leksemalar:** *balo, javhar, zolim, iqbol, kofir, kofiri qotil, mavzun, malak, malaksiymo, matlub, ma'shuqa, mahbuba, munis, sanam, sulton, sultoni husn, shohid, qamarsiymo, qotil, hur, habib* kabi.

**3. Fors-tojikcha leksemalar:** *badmehr, bebok, beboki nodon, but, buti diloro, gavhar, gul, guli navxosta, gulandom, gulruxsor, dildor, dilbar, do'st, jahonso'z, jon, jonona, zebo, mahi tobon, mohi parichehr, nigor, nozanin, pari, parizod, sarv, sarvi mahliqo, talxguftor, xurshidi tobon, sho'x* kabi.

Bulardan tashqari, arabcha-forscha va forscha-arabcha tarkibli birliklar ham keng qo'llangan:

**1. Fors-tojikcha+arabcha tarkibli leksemalar:** *badahd, bahori husn, bevafo, berahm, buti ayyor, siyminbadan, sarvqomat, gulrux, guljabin, guluzor, mahvashjamol, sarvqad, mohtal'at, naxlqomat, nomusulmon* kabi.

**2. Arabcha+fors-tojikcha tarkibli leksemalar:** *ayyorvash, ahdshikan, malakovash, vafodor, vafosiz, dahr sho'xi, jafojo', jafokor, tovuspaykar, kofiri*

*sangindil, orazi dilrabo, sanami mohchehra, fitnagar, qamarvash, qotili bebok, hurpaykar* kabi.


Shuningdek, o'zlashma hamda umumturkiy birliklardan hosil qilingan bir qator yor semali birliklar ham kuzatiladi:

- 1) arabcha+turkiycha:** *ayyor ko'z, ahdi yolg'on, huri chigil;*
- 2) turkiycha+arabcha:** *ko'zi fatton, ko'zi qotil, ko'zi shahlo;*
- 3) turkiycha+fors-tojikcha:** *ko'zi usruk, turki chobuk, so'zi shirin;*
- 4) fors-tojikcha+turkiycha:** *buti chin.*

Biz hozirgacha 550 dan ortiq yor semali birliklarni to'pladik. Albatta, bu raqam o'zgaruvchan. Sababi, mumtoz she'riyatimiz shu qadar ulkan ko'lamga egaki, ularni to'liq o'rGANIB chiqish uchun ancha mashaqqatli vazifadir. Hozirgacha yig'ilgan birliklarni statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, yor semali birliklarning katta qismi fors-tojik tiliga mansubdir: umumiyligi miqdorning 51 foizi (260 nafar birlik). Bu o'sha davrda fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri naqadar katta bo'lganligini ifodalaydi. Keyingi o'rinni arabcha birliklar egallaydi, ya'ni 13 foiz (55 ta birlik). Umumturkiy birliklar esa 20 ga yaqin. Bu umumiyligi miqdorning 5 foizidir. Aralash tarkibli birliklar ham anchagina. Xususan, arabcha + fors-tojikcha birliklar soni 70 ga yaqin bo'lib, 13 foizni, fors-tojikcha + arabcha birliklar soni esa 65 dan ortadi va 14 foizni tashkil qiladi. Shoir leksikonidagi o'zlashma hamda umumturkiy birliklardan hosil qilingan yor semali leksema va birikmalar esa 4 foiz (20 ga yaqin).

Alisher Navoiy yorga xos xislatlarni, belgi-xususiyatlarni birikmalar vositasida ifodalaganda asosiy tirkak xislatni belgilab, unga qo'shimcha ma'nolar ham yuklaydi. Tirkak vazifasini bajargan ta'rifu tavsifni ifodalovchi leksemalar asosida turli birikmalar yaratgan, natijada yor semali birliklar paradigma ichida yana bir nechta kichik paradigmalar vujudga kelgan. Bu paradigmaga nafaqat izofali birikmalar, balki qo'shma so'zlar ham kiradi.

Yuqoridagi raqamlarni diagramma ko'rinishida ifodallasak, quyidagi shakl yuzaga keladi:



### 3.1-chizma. Yor semali birliklarning tarixiy-etimologik qatlamlari.

Kuzatishimizcha, o'zbek mumtoz she'riyatida *sho'x* ishtirokidagi *yor* semali leksemalar paradigmasi son jihatdan salmoqlidir (40 ta): *sho'x*, *sho'xi badxo'*, *sho'xi balo*, *sho'xi beparvo*, *sho'xi dilmirib*, *sho'xi jafokek*, *sho'xi jafokor*, *sho'xi jodu*, *sho'xi zebo*, *sho'xi ishvagar*, *sho'xi kabutarboz*, *sho'xi kofir*, *sho'xi malash*, *sho'xi mardumkush*, *sho'xi mastona*, *sho'xi mahsiymo*, *sho'xi mohir*, *sho'xi nodon*, *sho'xi nozanin*, *sho'xi noranjilibos*, *sho'xi ra'no*, *sho'xi sangindil*, *sho'xi sarvqad*, *sho'xi sarkash*, *sho'xi siyminbar*, *sho'xi sitamgar*, *sho'xi sitamkor*, *sho'xi tarso*, *sho'xi turkmon*, *sho'xi xammor*, *sho'xi xudkom*, *sho'xi xudroy*, *sho'xi shakarxand*, *sho'xi shahroshub*, *sho'xi shiringo'*, *sho'xi shirinzabon*, *sho'xi shirinkor*, *sho'xi qadahpaymo*, *sho'xi qallossh*, *sho'xi hazora*.

Qolgan paradigmalar qatori ham miqdoran qolishmaydi. Shoir lirkasida *sarv* ishtirokidagi 36 ta (*sarv*, *sarvi baland*, *sarvi gulandom*, *sarvi gulrux*, *sarvi*

*gulruxsor, sarvi gulro` , sarvi gulchehr, sarvi gulhuzor, sarvi yosminsurat, sarvi lolaruxsor, sarvi mahliqo, sarvi navhez, sarvi noz, sarvi ozod, sarvi pariruh, sarvi pariruxsor, sarvi pariroy, sarvi ravon, sarvi ra'no, sarvi sarafroz, sarvi siyemandom, sarvi siyminbar, sarvi siymintan, sarvi sitamgar, sarvi sumanbar, sarvi sumanbo `(y), sarvi xiromon, sarvi cholok, sarvi shakarlab, sarvi hurzod, sarvi hurnajod, sarvqad, sarvqaddi kajkulah, sarvqaddi siyminbar(siyminbar), sarvqomat, sarqomati mavzun), gul ishtirokidagi 33 ta (gulandom, guli bog'i jinon, guli navxosta, guli otashin, guli ra'no, guli ruxsor, guli sarvqomat, guli serob, guli sumanbar, guli xandon, guli sha'mjabin, gul xirmani, gulbarg, gulbargi nozparvard, gulbargi tar, gulbargi xandon, gulbong, gulbun, malohat gulbuni, guljabin, guliston, gulrux, gulruxi ra'noqad, gulruxi tannoz, gulro` , gulro`i siyminbar, gulxad, gulchehra, gulchehrai xurshedvash, gulshan, gul'uzor, binafshapo'sh gul), moh ishtirokidagi 21 ta (moh, mohi majlisoro, mohi muaddab, mohi nav, mohi nokasta, mohi parichehr, mohi sarvqad, mohi siymsgun, mohi tobon, mohi falaksayri tezgard, mohi Farhor, mohi shabgard, mohi xirgoh, mohvash, mohliqo, mohpaykar, mohpora, mohruh, mohruxsor, mohtalhat), bu so`zning mah fonetik varianti bilan 15 ta birlik (mah, mahi badmehr, mahi gulxad, mahi zuhrajabin, mahi mahmilnishin, mahi tobon, mahi ulviy, mahi xovariy, mahi g'ofilvash, mahvash, mahvashjamol, mahvashi xammor, mahjabin, mahpora, mahro`), but ishtirokidagi 13 ta (but, buti ayyor, buti diloro, buti zarrinkamar, buti zebo, buti paymongusil, buti ra'no, buti siyminbadan, buti tarso, buti xammor, buti chin, buti shirinkalom, buti huriy), pari ishtirokidagi 12 ta (pari, parivash, parivash paykar, parizod (parizoda), pari paykar, pariypaykar malaksiymo, pariruh, pariroy, parison, parichehr (parichehra), pari ruxsora), hur ishtirokidagi 12 ta (hur, huri iyn, huri malaksiymo, huri parivash, huri parizod, huri sumanbar, huri chigil, hurvash, hurvash mahbub, hurvash soqiy, hurzod (hurizoda), hurpaykar, huri paripaykar) yor semali leksemalarga ega paradigmalar kuzatiladi. Mazkur birliklarning har biri o`ziga xos bosh va unga qo'shimcha salbiy hamda ijobiy ma'no bo`yoqdotligiga ega.*

Savol tug`iladi: nega *sho`x* tarkibli birliklar boshqalariga qaraganda ko`proq? Buning sababini shunday izohlash mumkin: yor g`oyat go`zal, ayni paytda erka va yosh. Yoshlik – *sho`xlik* demakdir. Qolaversa, ma'shuqa o`z oshiqlarini turli mushkulotlar bilan sinaydi, o`zi esa bu holatdan zavqlanadi. Oshiq bu sinovlar qarshisida lol-u hayron bo`lib, sevgilisiga *sho`x* sifatini beradi. Fors-tojik tilidan o`zlashgan ushbu so`z o`zbek tilida quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) vaqtini o`yin bilan o`tkazadigan, o`yinqaroq, to`palonchi;
- 2) o`yin-kulgini, hazil-huzulni yaxshi ko`radigan, xushchaqchaq, quvnoq;
- 3) o`z qiliqlari, ishvasi, noz-karashmasi bilan kishini o`ziga maftun qiladigan, o`ynoqi;
- 4) *ko `chma*. o`ynoqlab, tez harakat qiladigan, o`ynoqi;
- 5) *ko `chma*. kishiga shodlik bag`ishlaydigan, hazil-mutoyiba aralash, jo`sinqin; o`ynoqi, *sho`xchan* (kuy, qo`sinq, musiqa kabilar haqida). [42, V, 14-15]

Ishq – g`oyat kuchli hissiyot. U shohni gadoga, gadoni shohga aylantirishi mumkin. Zero, qalbida ishq, yonida seviklisi bo`lgan gado sultondan-da a`lo maqomga ega, biroq yor o`z oshig`iga azob berishdan charchamaydi, *sho`x* qarshisida oshiq shoh bo`lsa-da, gadoga aylanadi:

*Meni havosida devona ayladi ul sho`x,*

*Junun-u ishq ila afsona ayladi ul sho`x.* [6, V, 87]

Alisher Navoiy *sho`x* tarkibli birliklarda yorning *sho`xligiga* alohida e'tibor qaratish bilan birga uning oshiqqa munosabatini ham ko`rsatib beradi:

*Ish manga qilmoqdurur ul sho`xi beparvoni yod,*

*Ul unutmish anikim, qilg`ay meni shaydoni yod.* [6, III, 121]

Oshiqning kecha-yu kunduz qilar ishi mahbubasini yod etish, yor esa shu qadar beparvoki, oshiqlari butunlay yodidan ko`tarilgan. Lirik qahramon bo`lgan oshiq yorning bu darajada *sho`xligidan* hayratga tushadi: odamzod bunchalik *sho`x* bo`lmaydi, balki, yor parilar naslidandir:

*Gar mening sho`xi sitamkorim pariyzod o`lmasa,*

*Mumkin ermas odamiy bo`lmog `lig ul miqdar sho`x.* [6, III, 106]

Sitamlari uchun oshiq yorni *sho`xi sitamkorim* deb ataydi. Ushbu birlik tarkibida qo`llangan egalik qo`shimchasi bir qator uslubiy vazifalarni bajargan. Xususan, yorga yaqinlikni hamda qancha sitam yetkazmasin, oshiqning ahdi qat’iy ekanligini ifodalab kelgan.

Yor faqat o`zini o`ylaydi, oshiqlarining ahvoli uni qiziqtirmaydi. Fors-tojikcha *xudkom* so`zi orqali ushbu ma’no ifodalangan:

*Kom talx-u boda zahr-u ashk rangin bo`lg`anin*

*La`li shirin, lafzi rangin sho`xi xudkomimga ayt.* [6, III, 88]

Oshiq o`z ahvolidan ma’shuqaning xabar topishini istaydi, yoriga bu haqda aytishni o’tinadi. Ba’zan esa shu qadar zada bo`ladiki, ishqdan pushaymon bo`ladi va yorni *sho`xi zolim* – [f-t.*sho`x* + a. *zolim*] go`zal, zulm qiluvchi, *sho`x* mahbuba – deb ataydi:

*Ey Navoiy, zulmi ko`p ersa, pushaymonmen yana,*

*O`zni ozod istasam ul sho`xi zolimdin gahe.* [6, V, 472]

Alisher Navoiy *sho`x* so`zi ishtirokida nafaqat izofali birikmalar tuzadi, balki uni aniqlovchi sifatida qo`llab go`zal misralar yaratadi:

*Chun bu dag`i bo`lmadi qilmasa erdi jonima,*

*Muncha zebovu malihu sho`x jononimni kosh.* [6, III, 222]

Alisher Navoiy – ulkan shoirlik salohiyati va zakiylik mahoratiga ega inson. Shu tufayli ham, akademik Alibek Rustamov so`zlari bilan aytganda, Alisher Navoiy beqiyos darajada katta adabiy muvaffaqiyatlarga muvaffaq bo`lgan buyuk shoirdir. U o`zining yuksak g`oyaviy badiiy asarlari tufayli abadiy ma’naviy hayotga erishdi va jahon madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo`shdi. [34, 194]

### **3.3. O`zbek mumtoz she'riyatida qo`llangan yor semali birliklarning shakliy tuzilishi**

Ma'lumki, so`zlar tarkibiga ko`ra tub yoki yasama bo`lishi mumkin. *Yor* semali birliklar ham bundan mustasno emas. Ularning aksariyati yasama so`zlardan tashkil topgan. *Yor* semali birliklarning derivatsiyasini o`rganish eski o`zbek tilining til xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

*Yor* semali birliklar ham bir yasovchi vosita orqali yasalgan so`z uyalariga ajraladi. Bu uyalarni aniqlash yordamida *yor* semali birliklarning yasalish qoliplarini o`rganish mumkin. Kuzatishlarimiz davomida ularni hosil qiluvchi bir qator affiks hamda affiksoidlarni aniqladik. Ular quyidagilar:

Fors-tojikcha *bad-*, asosan, o`zlashma qo`shma so`zlarning birinchi tarkibiy qismi bo`lib, “*yomon*”, “*yaramas*”, “*zararli*” ma’nolarini ifodalaydi. [42, I, 132] *Yor* semali birliklar tarkibida esa faqatgina “*yomon*” semasi faollashadi. Oshiq yorining o`ziga nisbatan mehrsizligini, e’tiborsizligini ifodalash uchun *bad-* tarkibli birliklardan foydalanadi. Masalan, *badahd*, *badahd-u paymon*, *badmehr*, *sho`xi badxo`* kabi.

*Buki aning ahdu paymonida men o`lsam dag`i*

*Yaxshi fursat topsang, ul **badahd-u paymonimg`a** ayt.* [6, IV, 63]

Fors-tojikcha *-bar* – otdan sifat yasovchi affiksoid: *sumanbar*, *siyminbar*, *siyminbar* kabi. *Sumanbar* va *siyminbar* leksemalari “*yosuman tanli*”, “*kumush tanli*” ma’nolarini anglatib, ko`chma ma’noda oqbadan, go`zal ma’shuqaga nisbatan ishlatiladi hamda sinonimlikni hosil qiladi. Ayni paytda *sumanbar* leksemasi “*xushbo`ylik*” semasini, *siyminbar* esa “*qimmatbaholik*” semasini saqlab qolgan.

*Ul **sumanbar** qaddining sarvig`a ko`nglum bo`ldi bog`*,

*Otashin gullar anga har yangg`i qonlig` toza dog`.* [6, III, 243]

*Dilbar* leksemasi tarkibidagi *bar* esa fors-tojikcha *burdan* (*olmoq*) fe’lining hozirgi zamon asosi bo`lib, “*dilni egallovchi*”, “*dilni tortuvchi*”, “*yoqimli*” ma’nolarini anglatadi. [33, 87]

O’zbek tilida yuqoridagi shakl bilan omonim bo`lgan preffiks ham mavjud. U arabcha va forscha-tojikcha so`zlarga qo’shilib, biror sifat-belgiga egalikni, davomiylikni, yo`nalishni ifodalovchi so`zlar (sifat, ravish) yasovchi, ba- qo’shimchasi bilan deyarli bir xil bo`lgan fors-tojikcha qo’shimchadir. Masalan, *bardavom*, *barqaror*, *barvaqt*. Anglashiladiki, o’zbek tilida *bar* shakliga ega uch xil yasovchi vosita mavjud.

Fors-tojikcha *be-* “*yo’q*” ma’nosini anglatuvchi affiks: *bevafo*, *bemehr*, *berahm*, *bebok* (*qo’rqmas*) kabi. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi birliklar tarkibida qo’llanadi. Hozirgi o’zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi.

Fors-tojikcha *-vash* affiksi “*o’xhash*” ma’nosini anglatadi: *mahvash*, *shohvash*, *lo’livash*, *malakovash*, *parivash* kabi. Otdan sifat yasovchi ushbu affiksni Alisher Navoiy sifatlarga ham qo’shadi va yangicha mazmun-mohiyat inkishof etadi. Bevafovash, begonavash birliklarida yorning oshiqqa ko’ngli borligi, atrofdagilarning ko’z oldidagina o’zini bevafo, begonaday tutishi anglashiladi. Ushbu manzara Navoiy kashf etgan badiiy topilmalardan biridir:

*To unutdi oshnolig` rasmin ul begonavash,*

*Oshno yig`lar mening holim ko`rub, begona ham.* [6, III, 320]

Fors-tojikcha *-gar* – ot yasovchi affiks: *ishvagar*, *jilvagar*, *fusungar* kabi. *-Gar* affiksi fors-tojikcha “*qilmoq*” fe’lidan kelib chiqqan *-kor* qo’shimchasi bilan sinonimlik hosil qiladi: *sitamgar* – *sitamkor*. Ular bugungi kunda ham ishlatiladi.

Fors-tojikcha *No-* fors-tojikcha affiks bo`lib, ot yoki sifatga qo’shilib, sifat yasaydi. U ko`p ma’noli qo’shimcha bo`lib, ega emaslikni yoki qarama-qarshilikni bildiradi. Yor semali birliklar tarkibida asosan qarama-qarshilikni ifodalaydi: *nomehribon* – *mehribon emas*, *nomusulmon* – *musulmon emas* kabi.

Mustaqil ma'noga ega, so'zlik xususiyatini saqlab qolgan, biroq ko'pgina birliklar tarkibida yangi ma'no shakllantiruvchi leksemalarga yasovchi komponentlar sifatida qarash mumkin, bunday komponentga ega birliklar tuzilishiga ko`ra qo'shma so'z hisoblanadi. So'z yasovchi komponentlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

*Jabin* – arabcha “*peshona*” ma'nosini anglatadi: *guljabin*, *mohjabin*, *shamjabin* kabi.

*Zod* – fors-tojikcha “*farzand*” ma'nosini anglatadi: *parizod*, *hurizod* kabi. Afsonaviy yoki diniy tushunchalarga ko`ra parilar go`zallikda tengsiz, sehr va chiroy sohibalaridir, hurlar esa jannatdagi go`zallardir. Yorining go`zalligidan hayratga cho`mgan oshiq uning odamzod ekanligiga shubha qiladi. Zero, bu qadar mukammal husn pari yoki hurlarga nasib etadi.

*Necha javrin tortayin ul sarvi hurizodning,*

*Yo`qmudur poyoni oyo zulm ila bedodning?* [6, III, 284]

*Paykar* – fors-tojikcha “*qomat*”, “*ko`rinish*” ma'nolarini anglatadi: *paripaykar*, *hurpaykar*, *mohpaykar*, *xurshidpaykar* kabi.

*Pora* – fors-tojikcha “*qism*, *bo`lak*” ma'nosini ifodalaydi: *mohpora*, *otashpora* kabi.

*Ra'no* – arab tilida lug`aviy ma'nosni – “*yengiltak*”, “*mulohazasiz*”, “*o`ylamay qilingan*”; o`zbek tilida “*qizil va sariq rangli xushbo`y gul*” ma'nosini anglatadi. Ko`chma ma'noda esa “*go`zal*”, “*barno*” semalariga ega bo`ladi. [32, 355] Asosan, izofali birikmalar tarkibida qatnashadi: *guli ra'no*, *sarvi ra'no*, *chobuki ra'no* kabi.

*Ruxsor* – fors-tojikcha bo`lib, “*tashqi ko`rinish*”, “*qiyofa*”, “*yuz*”, “*yanoq*” ma'nolarini anglatadi: *gulruxsor*, *mohruxsor*, *pariruxsor* kabi.

*Rux* – fors-tojikcha “*yuz*”, “*qiyofa*” ma'nolarini anglatadi: *gulrux*, *lolarux*, *mohrux*, *parirux* kabi.

*Ro`y* – fors-tojikcha “*yuz*” ma'nosini anglatadi. Ba'zan *ro`* variantida ham ishlatiladi: *gulro`*, *pariro`y*, *mohro`* kabi.

*Chehra* – fors-tojikcha “yuz”, “qiyofa” kabi ma’nolarni ifodalaydi hamda *chehr* shaklida ham ishlatiladi: *gulchehra, parichehr, qamarchehr* kabi.

*Uzor* – arab tilida “*chehra*”, “*yuzning yuqori bo`rtiq qismi*” ma’nolarini anglatadi: *guluzor, lolauzor* kabi.

*Xad* – fors-tojik tilidan o’zlashgan bo’lib, “*yanoq*”, “*yuz*” ma’nolarida *arg`uvonxad, gulkad* kabi yor semali birliklar tarkibida qatnashgan.

*Ruxsor, rux, ro`y, chehra, uzor, xad* leksemalarining sinonimligi natijasida ular qatnashgan birliklar ham o’zaro sinonimlik hosil qiladi: *gulruxsor – gulrux* – *gulro` – gulchehra – gul’uzor – gulkad*. *Uzor* va *xad* leksemalarining ishlatilish doirasi boshqalarnikidan torroq. *Ruxsor, rux, ro`y, chehra* so’zlarida ham darajalanish mavjud: ma’no *ruxsordan chehraga* tomon kuchayib, ko’tarilib boradi. Ushbu darajalanish quyidagi baytda yaqqol ko`rinadi:

*Tong emastur, bo`lsa har sarvi pariruxsor sho`x,*

*Lek erur sarvi **pariro`yum** mening bisyor sho`x.* [6, III, 106]

*Siymo* – arabcha “*belgi*”, “*yuz*”, “*ko`rinish*” demakdir. O’zbek tilida ma’no kengayishi asosida “*qiyofa*” ma’nosini anglatadi: *malaksiymo, qamarsiymo, xurshidsiymo* kabi.

*Tobon* – fors-tojikcha “*yarqirab turuvchi*”, “*mo`l-ko`l nur sochuvchi*” ma’nolarini anglatadi hamda osmon jismlari nomlari bilan birgalikda izofali birikma shaklida qo’llanadi: *mahi tobon, xurshidi tobon* kabi.

*Qomat* – arabcha “*bo`y-bast*” ma’nosini anglatadi. O’zbek tilida “*kishi tanasining chiroyli bichimi*” ma’nosini bildiradi: *naxlqomat, sarvqomat* kabi. *Qad* leksemasi ham ayni shu ma’noda ishlatiladi va *qomat* bilan sinonimlik hosil qiladi. Masalan, *sarvqad, sihiqad* kabi.

Ko`rinib turibdiki, *yor* semali leksemalar alohida paradigma sifatida o’ziga xos derivatsion xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar tilimizning mo’jizakor kuchini o’zida yaqqol namoyon etadi. Xususan, ular tuzilish jihatidan so’z va birikma ko`rinishida uchraydi. Ayni paytda bu shakllar ham ichki guruhlarga ajraladi. Ularning har birini alohida ko’rib chiqsak.

Ma'lumki, so'zlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takroriy so'zlarga ajratiladi. O'zbek poetik leksikasidagi yor ma'nosini ifodalovchi so'zlarning aksariyati sodda (*oy, gul, sarv, quyosh, pari, malak, mahvash* kabi) va qo'shma (*sarvqad, mahro'*, *gulchehra, pariro'y, malaksiymo* kabi) shaklda uchraydi. Ayrim o'rindrillardagina juft so'zlarni uchratish mumkin:

*Ne nozu ne ishvadur, ey jodu ko'zluk sho'x-shang?*

*Kabki dariy, tovusta yo'q, albatta, bu raftoru rang.* [20, 136]

Mavlono Lutfiy ijodidan olingen ushbu parchada juftlash usulidan foydalananib *sho'x* so'zining orttirma darajasi hosil qilingan. *Shang* so'zi fors-tojikcha bo'lib, “*sho'x, o'ynoqi*” ma'nolarini anglatadi, baytda esa *juda sho'x* ma'nosini anglatish uchun qo'llanilgan.

So'z shaklidagi yor semali birliklarni ko'p o'rindrarda kuzatishimiz mumkin. She'riy satrlarning o'ynoqilagini oshirish hamda uslubiy vazifadan kelib chiqqan holda yor semali leksema boshqa leksemalar bilan aloqaga kirishib, birikma hosil qilishi mumkin: *yori bemehr, guli ra'no, mohi muaddab, sho'xi badxo', tag'ofulvash dilbar* kabi. Ma'lumki, so'z va birikma funksional jihatdan birlikni tashkil etsada, ma'noning qay darajada aniqligiga ko'ra farqlanadi. Yorning xislatlarini konkretlashtirishda birikmalar qo'l keladi. Ma'lumki, birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlardan tarkib topadi. Shuni e'tiborga olgan holda birikmalarni sodda va zanjir-birikmalarga ajratishimiz mumkin. Sodda birikmalar so'z birikmalari va izofali birikmalarga ajraladi. *Tag'oful dilbarim, mening oyim, qaro soch, shakar koni, sevar jonim* kabi so'z birikmalari; *mohi gulxad, sarvi cholok, sho'xi sitamkor, kofiri badxo', guli serob* kabi izofali birikmalar fikrimiz dalilidir. So'z birikmalarining ko'pchiligi bitishuv va moslashuv usuullari orqali birikkan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, mumtoz adabiyotimizda izofali birikmalar so'z birikmalariga nisbatan kengroq va ko'proq qo'llangan. Bu she'riyat taqazosidir, balki. Zero, izofali birikmalar badiiylik ifodasidir. Qolaversa, izofali birikmalar fors-tojik va arab tillarining tilimizga ta'siri natijasidir. Izofali birikmalarning aksari ot + izofa ko'rsatkichi + ot yoki ot +

izofa ko'rsatkichi + sifat modelidadir. Yor semali birliklarning katta qismi morfologik jihatdan ot yoki sifat turkumlariga xosdir.

Yorning go'zalligi, nazokat-u nafosati shu qadarki, shoir bir so'z yoki sodda birikma bilan buni ifodalab bera olmaydi. Natijada yangi yor semali birlik – zanjir-birikma vujudga keladi. Bu holatni Mavlono Lutfiy ijodida ko'p kuzatamiz.

*Ey sanubar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il,*

*Shavq o'tinda men gadoni asru biryon qilmag'il.* [20, 144]

Ikki birikmaning qo'shiluvidan hosil bo'lgan ushbu zanjir-birikma yorning tashqi ko'rinishini yanada yaqqolroq ko'z oldimizga keltirishga xizmat qilgan. Ba'zan sodda birikmaning ma'nosini yanada aniqlashtirish uchun zanjir-birikmalardan foydalaniladi. Quyidagi baytda ayni shu holat kuzatiladi:

*Yo rab, ne ajab yori jafokora yo'luqtum,*

*Ko'zi-yu qoshi jodui makkora yo'luqtum.* [20, 158]

Birinchi misrada yorning jafokorligi aytilgan bo'lsa, ikkinchi baytda fikr isbotlangan. Yorning ko'zлari jodu qilsa, qoshlari makkor. Ular oshiqning joniga faqat jafo ko'zlashadi. Tasvir satrdan satrga kuchayib, darajalanib boradi. Quyidagi baytda esa shoir bir o'rinda yorning bor go'zalligini ohib berishga intiladi:

*Lolatek bag'rimda dog'erdi, ajabkim qolmisham*

*Bir sumanbar yuzi gul sarvi xiromondin yiroq.* [20, 113]

Bir misrada yorning oppoqligi, sumandek xushbo'yligiyu tarovati, guldek go'zalligiyu nozikligi, sarvdek xushqadligi hamda chiroyli qadam bosishi tasvirlangan. Mana – yorning haqiqiy portreti.

Shunday zanjir-birikmalar ham uchraydiki, ularda makon ma'nosи ham mavjud:

*Ey ko'ngul burjinda xurshedi jahontobim mening,*

*Yuzu ko'zungdin yiroq yo'q xo'rd ila xobim mening.* [20, 130]

*Kurshedi jahontob "dunyonи yorituvchi quyosh"* ma'nosini anglatadi. Baytda zanjir-birikma esa bu ma'noni toraytirgan. Go'zal yor hammaning emas,

oshiqning ko`ngil burjidagi quyosh, faqat uning qalbini munavvar qilishi lozim. Shu bois oshiq undan aslo uzoqlashmaydi.

Yuqoridagi kabi zanjir-birikmalarga yana ko`plab misollar keltirish mumkin:

*Ey jon chamani ichra bo`yi sarvi ravonim,*

*Vola erur ul suratinga ruhi ravonim.* [20, 148]

Yoki:

*Ey latofat bo`stoni ichra sarvi xushxirom,*

*Topdi ruxsoring gulidin xusn bog`i ehtirom.* [20, 153]

Ko`rinadiki, hajm kattalashgani sari yorning portreti yanada aniqroq ko`z oldimizda gavdalanmoqda. Ba'zan nafaqat bir misra, balki butun bayt yorni ifodalash uchun xizmat qiladi.

*Jon-u ko`ngul kishvarining xonisiz,*

*Husnu latofat tanining jonisiz.* [20, 105]

Ikki zanjir-birikma, aniqroq aytganda yor semali ikki birlik butun baytni tashkil qilgan hamda uning go`zalligi uchun xizmat qilgan.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, asosan, so`z birikmalar kengayib, zanjir birikmalarni hosil qiladi. Yor ma'nosini anglatuvchi so`z oldidan so`z birikmasini aniqlovchi sifatida qo'llash ko`p o'rnlarda kuzatiladi. Masalan, *alif bo`yluq sanam, sarv bo`yluq sanam, bo`z otlig' ul sanam, tosh bag'irlaq yor, pari yuzluk begin, qon to'kkuchi zolim* kabi. Izofali birikmalarning kengayishi esa kam kuzatiladi. Quyidagi baytda yor *oinai oyati Rahmon* deya ulug'lanadi, ushbu birikma *Alloh oyat (so`z, belgi) ining oynasi, aksi degan ma'noni* anglatadi. Bu hol tasavvufdagi tajalli falsafasi bilan bog'liq.

*Izhori tajalliy qilur ul chehra safosi,*

*Sen oinayi oyati Rahmon yetilibsen.* [20, 170]

Mavlono Lutfiy o`z zamonasining “malik ul-kalom”i darajasiga ko`tarilgan muhtaram zot, oshiqona, sehrli so`zlar zargaridir. Shoir ijodidan olingan quyidagi she'riy parchada, birinchi misradan tashqari, to`rt bayt faqat yor semali birliklardan tuzilgan:

*Bihamdillohki, keldi dilraboyim,  
Aziz on ko`zi Cho`lpon, to`lun oyim.  
Sevar jonim, pari paykar habibim,  
Visoli – rohatim, hajri – baloyim.  
Yuzi gul, sochi sunbul bag`ri toshim,  
Muhibblarni unutqan bevafoyim.  
Murodim davlati, baxtim latifi,  
So`zi shirin nigori jonfizoyim.* [20, 147]

Birinchi misrada dilrabo – yorning kelganligi xabar qilingan bo`lsa, qolgan barcha satrlarda yor semali birliklar marjondek tizilgan. Qayd etib o`tish lozimki, parchadagi o`n ikkita birlikning aksariyati Mavlono Lutfiy tomonidan konnotativ ma`no asosida hosil qilingan.

Ko`rinadiki, yor semali birliklar paradigmasida birikmalarning ko`lami anchagina. Ular orasida zanjir-birikmalar ham alohida o`rin tutadi.

## **Bob bo`yicha xulosalar**

1. Yor semali birliklarning qo`llanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Ilk folklor namunalarida ham ularni kuzatish mumkin. Xususan, “Devonu lug`otit turk” asaridagi to`rtliklar tarkibidan ham ularni topishimiz mumkin.
2. Keyingi davrlarda adabiyot rivoji davomida yor semali birliklar ham takomillashib bordi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida yuksak cho`qqiga ko`tarildi.
3. *Yor* semasini ifodalovchi birliklar: so`zlar, izofali birikmalar salmoqlidir. Ularning umumiyligi miqdori 550 dan ziyod. Ular tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, jumladan, o`zbekva fors-tojik, arab tillariga mansubdir. Statistik tahlilga ko`ra, to`plangan yor semali birliklarning 260 tasi fors-tojikcha bo`lib, umumiyligi miqdorining 51 foizini tashkil etadi. Shuningdek, yor semali birliklar tarkibida aralash tarkibli (o`z va o`zlashgan qatlama elementlari o`zaro chatishgan) birliklar ham talaygina.
4. Yor semali birliklar o`ziga xos derivatsion xususiyatlarga ega bo`lib, asosan, o`zlashma affikslar *bad-*, *be-*, *bar-*, *-vash*, *-gar*, *no-* kabilar vositasida hamda forsiy, arabiyligi izofalar asosida hosil qilingan. Morfemik-statistik tahlillarning ko`rsatishicha, yor semali leksemalar doirasida *sho`x* (40 ta), *sarv* (36 ta), *gul* (33 ta) tarkibli leksemalar salmoqli o`rin tutadi.
5. O`zbek poetik leksikasidagi yor ma`nosini ifodalovchi so`zlarning aksariyati sodda va qo`shma shaklda uchraydi.
6. Yor ma`nosini ifodalovchi birikmalar ikki yoki undan ortiq so`zlardan tarkib topadi. Shuni e`tiborga olgan holda birikmalarni sodda va zanjir-birikmalarga ajratishimiz mumkin.
7. Yor semali izofali birliklar, asosan, ot + izofa ko`rsatkichi + ot yoki ot + izofa ko`rsatkichi + sifat modelidadir.

## XULOSA

1. Inson ongida barcha narsalar bir sistema tarzida jamlanadi, chunki olamning o`zi bir sistemadir. Har qanday tilning leksik sistemasi ma'lum ma'no umumiyligi asosida birlashgan bir qancha paradigmalarning o`zaro munosabatidan tashkil topadi. Ana shunday ma'no umumiyligi asosida xotiramizda birlashgan lisoniy birliklar paradigmasi lingvistik maydon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ma'lum ma'no umumiyligi asosida birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o`xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig`indisi lingvistik maydon sifatida belgilanadi. Yor ma'nosini ifodalovchi birliklar yor arxisemasi orqali bir semantik maydonga birlashadi. O`zbek poetik leksikasida bu maydon muhim o`rin tutadi.

2. Yor semali birliklar orqali tilning atash (nomlash) va ekspressiv-emotsional vazifalari yuzaga chiqadi. Yor semali birliklar yorni turli sifat va xislatlari bilan atash asosida she'riy matnga obrazilik, badiylik, ta'sirchanlik, musiqiylik va jozibadorlik baxsh etadi.

3. Yor semali birliklar nominatsion-motivatsion xususiyatlariga ko`ra dastlab birlamchi nominatsiya birliklari va ikkilamchi nominatsiya birliklariga ajraladi. Birlamchi nominatsiya birliklari denotativ ma'nosida sevikli inson semasi mavjud bo`lgan, inson ongida shu semasi bilan bir paradigmaga birlashuvchi birliklardir: *yor, sevar yori, mahbub(a), ma'shuq(a), sevgili, do'st, rafiq, munis, anis, oshno, habib* kabilar. Ikkilamchi nominatsiya birliklarining denotati boshqa, konnotativ ma'nosni orqaligina yorni ifodalaydi.

4. Motivatsiya asosiga ko`ra ikkilamchi nominatsiya birliklari quyidagicha semantik guruhlanadi: a) shaxs ma'nosiga ega nomlar; b) tashqi ko`rinishni ifodalovchi birliklar; d) yorning xislatlarini ifodalovchi birliklar; e) qimmatbaholik semasi bilan birlashgan birliklar. Ularning har biri o`z ichida yana bir qancha guruhlarga ajraladi.

5. Yor semali birliklarning semantik strukturasi juda keng. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, birikma shaklidagi yor semali birliklar tarkibida yuqoridagi guruhlar o'zaro aralash holda kelishi mumkin. Bu hol shoirning yor portretini mukammal chizishga urinishi natijasidir.

6. Yor semali birliklar morfologik jihatdan asosan ot va sifat turkumlariga oiddir. Ularning aksariyati yor semasiga nom ko'chishi orqali ega bo'lgan. Yor semali birliklar nom ko'chishi, xususan, metafora va sinekdoxa mahsuli bo'lib, yorni o'simliklar: gul, sarv, nilufar, shamshod kabilarga; samoviy jismlar: yulduz, oy, quyosh, sayyoralarga; qimmatbaho toshlar: dur, olmos, zumradga; hayvon va parrandalar: ohu, g'azol, tovusga o'xshatish, nisbat berish asosida ataydi va badiiy, ramziy, majoziy timsollarga lug'aviy hamda poetik asos bo'ladi. Sinekdoxada asosan yorning qaysidir tana a'zosi, yorning o'zini ifodalaydi. Xususan, *yuz*, *ko'z*, *qosh*, *kiprik*, *soch*, *lab*, *yanog'*, *qomat*, *qo'l* kabi tana a'zolari asosida hosil bo'lgan yor semali birliklar salmoqli o'rin tutadi.

7. Yor semali birliklar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonimik, antonimik va graduonimik munosabatga kirishadilar. Yor semali birliklar denotativ yoki konnotativ ma'nosini bilan sinonimik qatorlarga birlashadi. Qator birliklari orasida ma'lum farqlar ko'zga tashlanadi. Antonimik munosabat, asosan, sifat turkumiga oid yor semali birliklar tarkibida kuzatiladi. Yorning go'zalligini ifodalash nuqtayi nazaridan yor semali birliklar o'zaro darajalanadi. She'riy matnlarda bu holatni aniq ko'rish mumkin. Adabiyotshunoslik ilmida ruju deb ataluvchi badiiy san'at turi ham yor semali birliklarning graduonimik munosabatini aks ettiradi.

8. Yor semali birliklarning qo'llanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Ilk folklor namunalarida ham ularni kuzatish mumkin. Xususan, "Devonu lug'otit turk" asaridagi to'rtliklar tarkibidan ham ularni topishimiz mumkin.

9. *Yor* semasini ifodalovchi birliklar: so'zlar, izofali birikmalar salmoqlidir. Ularning umumiy miqdori 550 dan ziyod. Ular tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, jumladan, o'zbekva fors-tojik, arab tillariga mansubdir. Statistik tahlilga ko'ra, to'plangan yor semali birliklarning 260 tasi fors-tojikcha bo'lib,

umumiylar miqdorining 51 foizini tashkil etadi. Shuningdek, yor semali birliklar tarkibida aralash tarkibli (o`z va o`zlashgan qatlam elementlari o`zaro chatishgan) birliklar ham talaygina.

10. Yor semali birliklarga xos yuqoridagi talqin va tahlillar o`zbek tilining lug`aviy, uslubiy jihatdan boyligining, imkoniyatlari cheksizligining yana bir dalilidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

### **II. Ilmiy va badiiy asarlar**

4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати, 4 жилдлик (Э. Фозилов таҳрири остида). – Тошкент: Фан, 1983-1885.
5. Алишер Навоий. Қаро кўзум. – Тошкент: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
6. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1987-2003.
7. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
8. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикасининг баъзи масалалари // Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981.
9. Верешшагин Й.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теорея слова. – Москва: Русский язык. 1980.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон (нашрга тайёрловчи А. Абдуғофуров). – Тошкент: Фан, 1994.
11. Искандарова Ш. Тил системасига мазмуний майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007.
12. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида о’рганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

13. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1991.
14. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
15. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
16. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
17. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
18. Караулов Ю.Н. Обшая и русская идеография. – Москва: Наука, 1976.
19. Каримов С. Бадиий матннинг услубий воситалари. – Самарқанд, 1990.
20. Лутфий. Сенсан севарим (“Ўзбек адабиёти бўстони” туркумидан). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
21. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк, I жилд. – Тошкент, 1960.
22. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўшатишлар. – Тошкент, 1976.
23. Мухаммад Ризо Огахий. Асарлар, 6 жилдлик. – Тошкент, 1971.
24. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент, 1972.
25. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчилар: Ҳасанов Б. – Тошкент: Фан, 1993.
26. Нурмонов А. Танланган асарлар, III жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012.
27. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
28. Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992.
29. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. номз... автореф. – Тошкент. 1996.

30. Очилов Э. Алишер Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
31. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати, I китоб (Туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.
32. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати, II китоб (Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003.
33. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати, III китоб (Форсча,тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009.
34. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент, 1979.
35. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: ЭХТЕМУМ – ПРЕСС, 2010.
36. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М.ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.
37. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент, 2004.
38. Увайсий шеъриятидан (тузувчи Маҳбуба Қодирова). – Тошкент, 1980.
39. Увайсий. Мазмун маъдани (шеърлар). – Тошкент: Академнашр, 2010.
40. Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. 1-қисм .– Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
41. Шоҳ ва шоир Ҳусайн Бойқаро. – Тошкент, 1995.
42. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
43. Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991.
44. Қиличев Э. Бадиий тасвиринг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.
45. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
46. Қўчқортов И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975.

47. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги нашриёт-манба уйи, 2005.
48. Қуръонов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
49. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1961.
50. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008.
51. Ҳаққұлов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
52. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати.– Тошкент, 2002.

## ILOVALAR

### Yor semali birliklar lug`ati

#### A

**AJUBA PAYKAR** [a. +f-t.] Ajab qomatli, ajoyib chehrali, kishini o`ta hayratga soluvchi jamol. Yorning tashqi ko`rinishini tavsiflovchi birikma. Faol qo`llanmaydi.

**AZIZIM** [a.] Topilmas, noyob, qadr-u qimmatli; bebahoh yor. Bugungi kunda faol qo`llanuvchi bu so`z XIV-XV asrlarda gender xususiyatlariga ko`ra farqlanmagan.

**AYYORVASH** [a. *ayyor* + *f-t.-vash*] Makkor, firibgarga o`xshash; sehrgar. Yorning salbiy jihatini aks ettiradi. Variantlari: *ayyor ko`z, jahon ayyorasi*.

**AYYOR KO`Z** [a. *ayyor* + *t.ko`z*] Makkor nigohli, maftun qiluvchi nigoh. Yorning ko`zlarini sifatlash orqali hosil bo`lgan birikma.

**ARG`UVONXAD** [f-t.] qizil yuzli, go`zal yanoqli. Tashbeh san`ati orqali yorning yuzini ifodalaydi.

**AXTAR** [a.] Yulduz. Istiora san`atini yuzaga keltiradi.

≈ **i baxt** [a. *axtar* + f-t. *baxt*] Baxt yulduzi; ko`chma ma`noda oshiqni baxtli qiluvchi yor. Shakllari: *saodat axtari*.

≈ **i husn** [a.] Husn yulduzi; ko`chma ma`noda husn egasi, go`zal sevgili.

**AHDSHIKAN** [a. *ahd* + f-t. *shikan*] Ahdini buzuvchi, va`dasi yolg`on. Yorning salbiy xislatini ifodalovchi sifat. Sinonimlari: *ahdi yolg`on, badahd, badahdu paymon, bevafo*.

**AHDI YOLG`ON** [a. *ahd* + t. *yolg`on*] Aldamchi, va`daboz, bevafo.

## B

**BADAHD** [f-t. *bad – yomon* + a. *ahd*] Ahdi yolg`on, ahdida turmaydigan, vafosiz.

≈ **u paymon** [f-t. *bad (yomon)* + *ahd-paymon (tojikcha)*] Va'dasi yolg`on, ahd-u paymonsiz, va'dasida turmaydigan.

**BADMEHR** [f-t. *bad* + *mehr*] Mehrsiz, mehri qattiq, shafqatsiz yor, go`zal. Salbiy munosabatni ifodalovchi sifat. Sinonimlari: *bemehr*, *nomehribon*. Variantlari: *mahi badmehr*, *badmehr chobuk turk*. Antonimi: *mehribon*.

≈ **chobuk turk** [f-t. *badmehr* + f-t. *chobuk* + t. *turk*] Go`zal, bemehr, beparvo yor, o`ynoqi chavandoz.

**BALIYAT NOVAKI** [a. *baliyat (balolar)* + f-t. *novak (kiprik)*] Jafo tig`i, ma'shuqa kiprigi; ko`chma ma'noda yorning o'zi. Istiora va sinekdoxa san'atlari asosida yorni ifodalaydi.

**BALIYAT SHOHIDI** [a.] Balo keltiruvchi mahbuba, go`zal yor. Istiora yordamida yorni ifodalaydi. Qarang: *shohid*.

**BALO** [a.] Ofat, qyinoq; ko`chma ma'noda ma'shuqa, sevikli yor. Istiora san'atini yuzaga keltiradi. Shakllari: *sho`xi balo*.

**BAHOR** [f-t.] Yasharish fasli; ko`chma ma'noda bahordek go`zal, sohibjamol yor. Istiora san'atini yuzaga keltiradi.

≈ **i noz** [f-t.] Ko`chma; noz-u karashma sohibasi.

≈ **i nozparvard** [f-t.] Ko`chma; noz-u karashma sohibasi.

≈ **i husn** [f-t. *bahor* + a. *husn*] Mahbuba, go`zal.

**BAG`RITOSH** [t.] Qahri qattiq, rahmsiz, beshafqat. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat. Sinonimlari: *toshbag`ir*, *sho`xi sangindil*, *kofiri sangindil*, *berahm*.

**BEBOK** [f-t.] Zolim, toshbag`ir, shafqatsiz mahbuba, go`zal yor. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat. Shakllari: *masti bebok*, *beboki nodon*.

≈ **i nodon** [f-t.] Befarq, beparvo, mag`rur; mahbuba.

**BEVAFO** [*f-t. be- (yo`q) + a. vafo (ahdida qat'iy turish)*] Vafosiz, ahd-u paymonni buzuvchi. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi so`z. Sinonimlari: *ahdi yolg`on, ahdshikan, badahd, badahdu paymon, buti paymongusil*. Antonimlari: *vafodor, yori vafodor*. Shakllari: *bevafovash*.

**BEVAFOVASH** [*bevafo + f-t. vash*] Vafosizlarga o`xhash, o`zini bevafoday tutuvchi.

**BEGIM** [*t.*] Hokim; ko`chma ma`noda mahbuba. Bu so`z gender xususiyatlari jihatidan farqlanmagan.

**BEGONAVASH** [*f-t.*] Begonasifat, oshnoligi yo`q, yotga o`xhash, o`zini begonaday tutuvchi. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat.

**BEMEHR** [*f-t.*] Mehrsiz, shafqatsiz, toshyurak. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat.

**BERAHM** [*f-t. be- (yo`q) + arabcha rahm (achinish, shafqat)*] Shafqatsiz, bag`ritosh, rahmsiz. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat.

**BEQARORIM** [*f-t.*] Ahdida turolmaydigan ma`shuqa.

**BILQISI ZAMON** Sulaymon payg`ambarning sevgilisi, Sabo shahri malikasi; zamona Bilqisi, go`zal malikasi. Istiora san`ati yordamida yuzaga kelgan.

**BINAFSHAPO`SH GUL** [*f-t. binafsha (asli sifat, keyin ot) + po`shidan (yopmoq) fe`lining hozirgi zamon asosi*] Binafsha yopingan gul; binafsha rangida kiyingan go`zal. Istiora san`ati yordamida yuzaga kelgan gul so`zini sifatlash orqali hosil bo`lgan birikma.

**BIROV** [*t.*] Bir kimsa, birov, kimdir.

**BUT** [*f-t.*] Sanam; ko`chma ma`noda go`zal, sevgili, ma`shuqa. Istiora san`ati yordamida yuzaga kelgan. Sinonimlari: *sanam, sanami mohchehra*. Bu so`z ishtirokidagi izofali birikmalar yorning tashqi va xarakter xususiyatlarini ifodaydi.

≈ **i ayyor** [*f-t. but + a. ayyor*] Ayyor, hiylagar, sho`x mahbuba.

≈ **i bebok** [*f-t.*] Qo`rqmas, hech narsadan tap tortmaydigan yor.

- ≈ **i begonavash** [f-t.] O`zini begonaga soluvchi yor.
- ≈ **i diloro** [f-t.] Ko`ngilni yumshatadigan, yoqimli sevgili, ma'shuqa.
- ≈ **i gulgund qabo** [f-t.] Gul rangida kiyangan go'zal ma'shuqa.
- ≈ **i gulrux** [f-t.] Gul yuzli, gul yanoqli mahbuba.
- ≈ **i zarrinkamar** [f-t.] Tilla kamarli sanam, go'zal ma'buda, mahbuba.
- ≈ **i zebo** [f-t.] Malohatli, go'zal, chiroyli mahbuba, sevikli yor.
- ≈ **i mahvash** [f-t.] Oydek go'zal yor.
- ≈ **i mahsiymo** [f-t. *mah* (*oy*) + a. *siymo* (*ko`rinish*)] Oyga o`xshash, oyday go'zal mahbuba.
- ≈ **i nozanin** [f-t.] Nozli, nozik yor.
- ≈ **i paymongusil** [f-t.] Ahdini buzuvchi yor.
- ≈ **i paymonshikan** [f-t.] Ahdini buzuvchi yor.
- ≈ **i parizod** [f-t.] Parilar avlodidan bo`lgan, paridek go'zal yor.
- ≈ **i parichehr** [f-t.] Pari yuzli, go'zal chehrali yor.
- ≈ **i ra'no** [f-t. *but* + a. *ra'no*] Go'zal, sevikli ma'shuqa.
- ≈ **i sarv** [f-t.] Sarvdek tik qomatli mahbuba.
- ≈ **i siyminbadan** [f-t. *siym* (*kumush*) + a. *badan*] Oqbadan, go'zal sevgili.
- ≈ **i sitamgar** [f-t.] Jabr qiluvchi go'zal yor.
- ≈ **i tarso** [f-t.] Yahudiy, juhud qizi, go'zal sanam.
- ≈ **i xirgoh** [f-t.] xirgohdagi, parda orqasidagi go'zal.
- ≈ **i xammor** [f-t. *but* + a. *xammor*] mayxo'r (may – tasavvufda ishq), ichkilikka berilgan go'zal; ichimlik tayyorlovchi, sotuvchi. Ko`chma ma'noda. *Allah*.
- ≈ **i qotil** [f-t. *but* + a. *qotil* (*qatl qiluvchi*)] jabr qiluvchi, oshiqning jonini oluvchi mahbuba.
- ≈ **i chin** [f-t. *but* + t. *chin*] Chin go'zali, mahbuba.
- ≈ **i cholok** [f-t.] Go'zal, nozik yor.
- ≈ **i shakarlab** [f-t.] Shirin so'zli yor.
- ≈ **i shirinkalom** [f-t. *but* + *shirinkalom* (f-t. *shirin* + a. *kalom*)] SHirinso`z, shirinzabon, yor.
- ≈ **i sho`x** [f-t.] Sho`x-shaddod go'zal.

≈ **i huriy** [*f-t. but + a. huriy*] Mahbuba, hurlardek go`zal ma'shuqa.

≈ **i hursifat** – (*f-t. but + a. hur sifat*) Mahbuba, ozod va hur kabi ma'shuqa.

## V

**VAFODOR** [*a. vafo + f-t. doshtan (ega bo `lmoq) fe 'lining hozirgi zamon asosi*]

Vafoli kishi, doimiy do`s, sadoqatli yor. Sinonimlari: *yori vafodor*.

Antonimlari: *vafosiz, bevafo, bevafovash*.

**VAFOSIZ** [*a. vafo + -siz*] Bevafo, ahdbuzar. Sinonimlari: *vafo-siz, bevafo, bevafovash*. Antonimlari: *vafodor, yori vafodor*.

## G

**GAVHAR** [*f-t.*] Qimmatbaho tosh; ko`chma ma'noda go`zal, chiroyli mahbuba. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan. Sinonimi: *dur*. Varianti: *javhar*.

≈ **i yakto** [*f-t.*] Yagona gavhar; yetuk go`zal, go`zallar go`zali.

**GUL** [*f-t.*] Ko`chma ma'noda go`zal, jonon, yor, mahbuba. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

≈ **xirmani** [*f-t.*] Gul dastasi; go`zal yor, sevikli ma'shuqa.

≈ **i bog`i jinon** [*f-t. gul + t. bog` + a. jinon*] Jannat bog`ining guli; ko`chma ma'noda malohatli dilbar.

≈ **i navxosta** [*f-t.*] Yosh, go`zal mahbuba.

≈ **i ra'no** [*f-t. gul + a. ra'no*] Ra'no guli; go`zal mahbuba, gulday so`lim yor.

≈ **i ruxsor** [*f-t.*] Guldek yuz, go`zal yuz.

≈ **i sarvqomat** [*f-t. gul + sarvqomat ( f-t. sarv + a. qomat)*] Qad-qomati kelishgan, sarvqad, gulday so`lim yor.

≈ **i sumanbar** [*f-t.*] Oqbadan, go`zal mahbuba.

≈ **i xandon** [*f-t.*] Ochilgan gul; ko`chma ma'noda kulib yuruvchi mahbuba.

≈ **i sham'jabin** [*f-t. gul + shamjabin (arabcha sham' + jabin (peshona)*]

SHamdek yorug` peshonali, go`zal sevgili.

**GULANDOM** [f-t.] Gulbichim, gulbadan.

**GULBARG** [f-t.] Gulning nozik barglari, ko`chma ma'noda yor. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

≈ **i tar** [f-t. *gulbarg* + *tar* (*xo'l*)] Dilbar, ma'shuqa.

≈ **i xandon** [f-t.] Kulib turgan, yoqimli tabassum egasi, go`zal ma'shuqa.

≈ **i nozparvard** [f-t.] Nozli, noz qilishga o'rgangan; erka yor.

**GULJABIN** [f-t. *gul* + *a. jabin* – *peshona*] Gul peshona, ochiq peshona, husndor, gulday so`lim.

**GULRUX** [f-t.] 1. Gul yuzli, go`zal yuzli. 2. Mahbuba, ma'shuqa. Variantlari: *gulruxsor*, *gulro`y*. Sinonimlari: *gulchehra*, *gul'uzor*.

≈ **i ra'noqad** [f-t. *gulrux* + *a. ra'noqad*] Go`zal, zebo, sarvqad mahbuba.

≈ **i tannoz** [f-t.] Nozik tan, nozik tabiatli go`zal, go`zal mahbuba.

**GULRUXSOR** [f-t.] Gul yuzli, go`zal chehrali yor.

**GULRO`Y** [f-t.] Gul yuzli, go`zal, chiroqli.

**GULCHEHR/GULCHEHRA** [f-t.] CHehrasi gulday, go`zal, so-hibjamol.

≈ **i xurshedvash** [f-t.] Quyoshga o'xshash go`zal, ma'shuqa.

**GULSHAN** [f-t.] Gulzor; ko`chma ma'noda sevgili, ma'shuqa. Istiora san'atini yuzaga keltirgan.

**GUL'UZOR** [f-t. *gul* + *a. uzor* (*chehra*)] Gul yuzli, go`zal.

## D

**DAHR SHO`XI** [*a. dahr* (*dunyo, zamona*) + f-t. *sho`x*] Zamon sho`xi, go`zallar go`zali.

**DILAFRO`Z** [f-t.] Dilni yorituvchi, ko`ngilni shod etuvchi.

**DILBAR** [f-t.] Dilni o`ziga tortuvchi; jonon, go`zal yor.

≈ **i zebo** [f-t.] Go`zal, yoqimli sevgili, ma'shuqa.

≈ **i tarso** [f-t. *dilbar* + *a. tarso*] Yahudiy go`zali, go`zal mahbuba.

**DILDOR** [f-t.] Ko`ngilni o`ziga asir qiluvchi; mahbuba, sevgili, yor.

**DILNAVOZ** [f-t.] Dilni erkalovchi, sevgili, ma'shuqa.

**DILORO(Y)** [f-t.] Ko`ngil bezagi, ko`ngilni yumshatadi-gan; sevgili.

**DILOROM** [f-t.] Ko`ngilni o`zida tutuvchi, mahbuba, sevikli.

**DILRABO** [f-t.] 1. Dilni o`ziga tortuvchi, jozibali, dil-kash, ko`ngilni tortuvchi. 2. Mahbuba, go`zal, jonon.

**DILSITON** [f-t.] Dilni oluvchi, ko`ngilni o`ziga asir qiluvchi; mahbuba, ma'shuqa.

**DILSHUDA** [f-t.] Ko`chma ma'noda yor.

**DILXOH** [f-t.] Ko`ngil istagi, istak, intilish; ko`chma ma'noda yor.

**DUR** [a.] Marvarid, gavharning bir turi; ko`chma ma'noda yor. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

≈ **i garomiy** [a.] Qimmatbaho dur, inju; go`zal mahbuba, aziz yor.

**DO`ST** [f-t.] 1. O`rtoq, do`st. 2. Ma'shuqa, mehribon yor.

## Yo

**YOR** [f-t.] Mahbuba, sevgili.

≈ **i vafodor** [f-t. *yor* + *vafodor*] Vafodor yor, ahdidan qaytmas go`zal.

## J

**JAVHAR** [f-t. *gavharning arabi shakli*] Qimmatbaho tosh, nodir, noyob; xazinaga teng yor, sevikli ma'shuqa. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

**JAFOJO`** [a. *jafo* + f-t. *jo'*] Jafo qiluvchi, jafo izlovchi, sitamgar. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat. Sinonimlari: *jafokesh*, *jafo-kor*, *sitamgar*, *zolim*.

**JAFOKESH** [a. *jafo* + f-t. *kesh*] Aziyat, jafo beruvchi.

**JAFOKOR** [a. *jafo* + f-t. *kor*] Jafo qiluvchi, zolim.

**JAHON AYYORASI** [f-t. *jahon* + a. *ayyora*] Zamonning ayyori.

**JAHONSO`Z** [f-t.] Jahonni kuydiruvchi, jahonni yoquvchi; quyosh; mahbuba, sitamgar.

**JIGAR PARGOLASI** [f-t.] Jigar parchasi; ko`chma ma'noda yaqin inson, yor. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

**JILVAGAR TOVUS** [jilvagar ( tojik tilida a. jilva + f-t. -gar qo'shiluvidan yasalgan) + a. tovus] Tovusdek jilva qiluvchi go'zal mahbuba.

**JON** [f-t.] Ko`chma ma'noda sevikli jonon. Istiora san'ati orqali yuzaga kelgan.

**JONON** [f-t.] 1. Juda go'zal, barno ayol. 2. Yoqimli, juda yaxshi. Varianti: *jonona*.

**JONONA** [f-t.] Mahbuba, sevikli yor.

## Z

**ZEBO** [f-t.] Go'zal, husnli, chiroylı mahbuba, ma'shuqa.

**ZINDADIL** [f-t.] Dili toza, ichida kiri yo'q, xushchaqchaq. Yorning ijobiy xarakterini ifodalovchi sifat.

**ZOLIM** [a.] Bag`ritosh, shafqatsiz, toshyurak, rahmsiz. Yorning oshiqqa bo`lgan salbiy munosabatini ifodalovchi sifat.

**ZULFI PARISHON** [f-t.] Yoyilgan, to`zg`igan zulf, soch. Sinekdoxa usuli yordamida yorni ifodalaydi.

**ZULFI SUMANSO** [f-t.] Yasmin gulidek go'zal va xushbo'y zulf, soch; yor.

## I

**ISHVAGAR** [f-t.] Noz-karashma qiluvchi, dilni o`g`irlovchi, mahbuba.

**IQBOL** [a.] Omad, baxt; ko`chma ma'noda yor.

# K

**KAJKULAH** [f-t.] Kulohini qing`ir kiygan, bo`rkini chekkasiga qiyshaytirib kiygan; ma'shuq, mahbub, sho`x.

**KICHIK YoSHLIG`** [t.] Yosh mahbuba.

**KOFIR** [a.] Ko`chma ma'noda bag`ritosh, jafokor.

≈ **i balo** [a.] Balo keltiruvchi, dindan ayiruvchi go`zal yor.

≈ **i badxo`** [a. *kofir* + f-t. *badxo`* (*yomon xulqli*)] Ko`chma ma'noda bag`ritosh, jafokor yor.

≈ **i bebok** [a. *kofir* + f-t. *bebok*] Hech narsadan tap tort-maydigan, qo`rqmas yor.

≈ **i sangindil** [a. *kofir* + f-t. *sangindil* (*toshbag`ir*)] Toshbag`ir, ko`ngli qattiq, rahmsiz.

≈ **i chobuksuvor** [a. *kofir* + f-t. *chobuksuvor*] Otga mingan bag`ritosh go`zal.

≈ **i qotil** [a.] Rahmsiz, beshafqat.

**KOFIRVASH** [a. *kofir* + f-t. *-vash*] O`zini kofirdek tutuvchi, nomehribon.

≈ **i mohpaykar** [*kofirvash* (a. +f-t.) + *mohpaykar* (f-t.)] Kofirga o`xhash berahm go`zal yor.

**KO`RKABOY** [t.] Chiroyli, husnli, go`zal.

**KO`ZGU CHEHRALIK MAHRO`** Oynadek tiniq yuzli, oy yuzli go`zal.

**KO`Z** [t.] Insonning ko`rish a'zosi; ko`chma ma'noda yor. Sinekdoxa orqali yorni ifodalaydi.

≈ **i kofir** [t. *ko`z* + a. *kofir*] Dindan og`diruvchi ko`zlar; ko`chma ma'noda yor.

≈ **i sayyod** [t. *ko`z* + a. *sayyod*] Oshiqlar qalbini ovlovchi ko`z; ko`chma ma'noda yor.

≈ **i sohir** [t. *ko`z* + a. *sohir*] Sehrlovchi ko`z; ko`chma ma'noda yor.

≈ **i usruk** [t. + f-t.] Jodu ko`zli go`zal yor.

≈ **i fatton** [t. + a.] O`ziga maftun qiluvchi go`zal ko`zlar.

≈ **i qora** [t.] Qora ko`zli dilbar.

≈ **i qotil** [t. *ko`z* + a. *qotil*] E'tiborsizlik bilan qatl etuvchi ko`zlar; beparvo yor.

≈ **i shahlo** [t. *ko`z* + a. *shahlo*] SHahlo ko`z, katta qora ko`zli go`zal.

**KO`NGLUM OLG`AN** [t.] Ko`ngil olgan yor.

## L

**LAYLIVASH** [a. *Layli* (*tungi; Majnunning sevgilisi*) + f-t. *-vash* (*o`xshash*)]

Layliga o`xshash.

**LAM`AI MEHRI XOVARI** SHarq quyoshi nuri, sevgili yor.

**LA`LI RUHAFOZO** [a. *la'l* (*qizil rangli qimmatbaho tosh*) + *ruhafzo*] Jon bag`ishlovchi lab; mahbuba.

**LOLARUX** [f-t.] Lola yuzli, qizil yuzli; go`zal sevgili, ma'shuqa.

**LU'BAT** [a.] Qo`g`irchoq.

≈ **i siyminbadan** [a. *lu'bat* (*qo`g`irchoq*) + *siyminbadan* (f-t. *siym* (*kumush*) + a. *badan*)] Oq badanli mahbuba.

≈ **i Chin** [a. *lu'bat* + t. *Chin*] Chin go`zali, go`zal mahbuba. Shakllari: *Chin lu'bati*.

≈ **i shang** [a. *lubat* +f-t. *shang*] Go`zal, dilrabo, o`ynoqi ma'shuqa.

**LO`LI** [f-t. *ashula aytib raqsga tushuvchi*] Qorako`z, qorasoch go`zal.

**LO`LIVASH** [f-t.] Lo`liga o`xshagan, go`zal, sho`x.

## M

**MAVZUN** [a.] Go`zal, xushbichim mahbuba.

**MALAK** [a. *farishta*] Ko`chma ma'noda go`zal, mahbuba. O`xshatish orqali hosil qilingan.

**MALAKVASH** [a. *malak* +f-t.-*vash*] Farishtasifat, yor.

**MALAKSIYMO** [a.] Farishtaga o`xshash, g`oyat go`zal.

≈ **pari** [a. *malaksiymo* +f-t. *pari*] G`oyat go`zal mahbuba.

≈ **pariyvash** [a. *malaksiymo* +f-t. *pariyvash*] Go`zal yor.

**MALAKXO`LUQ PARIZOD** [a. *malak* + f-t. *xo`* + t. *-luq*) + f-t. *parizod*]

Go`zal tabiatli, farishta sifatli pari, ma'shuqa.

**MALOHAT GANJI** [a. *malohat* + f-t. *ganj*] Malohat, go`zallik xazinasi; go`zal sevgili.

**MALOHAT GULBUNI** [a. *malohat* + f-t. *gulbun*] Go`zallik butasi; go`zal yor.

**MALOHAT MASH'ALI** [a. *malohat* + f-t. *mash'al*] malohat egasi, nur taratuvchi go`zal yor.

**MALOHAT NAXLI** [a.] Malohat niholi; yosh, go`zal, chiroyli mahbuba.

**MALOHAT SHAM'I** [a.] Malohatda shamdek nur taratuvchi go`zal.

**MASTI BEBOKIM** [f-t.] Rahmsiz yor.

**MATLUB** [a.] Istalgan, orziqib kutilgan; sevikli jonon.

**MA'SHUQ** [a.] Sevilgan, mahbub, sevgili.

**MA'SHUQA** [a.] Mahbuba, sevgili.

≈ **i zebo** [a. *ma'shuqa* + f-t. *zebo*] Go`zal mahbuba.

**MAH** [f-t.] Oy, istiora san'ati orqali yorni ifodalaydi. Sinonimlari: *oy, qamar*.  
Shakllari: *moh*.

≈ **i badmehr** [f-t.] Shafqatsiz, mehrsiz yor, ma'shuqa.

≈ **i gulgun qabo** [f-t.] Gul rangida kiyangan oy, go`zal yor.

≈ **i gulxad** [f-t.] Gul yanoqli go`zal, gulyuz.

≈ **i zuhrajabin** [f-t. *mah* + a. *zuhrajabin*] Go`zal mahbuba; Zuhra yulduziga o`xshash go`zal ma'shuqa.

≈ **i mahmilnishin** [f-t.] Mahmilda o'tirgan go`zal.

≈ **i nomehribon** [f-t.] Mehrsiz go`zal.

≈ **i tobon** [f-t.] Tovlanuvchi, porloq oy; go`zal yor.

≈ **i ulviy** Oliy, yuksaklikdagi oy; go`zal yor.

≈ **i xovariy** [f-t.] Go`zallikda yetuk yor.

≈ **i g`ofilvash** [f-t. *mah* + g`ofilvash (a. *g`ofil* + f-t. *-vash*)] O`zini bilmaslikka soluvchi, beparvo yor.

**MAHBUB** [a.] Sevgili, ma'shuqa; do`st.

≈ **i xudroy** [a. *mahbub* + f-t. *xudroy*] Faqat o`zini o`ylovchi yor.

**MAHBUBA** [a.] Go`zal, sevikli yor.

**MAHVASH** [f-t.] Oyga o`xshash, oyday go`zal mahbuba. Sinonimlari: *qamarvash*. Shakllari: *mohvash*.

≈ **i xammor** [f-t. *mahvash* + a. *xammor*] May tayyorlovchi, sotuvchi (may – ishq); ma'shuqa.

**MAHVASHJAMOL** [f-t. *mahvash* + a. *jamol*] Oyga o`xshash chehrali, go`zal, yoqimli sevgili.

**MAHJABIN** [f-t. *mah* + a. *jabin*] Peshonasi porloq, go`zal.

**MAHPORA** [f-t.] Oy parchasi; go`zal.

**MAHRO`** [f-t.] Oy yuzli, go`zal.

**MEHRI YO`Q MOHIM** Nursiz oy; mehrsiz yor.

**MEHR** [f-t.] Quyosh; ko`chma ma'noda yor.

≈ **i jahonoro** [f-t.] Jahonni yorituvchi go`zal.

≈ **i munir** [f-t. *mehr* + a. *munir*] Olamni yorituvchi quyosh.

≈ **i olamtob** [f-t. *mehr* + *olamtob* (a. *olam* + f-t. *tob*)] Olamni yorituvchi quyosh, go`zal yor.

**MEHRVASH** [f-t.] Quyoshga o`xshash; malohatli yor.

**MIRZO** [a. *mir* (*amir*) + f-t. *zoda* (*o`g`il*)] Amir; qalb sohibi. Sinonimlari: *begim, shoh, sulton*.

**MOH** [f-t.] Go`zal, sevgili, mahbuba, oy yuzli.

≈ **i majlisoro** Majlisni bezovchi, yorituvchi oy, go`zal sev-gili.

≈ **i muaddab** [f-t. *moh* + a. *muaddab*] Odobli oy, odobli yor.

≈ **i nav'** [f-t.] Yangi oy.

≈ **i nokasta** [f-t.] Ayb-nuqson siz to`lin oy, benuqson dilbar, mahbuba.

≈ **i parichehr** [f-t.] Go`zal chehrali oy, mahbuba.

≈ **i sarvqad** [f-t. *moh* + *sarvqad* (f-t. *sarv* + a. *qad*)] Qad-qomati kelishgan go`zal yor.

≈ **i siymgun** [f-t.] Oq tanli go`zal.

≈ **i tobon** [f-t.] Charaqlagan oy, go`zal yor.

≈ **i falaksayri tezgard** Sayr qiluvchi oy.

≈ **i Farxor** Farxar shahri go`zali.

≈ **i shabgard** [*f-t.*] Tunda sayr qiluvchi oy; sevgili, ma'-shuqa.

≈ **i xirgoh** [*f-t.*] Xirgohdagi oy, yor.

**MOHVASH** [*f-t.*] Oyga o'xshagan go'zal.

**MOHLIQO** [*f-t.*] Oy yuzli; go'zal yor.

**MOHPAYKAR** [*f-t.*] Oy suratli, go'zal.

**MOHPORA** [*f-t.*] Oy parchasi; mahbubaning yuzi, chehrasi, jamol.

**MOHRUX** [*f-t.*] Oy yuzli, go'zal.

**MOHRUXSOR** [*f-t.*] Oy yuzli go'zal.

**MOHTAL'AT** [*f-t. moh + a. tal'at*] Oy yuzli, suluv.

**MUNIS** [*a.*] Ulfat, hamdam, yaqin do'st.

**MUG`BACHA** [*f-t.*] May tashuvchi, kosagul; soqiy; ma'shuqa.

≈ **i bodaparast** [*f-t.*] Soqiy; ma'shuqa.

## N

**NAVJUVON** [*f-t.*] Yosh mahbuba.

**NARGISI JODU** [*f-t.*] Jodu qiluvchi ko'zlar. Tashbeh va sinekdoxa orqali yorni ifodalaydi.

**NAXLQOMAT** [*a.*] Sarvqomat, qomati kelishgan, go'zal.

**NIGOR** [*f-t.*] Rasm, surat, tasvir, go'zal mahbuba.

≈ **i bodano'sh** [*f-t.*] Boda, may ichuvchi yor (may – ishq).

≈ **i pariro'y** [*f-t.*] Pari yuzli yor.

≈ **i hurmisol** [*f-t. nigor + a. hurmisol*] Hur kabi, hursifat, go'zal.

**NILUFARIM** [*f-t. nilu (ko'k, to'q ko'k) + far (yarqirash, chiroy)*] Nilufar guliday go'zal yor.

**NIHOL** [*f-t.*] Yosh daraxt; nozik mahbuba. Tashbeh asosida yorni ifodalaydi.

Sinonimi: *naxl*.

≈ **i noz** [*f-t.*] Nozli va nozik yor.

**Zebonihol** [*f-t.*] Qad-qomati kelishgan go'zal yor. O'xshatish asosida hosil bo'lgan.

**Nozik nihol** [*f-t.*] Nozik, xushbichim ma'shuqa.

**Ra'no nihol** [*a. ra'no + f-t. nihol*] Go'zal va nozik yor.

**NODIRA** [*a.*] Go'zal, mahbuba.

**NOZANIN** [*f-t.*] Nozli mahbuba, go'zal sevgili.

**NOMEHRIBON** [*f-t.*] Mehrsiz, shafqatsiz.

**NOMUSULMON** [*f-t. no- + a. musulmon*] Ko'chma ma'noda yor.

**NO`SHLAB** [*f-t.*] Shirinlab, mahbuba.

## O

**OY** [*t.*] Go'zal, mahbuba.

**OYIM** [*f-t. mo`tabar*] Xonim, go'zal.

**ORAZI DILRABO** [*a. oraz + f-t. dilrabo*] Dilni tortuvchi, jozibali chehra.

**ORAZI MOH** [*a. oraz + f-t. moh*] Oy yuzli, chiroylı chehrali.

**OROMIJON** [*f-t.*] Kishiga huzur bag`ishlaydigan, yoqimli.

**OTASHPORA** [*f-t.*] Cho`g`, o't parchasi; sho`x mahbuba.

**OFTOBI XOVARI** [*f-t.*] Sharq quyoshi; go'zal mahbuba.

**OSHNO** [*f-t.*] Yaqin do`st, sevgili.

**OSHUBI JAHON** [*f-t.*] Jahon g`avg`osi, g`avg`o ko`taradigan darajada go'zal.

## P

**PARI (Y)** [*f-t.*] Pari; mahbuba, go'zal, yor.

**PARIVASH** [*f-t.*] Pariga o`xshash, go'zal.

**≈ paykar** [*f-t.*] Pariga o`xshash, go'zal yor.

**PARIZOD/PARIZODA** [*f-t.*] Go'zal, pari avlodi.

**PARI PAYKAR** [*f-t. pari+ paykar (qomat)*] Pari surat, go'zal, chiroylı.

**≈ malaksiymo** [*f-t. paripaykar + a. malaksiymo*] Malak sifatli, malakovash, malohatli dilbar, pari suratli zebo.

**PARIRUX** [*f-t.*] Pari yuzli, zebo, go`zal.

**PARIRUXSOR** [*f-t.*] Pari yuzli, go`zal yor.

**PARIRO`Y** [*f-t.*] Parichehra, parivash, go`zal, nozanin.

**PARISON** [*f-t.*] Pari kabi, pariga o`xshash, go`zal.

**PARICHEHR/PARICHEHRA** [*f-t.*] Pariruxsor, go`zal.

## R

**RAFIQ** [*a.*] 1. Do`s, o`rtoq. 2. Mahbuba, sevgili.

≈ **i jovidoniy** [*a.*] Umrbod o`rtoq, doimiy yor.

≈ **i zebochehr** [*a. rafiq + f-t. zebochehr*] Go`zal siymoli hamroh.

≈ **i zeboxo`y** [*a. rafiq + f-t. zeboxo`y*] Go`zal xulqli hamroh.

**RUXSOR** [*f-t.*] Chehra, yuz.

≈ **i gulgun** [*f-t.*] Gulday go`zal chehrali, mahbuba.

≈ **i zebo** [*f-t.*] Go`zal chehrali, mahbuba.

≈ **i mahsiymo** [*f-t. ruxsor + mahsiymo (f-t. mah + a. siymo)*] Oy yuzli, go`zal.

## S

**SABZI SHIRIN** [*f-t.*] Ko`chma ma`noda yor.

**SANAM** [*a.*] Go`zal mahbuba, ma`shuqa.

≈ **i mohchehra** [*a. sanam + f-t. mohchehra*] Oy yuzli go`zal.

**SAODAT AXTARI** [*a.*] Baxt yulduzi; oshiqqa baxt beruvchi yor.

**SARV** [*f-t.*] Qad-qomati kelishgan, go`zal ma`shuqa.

≈ **i gulandom** [*f-t. sarv+ gulandom*] Xushbichim sevgili.

≈ **i gulrux** [*f-t. sarv + gulrux*] Guldek qad-qomati kelishgan go`zal.

≈ **i gulruxsor** [*f-t. sarv + gulruxsor*] Gul chehrali, go`zal sevgili.

≈ **i gulro`** [*f-t. sarv + gulro`*] Xushro`y, chiroyli, sevikli ma`shuqa.

≈ **i gulchehr** [*f-t. sarv + gulchehr*] Chehrasi gulday, sarvqomat go`zal,

sohibjamol.

- ≈ **i gul'uzor** [*f-t. sarv + gul'uzor (f-t. gul + a. uzor)*] Gul yuzli go`zal, sarvqomat mahbuba.
  - ≈ **i mahliqo** [*f-t. sarv + mahliqo*] Kelishgan qomatli, oy yuzli go`zal.
  - ≈ **i navhez** [*f-t.*] Yosh juvon, mahbuba.
  - ≈ **i noz** [*f-t.*] Go`zal, kelishgan, nozli sevgili.
  - ≈ **i ozod** [*f-t.*] Chirolyi, latofatli yor.
  - ≈ **i parirux** [*f-t.*] Xushqomat, go`zal yor.
  - ≈ **i pariruxsor** [*f-t.*] Pari yuzli, go`zal chehrali, go`zal, sarvqomat sevgili.
  - ≈ **i pariro`y** [*f-t.*] Parichehra, parivash, go`zal, sarvqomat mahbuba.
  - ≈ **i ravon** [*f-t.*] Kelishgan mahbuba, qalb go`zali.
  - ≈ **i ra'no** [*f-t. sarv + a. ra 'no*] Xushbichim, xushqomat go`zal.
  - ≈ **i saraafroz** [*f-t.*] Boshini yuqori ko`targan, xursand, mag`rur yor, mahbuba.
  - ≈ **i siymandom** [*f-t.*] Kelishgan, chirolyi, go`zal.
  - ≈ **i siyminbar** [*f-t.*] Oq badanli, go`zal.
  - ≈ **i siymintan** [*f-t. sarv + siymintan (f-t. siym + a. tan)*] Qad-qomati kelishgan, oq badanli go`zal.
  - ≈ **i sumanbar** [*f-t. sarv + sumanbar (a. suman + f-t. -bar)*] Oqbadan, go`zal sevgili, sarvqomat mahbuba.
  - ≈ **i sumanbo`(y)** [*f-t. sarv + sumanbo `y (a. suman + f-t. -bo `(y))*] Suman hidli, yasmin kabi xushro`y, sarvqomat, yoqimli sevgili.
  - ≈ **i xiromon** [*f-t.*] Kelishgan qomatli, chirolyi yuruvchi mahbuba.
  - ≈ **i cholok** [*f-t.*] Chirolyi sarv.
  - ≈ **i shakarlab** [*f-t.*] Shirinso`z, go`zal yor.
  - ≈ **i hurzod/hurizod** [*f-t. sarv + hurzod ( a. hur + f-t. zod)*] Hur zotidan bo`lgan go`zal yor.
  - ≈ **i hurnajod** [*f-t.sarv + a. hurnajod*] Hur naslidan, hur nasabli, qomati kelishgan go`zal yor.
- SARVQAD** [*f-t. sarv+ a. qad*] Qad-qomati sarvdek sevgili, sarvqomat mahbuba.

≈ **i kajkulah** [*sarvqad* (*f-t. sarv + a. qad*) + *f-t. kajkulah*] Qad-qomati sarvdek sevgili, sarvqomat, kulohini teskari kiygan mahbuba.

≈ **i sabzarang** [*sarvqad* (*f-t. sarv + a. qad*) + *f-t. sabzarang*] Qad-qomati sarvdek sevgili, sarvqomat, yashil rangli kiyangan sarvdek yor.

≈ **i siymbar (siyminbar)** [*sarvqad* (*f-t. sarv + a. qad*) + *f-t. siymbar*] Qomati kelishgan, oqbadan yor.

≈ **i shirinlab** [*sarvqad* (*f-t. sarv + a. qad*) + *f-t. shirinlab*] Shirin so'zli, sarv qadli go'zal yor.

**SARVQOMAT** [*f-t. sarv + a. qomat*] Kelishgan, xushbichim yor.

≈ **i mavzun** [*sarvqomat* (*f-t. sarv + a. qomat*) + *a. mavzun*] Xushqomat, qad-qomati kelishgan go'zal.

**SEVAR DILDORI** [*t. sevar + f-t. dildor*] Sevikli yori, sevimli go'zali.

**SEVAR YORI** [*t. sevar + f-t. yor*] Sevikli yori, sevimli go'zali.

**SIYMANDOM** [*f-t.*] Kumush tan, oq badan.

**SIYMBAR** [*f-t.*] Kumushbadan, go'zal ma'shuqa.

**SIYMINBADAN** [*f-t. siym + a. badan*] Oq badanli, xushro'y, zebo.

**SIYMBILAK** [*f-t. siym + t. bilak*] Oqbilak, go'zal yor.

**SIYMTAN/SIYMINTAN** [*f-t. siym + a. tan*] Kumushbadan, go'zal ma'shuqa, zebo.

**SIHIQAD** [*f-t. sihi + a. qad*] Qad-qomati kelishgan, nozik, xushqomat.

**SIHI SARV** [*f-t.*] Chiroyli va sarv qomatli mahbuba.

**SULTON** [*a.*] Ma'shuqa, sevgili.

≈ **i husn** [*a.*] Go'zallar go'zali, eng go'zal.

**SUMANBAR** [*a. suman + f-t. -bar*] Oqbadan; go'zal sevgili.

## T

**TALXGUFTOR** [*f-t.*] Achchiq so'zli.

**TIFLVASH** [*a. tifl + f-t. -vash*] Bolatabiat; nozik, nozanin, go'zal.

**TOVUSPAYKAR** [*a. tovus + f-t. paykar*] Tovusdek tovlanuvchi, go'zal.

**TOSHBAG`IR** [t.] Bag`ritosh, shafqatsiz.

**TURK** [t.] Sho`x, go`zal, o`ynoqi mahbuba

≈ **i chobuk** [t. *turk* + f-t. *chobuk*] Chavandoz, go`zal.

## U

**UL** [t.] Ko`rsatish olmoshi.

**UMR** [a.] Hayot, hayotga teng yor.

## F

**FARRUXJAMOL** [f-t. *farrux* + a. *jamol*] Go`zal, yoqimli, husnli.

**FITNAGAR** [a. *fitna* + f-t. *-gar*] Fitnachi, fitna qiluvchi, go`zal ma'shuqa.

**FUSUNGAR** [f-t.] Afsun qiluvchi, o`ziga maftun qiluvchi.

## X

**XITO LU'BATI** Chin go`zali.

**XURDNAMOYIM** [f-t.] Faqat o`zini o`ylovchi.

**XURSHID** [f-t.] Quyosh; ko`chma ma'noda yor.

≈ **i raxshon** [f-t.] Nur taratuvchi quyosh, go`zal yor.

≈ **i tobon** [f-t.] Charaqlagan quyosh, yor yuziga ishora

**XURSHIDPAYKAR** [f-t.] Quyosh suratli.

**XURSHIDSIYMO** [f-t. *xurshid* + arabcha *siymo*] Quyosh yuzli, go`zal, chiroyli.

**XO`B** [f-t.] Yaxshi, chiroyli, go`zal

≈ **lar shahi** [f-t.] Yaxshilar shohi, go`zallar go`zali.

## CH

**CHAROG`I HUSN** [*f-t. charog` (lampa, yorug`lik taratuvchi) +arabcha husn*] Go`zallik chirog`i, g`oyat go`zal yor.

**CHIN LU'BATI** [*t. chin + a. lu'bat*] Xitoy go`zali, go`zal mahbuba

**CHOBUK** [*f-t.*] 1. Tez, ildam, chaqqon. 2. Sho`x, o`ynoqi, go`zal.

≈ **i zebo** [*f-t.*] Zebo, malohatli dilbar, chavandoz.

≈ **i ra'no** [*f-t. chobuk + a. ra'no*] Malohatli dilbar, cha-vandoz.

**CHOBUKSUVOR** [*f-t.*] Chavandoz, otni mahorat bilan bosh-qaruvchi.

## SH

**SHAM'** [*a.*] Xushqomat, go`zal yor, oshiqlarni o`ziga tortuvchi go`zal mahbuba.

≈ **i shabiston** [*a. sham' + f-t. shabiston (shab – kechasi + -iston)*] Tunni yorituvchi go`zal.

**SHANG** [*f-t.*] Sho`x, o`ynoqi; go`zal, nozanin.

**SHAHSUVOR** [*f-t.*] Sevgili, ma'shuqa.

**SHAH** [*f-t.*] Sulton; ko`chma ma'noda yor. Sinonimlari: *begin, mirzo, sulton.* Qarang: *shoh.*

≈ **i ollyjanob** [*f-t. shah + a. ollyjanob (olliy + janob)*] ollyjanob shoh, yor.

≈ **i farxundasifot** [*f-t.*] Baxtli yor.

**SHIRINLAB** [*f-t.*] Shirin so`zli.

**SHOH** [*f-t. asli "Eron hukmdori" ma'nosini anglatgan, keyinchalik ma'no kengayishi yuz bergen*] Eng go`zal, go`zallar go`zali.

≈ **i zolim** [*f-t. shoh + a. zolim (zulm o'tkazuvchi)*] Zolim go`zal, azob beruvchi yor.

**SHOHID** [*a.*] Go`zal sevgili, xushsurat mahbuba

≈ **i gulro`** [*a. shohid + f-t. gulro`*] Go`zal mahbuba.

≈ **i ra'no** [a.] Eng go`zal mahbuba.

**SHOHIDVASH** [a. *shohid* + *f-t.-vash*] Go`zal sevgili, husndor mahbuba.

**SHO`X** [*f-t.*] 1.O`ynoqi, chaqqon. 2. Go`zal mahbuba.

≈ **i badxo`** [*f-t.*] Bag`ritosh yor.

≈ **i balo** [*f-t. sho`x + a. balo*] Balo keltiruvchi go`zal

≈ **i beparvo** [*f-t.*] Beparvo, bee'tibor, sho`x mahbuba, sevikli yor.

≈ **i dolfirib** [*f-t.*] Yo`ldan ozdiradigan, o`ziga tortuvchi go`zal.

≈ **i jafokekesh** [*f-t. sho`x + jafokekesh (a. jafo + f-t. -kesh)*] Aziyat, jafo beruvchi, mahbuba.

≈ **i jafokor** [*f-t. sho`x + jafokor ( a. jafo + f-t. -kor)*] Jafo qiluvchi sho`x.

≈ **i jodu** [*f-t.*] Go`zal, mahbuba, sevikli yor.

≈ **jononim** [*f-t.*] Go`zal yor.

≈ **i zebo** [*f-t.*] Go`zal, sho`x mahbuba.

≈ **i zolim** [*f-t.sho`x + a. zolim*] Go`zal, zulm qiluvchi, sho`x mahbuba.

≈ **i ishvagar** [*f-t.*] Noz-karashmali go`zal

≈ **i kabutarboz** [*f-t.*] Kabutar boquvchi, yaxshi ko`ruvchi yor.

≈ **i mardumkush** [*f-t.*] Oshiqlarining jonini oluvchi go`zal.

≈ **i nodon** [*f-t.*] Bexabar, o`ynoqi, beparvo yor, mahbuba.

≈ **i ra'no** [*f-t. sho`x + a. ra'no*] Go`zal, yoqimli sevgili, sho`x mahbuba, sevikli yor.

≈ **i sangindil** [*f-t.*] Toshbag`ir, ko`ngli qattiq, rahmsiz, o`ynoqi mahbuba.

≈ **i sarvqad** [*f-t. sho`x + sarvqad (f-t. sarv + a. qad)*] Qad-qomati kelishgan, go`zal ma'shuqa, o`ynoqi mahbuba.

≈ **i sarkash** [*f-t.*] Erka yor, sevikli ma'shuqa.

≈ **i siyminbar** [*f-t.*] Kumushtan, sarvqomat mahbuba, go`zal yor.

≈ **i sitamgar** [*f-t.*] Toshbag`ir go`zal.

≈ **i sitamkor** [*f-t.*] Sitam beruvchi, jabr qiluvchi, sho`x mahbuba.

≈ **i tarso** [*f-t.*] G`ayridin go`zali, juhud qizi

≈ **i xudkom** [*f-t.*] Faqat o`zini o`ylovchi, sho`x, o`ynoqi, go`zal sevgili.

≈ **i xudoroy** [*f-t.*] Faqat o`zini o`ylovchi yor, o`zbilarmon, o`jar sevgili.

- ≈ **i shakarxand** [f-t.] Tabassum qiluvchi, chiroyli va nozlanib kuluvchi, go`zal sevgili.
- ≈ **i shiringo`** [f-t. *sho`x + shiringo` (tojikcha shirin + guftan (gapirmoq fe`lining hozirgi zamon asosi)*] Shirinso`z, shirinzabon sho`x.
- ≈ **i shirinzabon** [f-t.] Shirinsuxan jonon, muloyim so`zli mahbuba.
- ≈ **i shirinkor** [f-t.] Shirin qiliq, yoqimli go`zal.
- ≈ **i qadahpaymo** [f-t. *sho`x + qadahpaymo ( arabcha qadah + tojikcha paymo)*] Go`zal yor.
- ≈ **i qallosh** [f-t.] Nayrangboz, hiylagar, sho`x mahbuba.
- ≈ **i hazora** [f-t.] Hazor qabilasiga mansub go`zal.

## Q

- QADDI XUSHRAFTOR** [a. *qad* + f-t. *xushraftor*] Chiroyli, yoqimli yuruvchi, qaddi kelishgan.
- QAMARVASH** [a. *qamar* + f-t. *-vash*] Oyga o`xhash, go`zal.
- QAMARSIYMO** [a.] Oy yuzli, go`zal, chiroyli.
- QAMARCHEHR** [a. *qamar*+f-t. *chehr*] Chehrasi oyday, oy yuzli, go`zal.
- QAROKO`Z (QORAKO`Z)** [t.] Qora ko`zli dilbar.
- QOTIL** [a.] Qotil, o`ldiruvchi, qatl qiluvchi; maftun qiluvchi go`zal, jabr-u jafo ko`rsatuvchi mahbuba.
- ≈ **i bebok** [a. *qotil* + f-t. *bebok*] Qon to`kishdan qo`rqmaydigan qotil, rahmsiz yor.
- ≈ **i xunxor** [a. *qotil* + f-t. *xunxor*] Qonxo`r, qon to`kuvchi, beshafqat yor.
- QOSHI Yo** [t. *qosh* + a. *yo*] Kamon qoshli yor.
- QUYOSH** [t.] Go`zal, ma'shuqa, tarso qiziga ishora.

## G'

**G`AZOLI MUSHKBO`/MUSHKINBO`** Mushk isi beruvchi kiyik, Tibet kiyigi; ko`chma ma'noda yor.

**G`UNCHA** [*f-t.*] Go`zal, ko`chma ma'noda yor.

## H

**HABIB** [*a.*] Do`sst; mahbuba, ma'shuqa, sevgili

**HAVROJABIN** [*a.*] Oy yuzli, go`zal

**HAYOTI JOVIDON** [*a.*] Umrboqiy hayot; ko`chma ma'noda yor.

**HUR** [*a.*] Jannatdagi go`zal qizlar. O`xshatish asosida hosil qilingan.

≈ **i iyn** [*a.*] Oq yuzli, qora ko`zli, qora sochli go`zal mahbuba.

≈ **i sumanbar** [*a. hur + sumanbar (a. suman+f-t bar)*] Oqbadan, go`zal sevgili.

**HURVASH/HURIVASH** [*a. hur + f-t. -vash*] Hurga o`xhash, go`zal.

**HURZOD/HURIZOD, HURIZODA** [*a. hur + f-t. zoda*] Hurdan tug'ilgan, go`zal, go`zallar nasli.

**HURPAYKAR** [*a. hur +f-t. paykar*] Hur qiyofali, go`zal sevgili.

**HUSN GANJI** [*a. husn + f-t. ganj*] Husn xazinasi, go`zal sevgili, go`zallar go`zali.

≈ **sham'i** [*a.*] Husni shamdek ko`zni qamashtiruvchi go`zal mahbuba.

≈ **i ruhafzo** [*a. husn + ruhafzo (a. ruh + f-t. afzudan (ko'tarmoq)*] Husni ko`ngilni ochuvchi, ko`taruvchi.

≈ **i ro`zafzun** [*a. husn + f-t. ro`zafzun*] Husni kundan kun ortib boruvchi, go`zal yor.